


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TABIY FANLAR FAKULTETI
EKOLOGIYA VA GEOGRAFIYA KAFEDRASI**



**“O'ZBEKISTONNING FOYDALI O'SIMLIKLARI”
O'QUV –USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi: 100000-Гуманитар фанлар

Ta'lim sohasi: 140000 – Табиий фанлар

Ta'lim yo'nalishi: 5А 1540101 - Биология

Guliston – 2018

KIRISH

Mazkur o'quv uslubiy majmua "O'zbekistonning foydali o'simliklari" fanidan "5A140101-Biologiya (botanika)" mutaxassisligi magistr talabalarini uchun mo'ljallangan.

"O'zbekistonning foydali o'simliklari" fani o'quv uslubiy majmuasini yaratishda etakchi xorijiy OTM lari o'quv dasturlariga asosiy adabiyotlar ro'yxatiga kiritilgan James D.Mauseth Botany an introduction to Plant Biology USA 2014. P.766. adabiyotlaridan foydalanildi.

"O'zbekistonning foydali o'simliklari" fani "5A140101-Biologiya (botanika)" mutaxassisligi magistr talabalarini uchun o'quv Asosiy savollarsiga asosan 2-semestrda mos ravishda 24 ma'ruza, 20 soat amaliyat va 16 soat seminar auditoriya soatlarda o'qitiladi. Fanni o'qitishdan asosiy maqsad Biologiya (Botanika) mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan magistr talabalarga O'zbekistonning foydali o'simliklari, floramizning naqadar boy ekanligi haqida ma'lumot berish bilan birgalikda foydali o'simliklarning guruhlari, turkum va turlari haqida, madaniy va tabiiy holda uchraydigan foydali o'simliklarning guruhlari, ekologiyasi, ularning inson xayotidagi roli, ishlatalishi, ahamiyati hamda O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan foydali o'simliklarning turkum va turlari haqida tushuncha beriladi.

O'zbekistonning foydali o'simliklari fani bo'yicha magistr: O'zbekiston florasi, foydali o'simliklar, foydali o'simliklar klassifikatsiyasi, O'zbekistonda keng tarqalgan foydali o'simliklar, foydali o'simliklarning inson hayotida tutgan o'rni, ularning o'simliklar qoplamidagi o'rni haqidagi tasavvurga ega bo'ladi. Foydali o'simliklarni sistematik jihatdan aniqlay olishni, foydali o'simliklarning xayotiy shakillarini, foydali o'simliklar ekologiyasini, ularning kimyoviy tarkibini, foydali o'simliklarning zaharli o'simliklardan farqini, o'simliklardan gerbariyalar tayyorlashni, foydali o'simliklar xom ashyosini yig'ish uslublarini bilishi va ulardan foydalana oladi.

Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma beshta qismdan iborat bo'lib, ular sillabus, ishchi o'quv Asosiy savollar, namunaviy va ishchi o'quv dastur, modulni o'qitishda foydalilaniladigan interfaol ta'lim metodlari, ma'ruza materiallari (ma'ruza matni, adabiyotlar ro'yxati, mustaqil ta'lim mavzulari, glossariy, keyslar banki, nazorat savollari va test savollari) va amaliy mashg'ulotlar, seminar mashg'ulotlari materiallari (amaliy topshiriqlar, namuna, adabiyotlar ro'yxati, tarqatma materiallar, keyslar banki, test savollari)dan tashkil topgan. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminar mashg'ulotlari materiallari bo'limlarga ajratilgan holda berilgan.

«O'ZBEKISTONNING FOYDALI O'SIMLIKLARI» fanining sillabusi
(2017/2018)

Kafedra nomi:	Ekologiya va geografiya		
O'qituvchi haqida ma'lumot:	Karshibaev J.X.		jahon@mail.ru
Semestr va o'quv kursining davomiyligi	Semestr va jami soat		
O'quv soatlari xajmi:	Jami:	120	
	Shuningdek:		
	Ma'ruza	24	
	seminar	16	
	Amaliy	20	
	mustaqil ta'lif	60	
Yo'nalish nomi va shifri	biologiya	5A140101	

Kursning predmeti va mazmuni: Oliy ta'lif tizimida yuksak malakali, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan 5A140101-biologiya (botanika) mutaxasisligi bo'yicha magistr kadrlarni tayyorlashda «O'zbekistonning foydali o'simliklari» kursi muhim ahamiyatga egadir. Bu kursda bo'lajak mutaxassis o'simliklarning eng muxim xususiyatlaridan biri – individlar va foydali o'simliklar hayoti bilan tanishadilar. O'zbekistonda keng tarqalgan oziq-ovqat o'simliklarini, sabzavot-poliz o'simliklarini, tolali o'simliklarni, ziravor o'simliklarni, em-xashak o'simliklarni, vitaminli va dorivor o'simliklarni, saponinli o'simliklarni, moyli va efir moyli o'simliklarni, asalli va oshlovchi moddalar saqlovchi o'simliklarni, manzarali o'simliklarni farqlay olish, sitematik o'rni aniqlay olish va ularni amalda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Kursni o'qitishning maqsadi va vazifalari:

Kursning maqsadi biologiya mutaxasisligi buyicha tahsil olayotgan magistrlarni O'zbekistonning foydali o'simliklari, ular tarqalgan hududlar va uchraydigan o'simlik jamoalari, ularning tashqi muxit sharoitlariga moslashish qonuniyatlari, tarqalishi, kimyoiy tarkibi, inson tomonidan foydalanimishi, o'simlik qoplamida tutgan o'rni va boshqa biologik va fitotsenotik xususiyatlari bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakani hamda kompetentlikni shakllantirishdir.

Fanning vazifalari – talabalarda foydali o'simliklarni aniqlay olish usullarini, ekologik omillarning o'simliklarga va fitotsenozlarga ta'sirini, tabiiy o'simlik resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalinish prinsiplarini amalda qo'llay olishni o'rgatishdan iborat.

Kursning tarkibi va mazmuni

No	Mavzular	Ma'ruza	Amaliy	seminar	TMI
1-semestr					
	O'zbekistonning foydali o'simliklari kursiga kirish.	2		2	8
	Foydali o'simliklarning xilma-xilligi . Foydali o'simliklar ekologiyasi	4	2	2	10
	Foydali o'simliklarni etishtirish va ko'paytirish	2		2	10
	Oziq-ovqat va sabzavot-poliz o'simliklari	2	2	2	6
	Tolali va ziravor o'simliklar	2	2	2	4

	Dorivor va vitaminli hamda asal beruvchi o'simliklar	2	2	4	10
	Moyli va efir-moyli o'simliklar	2	2	2	4
	Oshlovchi moddalar saqlovchi hamda saponinli o'simliklar	2	2		
	Manzarali va em-xashak o'simliklar	4	4		4
	Qurilish xom-ashyoli, Bo'yoqli va narkotik, zaharli moddalar saqlovchi o'simliklar	2	4		4
	Jami:	24	20	16	60

No	Mavzuning nomi	Mavzuning qiskacha mazmun-mohiyati.
	O'zbekistonning foydali o'simliklari kursiga kirish.	"O'zbekistonning foydali o'simliklari" fanining maqsadi, vazifalari va o'rganish usullari. Madaniy va tabiiy holda uchraydigan foydali o'simliklarning guruhlari, ekologiyasi va ularning inson xayotidagi roli, ishlatilishi, axamiyati, tabiiy zaxiralari. O'simliklar xom ashyosi zaxiralarini o'rganilish tarixi. O'zbekiston FA Botanika instituti va O'simliklar biokimyosi institutlarida olib borilgan ilmiy -tadqiqot ishlari. O'zbek olimlari tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan foydali o'simliklarning turkum va turlari haqida tushuncha
	Foydali o'simliklarning xilma-xilligi . Foydali o'simliklar ekologiyasi	Foydali o'simliklarning qo'llanilishiga qarab guruhlarga bo'linishi va klassifikatsiyalash. Amalda kengroq qo'llanilayotgan tizimlarga tavsif. O'zbekiston florasida tarqalgan foydali o'simliklarni xom-ashyosining tutgan o'rni va ishlatilishiga qarab asosiy guruhlariga ajratilishi. Foydali o'simliklarni tabiiy zaxiralarilar qayta tiklash va muhofaza etish yo'llari. Foydali o'simlik turlarining tik mintaqalar va turli ekologik xududlar bo'yicha tarqalishi. Ekologik omillarning tayyorlanayotgan xom-ashyo tarkibiga ta'siri.
	Foydali o'simliklarni etishtirish va ko'paytirish	Foydali o'simliklarni etishtirish va ko'paytirishdagi o'ziga xos agrotexnik tadbirlar. Daraxt va butalarni parvarish qilish (oziqrantirish, shakl berish, tuproqni yumshatish, sug'orish va h.). Foydali o'simliklarni urug'laridan ko'paytirish. Vegetativ organlar orqali sun'iy vegetativ ko'paytirish (tuganaklar, ildizpoyalar, piyozlar, ko'chatlar, payvandlash orqali va h.).
	Oziq – ovqat va sabzavot – poliz o'simliklari	O'zbekiston florasida keng tarqalgan turlari va madaniy navlari (don-dukkakli, oqsili, shakar beruvchi, yong'oqmevali, sitrusli, mevalar va h.). Ularning sistematik o'rni. O'simliklar qoplamicidagi ahamiyati. Tabiiy zahiralari. "Qizil kitob" ga kirgan turlari va ularni muhofaza qilish. Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish yo'llari.
	Tolali va ziravor o'simliklar.	O'zbekiston florasida keng tarqalgan turlari va madaniy navlari. Ularning sistematik o'rni. O'simliklar qoplamicidagi ahamiyati. Tabiiy zahiralari. "Qizil kitob" ga kirgan turlari va ularni muhofaza qilish. Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish yo'llari.

	Dorivor va vitaminli hamda asal beruvchi o'simliklar	Dorivor va vitaminli o'simliklar-O'zbekiston florasida keng tarqalgan turlari. Ularning sistematik o'rni. O'simliklar qoplamicidagi ahamiyati. Tabiiy zahiralari. "Qizil kitob" ga kirgan turlari va ularni muhofaza qilish. Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish yo'llari. Asalli beruvchi o'simliklar-O'zbekiston florasida keng tarqalgan turlari. Ularning sistematik o'rni. O'simliklar qoplamicidagi ahamiyati. Tabiiy zahiralari. "Qizil kitob" ga kirgan turlari va ularni muhofaza qilish. Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish yo'llari
	Moyli va efir-moyli o'simliklar	Moyli o'simliklar-O'zbekiston florasida keng tarqalgan turlari. Ularning sistematik o'rni. O'simliklar qoplamicidagi ahamiyati. Tabiiy zahiralari. "Qizil kitob" ga kirgan turlari va ularni muhofaza qilish. Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish yo'llari. Efir-moyli o'simliklar-O'zbekiston florasida keng tarqalgan turlari. Ularning sistematik o'rni. O'simliklar qoplamicidagi ahamiyati. Tabiiy zahiralari. "Qizil kitob" ga kirgan turlari va ularni muhofaza qilish. Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish yo'llari
	Oshlovchi moddalar saqllovchi hamda saponinli o'simliklar	O'zbekiston florasida keng tarqalgan turlari. Ularning sistematik o'rni. O'simliklar qoplamicidagi ahamiyati. Tabiiy zahiralari. "Qizil kitob" ga kirgan turlari va ularni muhofaza qilish. Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish yo'llari.
	Manzarali va em-xashak o'simliklar	O'zbekiston florasida keng tarqalgan turlari. Ularning sistematik o'rni. O'simliklar qoplamicidagi ahamiyati. Tabiiy zahiralari. "Qizil kitob" ga kirgan turlari va ularni muhofaza qilish. Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish yo'llari
	Qurilish xom-ashyoli, Bo'yoqli va narkotik, zaharli moddalar saqllovchi o'simliklar	O'zbekiston florasida keng tarqalgan turlari. Ularning sistematik o'rni. O'simliklar qoplamicidagi ahamiyati. Tabiiy zahiralari. "Qizil kitob" ga kirgan turlari va ularni muhofaza qilish. Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish yo'llari

Mustaqil ta'lif:	1- keys ("O'zbekistonda introduksion tadqiqotlar (bir o'simlik turi misolida)) 2- keys (Foydal o'simliklar muhofazasi)
Maslahatlar va topshiriqlarni topshirish vaqtி	Dushanba-Juma 11.00 dan 17.00 gacha Joy (auditoriya) yoziladi

Baholash usullari	t	Nazorat turlari	Soni	
	I	Oraliq nazorat		
	I	2.1.YOzma-Test	2	
	I	YAkuniy nazorat		
3.1. Test surov				1
Jami				

Baholash mezonlari	Baholash mezonlari	Baxo
	Etarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni mustaqil echgan. Berilgan savollarga to‘liq javob beradi. Masalaning mohiyatiga to‘liq tushunadi. Auditoriyada faol. O‘quv tartib intizomiga to‘liq rioya qiladi. Topshiriqlarni namunali rasmiylashtirgan.	5
	Etarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni echgan. Berilgan savollarga etarli javob beradi. Masalaning mohiyatini tushunadi. O‘quv tartib intizomiga to‘liq rioya qiladi	4
	Topshiriqlarni echishga harakat qiladi. Berilgan savollarga javob berishga harakat qiladi. Masalaning mohiyatini chala tushungan. O‘quv tartib intizomiga rioya qiladi.	3
	Talaba nazariy tayyorlanib kelmasa, mavzu bo‘yicha masala, misol va savollariga javob bera olmasa, darsga sust qatnashsa bilim darajasi qoniqarsiz baholanadi	2

Axborot resurs baza:

Asosiy adabiyotlar:	1. Tulyaganova M., Yuldashev A.S. O’zbekistonda keng tarqalgan foydali o’simliklar. –T.: 2013. 2. Xolmatov X.X., Qosimov A.I. Dorivor o’simliklar. - Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. –Toshkent, 1994. - 365 b. 3. Xojimatov Q., Xodjimatov O. O’simliklar xomashyosi resurslari. – Toshkent, 2007.- 56 b.
Qo’shimcha adabiyotlar:	4. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O’zbekiston nashriyoti, 2017 5. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, O’zbekiston nashriyoti, 2017. 6. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O’zbekiston nashriyoti, 2016. 7. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent, O’zbekiston nashriyoti, 2017. 8. Kurmukov A.G., Belolipov I.V. Dikorastishie lekarstvennye rasteniya Uzbekistana.- Tashkent, 2012.-288 s. 9. Karshibaev J.X. Dorivor astragallar: dorivor astragal turlarining plantatsiyalarini tashkil etish va xom ashyosini tayyorlash.-Guliston, 2016.-28 b 10. Nabiev M. Sabzavot, rezavor mevalar va ziravorlar xosiyati. - T.: “Mexnat”, 1990. - 155 b. 11. Tuxtaev B.YO. va boshqalar. Dorivor va ozuqabop o’simliklar plantatsiyalarini tashkil etish va xom-ashyosini tayyorlash bo‘yicha yo‘riqnomा.- Toshkent, 2015.-144 b. 12.Xaydarov Q.H.,Xojimatov Q.H.O’zbekiston o’simliklari.–Toshkent,1992. - 241 b. 13. Xojimatov Q. Efir moyli o’simliklar. - T.: “Fan”, 1971.- 30 b. 14. Xamidov G’. O’zbekistonning asalli o’simliklari. - T.: “Fan”, 1977.- 47 b. 15. Xojimatov Q. O’zbekistonning vitaminli o’simliklari. - T.: “Fan”, 1973. 16. Xojimatov Q. O’zbekistonning xushbo‘y va xushta’m o’simliklari. - T.: “Fan”, 1992. - 81 b. 17.Xasanov O’. Madaniy o’simliklarning kelib chiqishi. - T.:“Mehnat”, 1986.- 139 b.
Normativ-huquqiy hujjatlari:	
Ilmiy jurnallar:	International journal of Plant Scienees, Amer. Journal of Botany, Planta, Botanical Gazette.
Davriy nashrlar:	
Statistik nashrlar:	
Internet resurslar:	www.ziyonet.uz ; www.nuu.uz ; www.natl.uz ; www.nature.uz ; www.pedagog.uz

2. MA'RUZALAR KURSI

1-MA'RUZA. FOYDALI O'SIMLIKLER HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА ASOSIY SAVOLLAR

- 1.Foydali o'simliklar haqida umumiy tushuncha
- 2.Madaniy va tabiiy holda uchraydigan foydali o'simliklar
- 3.Foydali o'simliklarning guruhlari, ekologiyasi
- 4.Insoniyat taraqqiyotida o'simliklarning tutgan o'rni
- 5."Qizil kitob"ga kiritilgan foydali o'simliklar

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar: *foydali, xom ashyo, tugunak, maysa, novda, ildizpoya, barg, meva, urug', piyoz, flora, natur o'simliklar, texnik o'simliklar, kauchuk saqlovchi, smola, resursshunoslik, alkaloid, oziq -ovqat, dorivor, vitaminli, bo'yog'bop.*

Inson o'simliklardan foydalanishni qadimdan bilgan. U yashash va hayot kechirish uchun o'zining atrofidagi turli tuman o'simliklarning maysalari, novdalari, barglari, mevalari, urug'lari, piyozlari, tugunaklari, ildizlari va ildizpoyalaridan oziq ovqat uchun foydalangan hamda boshqa maqsadlarda xam ulardan barhamad bo'lган.

Foydali o'simliklarni boshqacha qilib xom ashyo o'simliklari deb ham yuritish mumkin. Xom ashyo o'simliklari bu, tabiiy flora tarkibida uchraydigan bevosita to'g'ridan to'g'ri ishlatiladigan yoki qayta ishlov bergandan keyin ishlatilishi mumkin bo'lган turlardir.

Xom ashyo o'simliklarini ularning ishlatilishiga ko'ra klassifikatsiyaga solish keng qo'llaniladi . Unga muvofiq, barcha xom ashyo o'simliklari odatda 2 ga bo'linadi:

1. Texnik o'simliklar (kauchuk saqlovchi, smola saqlovchi va boshqa.);
2. Natur o'simliklar (oziq ovqat, dorivor, vitaminli va boshqa.).

Har bir gurug'ning ichida yanada kichikroq gurug'larga bo'lish ham qabul qilingan. Albatta, ushbu klassifikatsiya nisbiy xarakterga ega, chunki bir turning o'zi bir vaqtning o'zida har ikkala gurug'ga mansub bo'lishi mumkin.

Xom ashyo o'simliklarining tarqalishini, xo'jalikda ishlatilishining imkoniyatlari va mexanizmlarini, eng muhim dorivor, oziq ovqat va boshqa foydali o'simliklar zahiralarini baholash va ularni o'rganish uslublarini ishlab chiqadigan fan bu, botanika resursshunosligi (xom ashyo o'simliklari resursshunosligi) deb ataladi.

O'zbekiston florasida 4500 ga yaqin yuksak o'simliklarning turlari mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi foydali o'simliklarga kiradi, ya'ni bugungi kunda qandaydir maqsadda qo'llaniladi . Masalan, oziq ovqat o'simliklari 42 turni, ozuqabop (yem xashak) o'simliklar 107 turni, dorivor o'simliklar 113 turni, alkaloid saqlovchi o'simliklar 76 turni, saponin saqlovchi o'simliklar 15 turni, efir moyli o'simliklar 53 turni, yog' to'plovchi o'simliklar 56 turni, tanid saqlovchi o'simliklar 59 turni, bo'yog'bop o'simliklar 58 turni, kamed saqlovchi o'simliklar 9 turni, smola saqlovchi o'simliklar 9 turni, mum saqlovchi o'simliklar 5 turni, kauchuk saqlovchi o'simliklar 4 turni, selluloza qog'ozbop o'simliklar 14 turni, yog'och beruvchi o'simliklar 16 turni, ziynat (bezak) uchun foydalilanadigan o'simliklar 30 turni, asal shira beruvchi o'simliklar 115 turni o'z ichiga oladi.

Bu o'simliklar to'g'risida ma'lumot berish orqali magistrlar, ilmiy tadqiqotchilar hamda keng omma ongida betakror, go'zal diyormizning nabotot olamiga nisbatan

cheksiz muhabbat xissini uyg'otish va ularni o'zimizning jonajon tabiatimizni ko'z qorachig'idek asrab avaylaydigan barkamol inson qilib tarbiyalashdir.

O'simliklar dunyosi ikkita katta bo'limdan iborat bo'lib, bakteriyalar, ko'k-yashil, tilla rangli diatom, qo'ng'ir, yashil suv o'tlari, zamburug'simon o'simliklar va zamburug'lar bilan suv o'tlarining birlashmasidan tashkil topgan lishayniklar tuban o'simliklar guruhini tashkil etsa; yo'sinlar (moxlar), qirqbo'g'imlar (xvoshlar), qirqquloqlar "(paporotniklar), ochik urug'li o'simliklar (ninabarglilar - archa, oqqarag'ay va boshqalar) va gulli yoki yopik urug'lilar (bug'doy, olma va boshqalar) yuksak o'simliklar guruhini tashkil etadi.

Tuban o'simliklarning tanasi yuksak o'simliklar kabi barg, poya va tomir qismlarga ajralmagan bo'lib, ular yashash sharoiti va ko'payishlari bilan ham farq qiladilar.

Quyida o'simliklar dunyosining shakllanish tarixiga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Yer yuzasida mavjud bo'lgan barcha o'simliklar orasida eng ko'p va keng tarqalgan o'simliklar evolyutsiyasining kenja guruhi yopiq urug'li yoki yuksak o'simliklardir.

Bundan 1500 million yillar ilgari Arxey erasida virusga o'xshash organizmlar, anorganik moddalardan foydalanuvchi bakteriyalar va bir hujayrali suv o'tlari paydo bo'lgan., Proterozoy erasiga kelib ko'p hujayrali organizmlar, jumladan ko'k-yashil, qizil va yashil suv o'tlari rivoj topgan. Bular suvli muhitda yashab hayot kechirgan. Shu davrdan boshlab ko'k-yashil suv o'tlarida xlorofill paydo bo'lgan. Atmosferada erkin oksigen (kislород) paydo bo'lishi bilan, suv o'tlari oksigenli muhitda yashashga moslashgan.

Ko'pchilik olimlarning fikricha, birinchi quruqlik sharoitiga chiqqan o'simlik psilofitlar bo'lgan. Bu o'simliklarda hali haqiqiy ildiz va barglar bo'lmasa ham, har holda o'sha organlarning boshlang'ich belgilari bor edi. Keyinchalik bulardan birlamchi qirqquloqlar (paporotniksimonlar), lepidodendronlar, plaunalar, kalamitlar, qirqbo'qimlar, keyinroq haqiqiy urug'li qirqquloqlar va ginkgo turkumi paydo bo'lgan. Hozir shu o'simliklarning, jumladan ginkgo biloba turining qadimiyligi qoldiqlari respublikamizning ba'zi bir tumanlaridan paleobotanik olimlarimiz tomonidan topilmoqda Keyingi 115 million yillar davomida, ya'ni Mezozoy erasining yura davrida urug'li qirqquloqlilar rivojlangan. O'simlik olaming so'nggi taraqqiyotidan yopiq yoki gulli o'simliklar paydo bo'lgan. Yopiq urug'li o'simliklarning paydo bo'lishini olimlar odatda Mezozoy erasining bo'r davridan, ba'zi bir olimlar esa, yura davrining o'talaridan boshlangan bo'lsa kerak, deb hisoblaydilar. Shuni ham qayd qilib o'tish kerakki,. evolyutsiya jarayonida paydo bo'lgan yuksak o'simliklarning birlamchi namoyandalari quruqlikda qisqa muddat orasida tez taraqqiy etib, yer yuzida keng tarqalgan.

Buning sababi birinchidan, yuksak o'simliklarning tomirlari, ya'ni vegetativ tanalari tashqi muhitning turli sharoitlariga tez moslashuvchanligida bo'lsa, ikkinchidan bu o'simliklarning urug'-meva beruvchi poya tanalarining (ko'payish organlarining) ochiq urug'lilar va paporotniksimonlarga nisbatan mukammal muhofaza qilinganlidigidir. Shunday qilib, turli muhitga (tuproq., yoruglik va xokazo) tushib qolgan gulli o'simliklar bir-biriga o'xshagan fiziologik va biokimyoviy jarayonlar natijasida har tomonlama taraqqiy etgan. Natijada yer yuzida inson ehtiyoji uchun kerak bo'lgan turli-tuman gulli o'simliklar paydo bo'lgan. Bu

o'simliklarning shakllanish jarayoni, ko'pchilik olimlarning fikricha, deyarli 70 million yillar ilgari bo'lib o'tgan.

Qadimgi yopiq urug'li o'simliklar daraxtsimon bo'lган. Ularning o'sish va ko'payish (ildiz, poya, barg kabi) organlarining taraqqiyoti bir necha million yillar davomida muhitning o'zgarishi tufayli sekin-asta daraxtdan butaga va chala butaga, undan ko'p yillik va nihoyat bir yillik o'tlarga aylangan. Bu o'simliklar olamida eng progressiv yutuqlardan biri hisoblanadi. Chunki, o'nlab, yuzlab yillar davomida yashovchi daraxtlardan bir yillik lalmi o'tlarning paydo bo'lishi tabiatning zo'r mo'jizalaridan biri hisoblanadi. Bu holat, albatta, o'simliklarni xonakilashtirish imkoniyatini beradi. Chunki, kishi hayoti uchun zarur bo'lган oziq bir yillik (bug'doy, arpa, sholi, javdar, makkajo'xori va boshqalar) o'simliklardan olinadi.

O'simliklar olami xilma-xil bo'lib, ular ozmi-ko'pmi yer yuzining barcha qismida uchraydi.

XVIII asrning o'rtalarida gulli o'simliklarni birinchi marta sun'iy tartibga (sistemaga) solgan va umumlashtirgan olim buyuk shved tabiatshunosi Karl Linney bo'ldi. Uning ma'lumoti bo'yicha, yer yuzida 7 mingga yaqin gulli o'simlik turi tarqalgan. Oradan bir yarim asr o'tgach, mashxur rus botanigi N. I. Kuznetsov 150 mingga yaqin yopiq urug'li o'simlik borligini aniqladi. Yigirmanchi asrning qirqinchi yillarida dunyoning to'rt qit'asini aylanib chiqqan mashxur sovet olimi, akademik N. I. Vavilov va akademik A. A. Grossgeym dunyoda 200 mingdan ziyodroq gulli o'simliklar turi borligini ta'kidladilar. Lekin ingliz botaniklari J. Bolton (1962), J. Xatchison (1964), sovet olimlari A. Voronov (1964), I. Gubanov (1978) va boshqalar jahonda jami bo'lib yopiq urug'li o'simliklar soni 250-500 ming atrofida bo'lsa kerak deydilar. Ammo so'nggi vaqtida, shu sohaning zo'r bilimdoni, dunyoga tanilgan sovet olimi A. L. Taxtadjyanning ko'p yillik izlanishlari natijasida yer yuzida tarqalgan gulli o'simliklarning umumiyligi soni 240 ming atrofida ekanligi ma'lum bo'ldi. Shundan beshdan to'rt qismining (180 ming) urug'i ikki pallali (mosh, no'xat, bodom va boshqalar), qolgan 60 mingga yaqininining urug'i bir pallali (bug'doy, arpa, sholi va xokazolar) o'simliklar tashkil etadi. Barcha yopiq urug'li o'simliklar deyarli 13 mingga yaqin turkum va 390 dan ziyodroq oilaga mansub. Bularning orasida dunyo bo'yicha eng keng tarqalgani 30 ming tur murakkab gullilar oilasi hisoblanadi..

Umuman olganda, gulli o'simliklar yer yuzining deyarli barcha xududlarida tarqalgan, lekin ularning yashashi uchun eng qulay sharoit tropik va subtropik mintaqalar (xududlar) hisoblanadi. Chunki, bu yerlarda o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun butun yil davomida etarli issiqlik va namlik mavjuddir. Shuning uchun ham bu hududlarda o'simliklarning turlari xilma-xildir.

O'simliklar dunyosining turiga boyligi jihatidan Janubiy Amerika qit'asi birinchi o'rinda turadi. Bu yerda hozircha 56 mingdan ziyodroq gulli o'simliklar turi hisobga olingan. Shuning 40 mingdan ko'prog'i Braziliyaning Amazonka suv havzasidagi tropik o'rmonlarda uchraydi. Shimoliy Amerikada esa, to'liq bo'lмаган ma'lumotlarga ko'ra, jami bo'lib 20 mingga yaqin o'simlik turi bor. Osiyo qit'asida gulli o'simliklarga boy mamlakatlardan Xitoy (25 ming) va Xindistonni (26 ming) ko'rsatib o'tish kifoyadir. Afrikaning tropik o'rmonlarida 4 mingdan ziyodroq gulli o'simliklar tarqalgan bo'lsa, Avstraliya qit'asida jami 12 mingdan oshiqroq, o'simlik

turi uchraydi. "Pekin shularning uchdan to'rt qismi shu qit'aga xos bo'lib, planetamizning boshqa yerlarida uchramaydi.

Jahonda endemik o'simlik turlariga boy mamlakatlardan biri Filippin orollari hisoblanadi. Bu joyda o'suvchi jami 7620 o'simlikdan 5532 turi shu yerning o'zигагина xosdir.

Sobiq sovet ittifoqi territoriyasida 21 ming atrofida gulli o'simliklar turi uchraydi. Shu jumladan, Kavkazda 5800, O'rta Osiyo va Qozoqistonda 7 mingga yaqin, respublikamiz territoriyasida esa 4250 turi tarqalgan. Tabiatda o'simlik turlari shunchalik ko'pligiga qaramay, ularning faqatgina 30 mingdan ziyodrog'i inson tomonidan turli maqsadlarda foydalaniladi. Jumladan, dehqonchilikda foydalanilayotgan o'simlik turlari atiga 2,5-2,6 mingga yaqindir. Bu gulli o'simliklarning faqat 1,0-1,1 % i tashkil qiladi, xolos.

Akademik P. M. Jukovskiyning fikricha, hozir ekilayotgan deyarli barcha madaniy o'simliklar bizning eramizdan bir necha ming yillar ilgari xonakilashtirilgan. Bunday o'simliklar qatoriga bug'doy, arpa, paxta, sholi va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Bizining eramizda esa dehqonchilikda lavlagi, kauchuk olinuvchi xeveya va dori-darmoi beruvchi xinin daraxti va boshqa o'simliklar kiritildi. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, hozir inson tomonidan foydalanib kelingan ba'zi bir madaniy o'simliklarning, chunonchi qovoq, makkajo'xori, kunjut, banan va boshqalarning qaerda, qanday qilib dehqonchilikka kiritilgani bizga noma'lum. Eng qizig'i shundaki, ba'zi bir turlarga boy o'simlik turkumlaridan dehqonchilikka jami bo'lib, bir yoki ikkita turi jalb etilgan.

Jumladan, 200 turdan tashkil topgan zig'ir turkumidan dehqonchilikka bir tur, 70 turdan ziyadroq kungabog'ardan ikkita, 400 turdan oshiqroq. batat yoki shirin kartoshka turkumidan atiga bir turigina xonakilashtirilgan. Bunday misollarni ko'p keltirish mumkin.

Hozir bu xilma-xil, tabiiy, yovvoyi o'suvchi o'simliklarni har tomonlama o'rganish va ulardan to'liq foydalanish usullari deyarli barcha mamlakatlarda, jumladan bizning davlatimizda ham ishlab chiqilmoqda. Chunki, keyingi 50-60 yillar davomida, Vatanimiz territoriyasida keng tarqalgan ba'zi bir noyob foydali o'simlik turlari va ularning miqdori yil sayin kamayib ketayapti. Masalan, O'rta Osiyo tog'lari va tog' etaklarida asrimizning boshlarida 300 ming gektardan ziyadroq, pistazorlar mavjud edi. Bugungi kunda bu bebaxo o'simliklarning uchdan bir qismi ham qolmagan. yoki respublikamiz janubida, Xisor tog'i etaklarida keng tarqalgan yovvoyi anjir, anor, xurmo va boshqa mevali daraxt va butalarning maydoni deyarli yo'q bo'lib ketyapti. Bepoyon qir-adir va tog'larimizda keng tarqalgan gulnori, lola, yovvoyi sarimsoq, anzur piyoz, olma, nok, do'lanani aytmaysizmi. Hozir ular tabiatda juda kamayib ketdi.

Keyingi yillarda davlatimiz, bu xil isrofgarchilikka, qolaversa, tabiatga nisbatan baraxmlikka chek ko'yish maqsadida maxsus qarorlar qabul qildi.

Kamayib ketayotgan noyob o'simliklarni tabiatning o'zida va tajriba maydonlarda o'rganish, ulardan xalq xo'jaligidagi keng foydalanish lozim. Chunki, tabiiy yovvoyi o'simliklar xalqimizning boyligi hisoblanadi.

O'simliklarning kelib chiqish markazlari 1935 yili ilk bor rus olimi N.I.Vavilov tomonidan aniqlangan. Bu ma'lumot keyinchalik boshqa olimlar tomonidan to'ldirilib, hozir 12 ta gen markazi aniqlangan:

1. Xitoy-Yaponiya markazi- Xitoy, Koreya va Yaponiyaning subtropik mintaqasi kiritilgan. Bu mintaqadan-soya, yumshoq bug'doy, tariq, cho'miza, marjumak kelib chiqqan.
2. Indoneziya-Janubiy Xitoy markazidan -suli, shakarhamish, kokos palmasi, meva va savzovot ekinlari kelib chiqqan.
3. Avstraliya markazi - sholi, g'o'za, sebarga, tamaki, evkalipt, tropik daraxtlar kelib chiqqan.
4. Xindiston markazi - sholi, xind bug'doyi, shakarhamish, g'o'za turlari, sabzavot va meva ekinlari kelib chiqqan.
5. Markaziy Osiyo markazi (Tojikiston, O'zbekiston, Afg'oniston -bu mintaqqa ko'k no'xat, mosh, yaasmiq, no'xat, tolali nasha, maxsar, xashaki dukkaklar, afg'on javdari, qovun, g'o'za turlari, ko'p yillik o'simliklar kelib chiqqan.
6. Old Osiyo markazi (Tog'li Turkmaniston, Eron, Kavkaz orti, Kichik Osiyo, Arab yarim oroli) - bu markazda bug'doy turlari, arpa, suli, javdar, ko'k no'qat, beda, zig'ir, sabzavot va moyli ekinlar kelib chiqqan.
7. O'rta Yer dengizi markazi (Misr, Suriya, Falastin, Grettsiya, Italiya va O'rta Yer dengizi sohilida joylashgan davlatlar) -suli, arpa, bug'doy turlari, zig'ir, karam, lavlagi, sabzi, sholg'om, turp, piyoz, sarmisoq, ko'knori, oq xantal ekinlari kelib chiqqan.
8. Afrika markazi-jo'xori turlari, tariq, kanakunjut, sholi, bug'doy turlari, moyli palma, dukkakli ekinlar, kunjut, kofe, g'o'za turlar kelib chiqqan.
9. Evropa -Sibirmarkazi - tolali zig'ir, duragay sebarga, beda turlari, kendir, xmel, meva va sabzavot ekinlari vatanidir.
10. Markaziy Amerika (Meksika, Gvatemala, Gonduras, Panama)- markazi-makkajo'xori, loviya, qovoq, ingichka tolali paxta, shirin kartoshka, moxorka, kalampir, ko'p yillik o'simliklar kelib chiqqan.
11. Janubiy Amerika - madaniy kartoshka, tamaki, pomidor, ko'p yillik arpa, chatnaydigan makkajo'xori vatanidir.
12. Shimoliy Amerika - arpa turlari, lyupin, kungabog'ar, sabzavot va rezavor o'simliklar vatanidir.

Insoniyat taraqqiyotida o'simliklarning tutgan o'rni. Yopiq urug'li yoki gulli o'simliklar birgina inson hayotidagina emas, balki oddiy ko'z bilan ilg'amaydigan xilma-xil qurt-qumursqadan tortib, ulkan umurtqali hayvonlar hayotida ham g'oyat katta ahamiyatga egadir. Chunki ularsiz tirik organizmning yashashi mumkin emas. O'simliklar bizni non, yog', qand, choy, oqsil, kraxmal, qog'oz, rezina, bo'yog', dori-darmon, kiyim-kechak, qurilish materiallari uchun xomashyo, yoqilg'i bilangina ta'minlab qolmay, organizm uchun hayotiy zarur hisoblangan havoni ham tozalaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra, yer yuzidagi mavjud o'rmonzorlar har sutkada 150 milliard tonna karbonat angidrid gazini o'zlashtirib. 120 milliard tonna sof havo etkazib beradi. Bu 170 milliard kishining nafas olishi uchun etadigan havodir. Yoki bir gektardagi o'rmonzor kuniga 280-300 kilogramm karbonat angidriddan foydalanib, 180-220 kilogramgacha oksigenni etkazib berar ekan.

YUNESKO ma'lumoti bo'yicha, hozirgi kunda planetamizda yashovchi 4,6 milliarddan ziyodrok kishi deyarli 50 milliard odamga bemalol etadigan sof havodon foydalanar ekan. Chunki, uning undan to'qqiz qismini o'zimiz kashf etgan har xil mashinalar, zavod-fabrikalar va boshqa texnika asbob-uskunalarini sarf etadi.

Professor Yu. F. Novikovning yozishicha, har yili yer yuzida 10-20 million hektar atrofida o'rmonzorlar yo'q qilinadi. Bu sohada, ayniqsa, Janubiy Amerika tropik o'rmonlari juda ham katta zarar ko'rmoqda. Masalan, 1966-1976 yillar davomida Braziliya territoriyasida 80 ming kvadrat kilometr hali inson oyog'i tegmagan tropik o'rmonlar yo'q qilinib, o'rniga chorva mollari uchun o'tloq va yaylovlarga joy ochilgan. 1977-1980 yillar davomida esa 7,7 million hektar o'rmon yo'q qilingan.

Shuni ham eslatib o'tish kerakki, o'rmonlarning yo'q qilinishi braziliyaliklarga juda ham qimmatga tushayapti. 1979 yili bo'lib o'tgan katta suv toshqini bir necha ming aholining uyini vayron qildi. Demak, o'rmonlar planetamizning o'pkasi bo'libgina qolmay, uning buyragi ham ekan. Chunki, ular uzlari o'sayotgan yerdagi tuproq, suv rejimini ham bir me'yorda saqlaydilar.

Madaniy o'simliklar tur soni kam bo'lismiga qaramasdan, hozir yer yuzida istiqomat qilayotgan 4 -milliard 600 milliondan ziyodroq kishining ehtiyojini ta'min etib kelayaptilar. Mavjud xonakilashtirilgan o'simlik turlari va navlari qachon, qaerda va qanday paydo bo'lgan, degan tabiiy savol tug'iladi. Ma'lumki, ko'pchilik madaniy o'simliklarning kelib chiqish tarixi insoniyatning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ingliz olimi Richard Likkining ma'lumotiga ko'ra, ibridoiy odam zoti hayvonlardan 2 million 800 ming yillar ilgari ajralib chiqqan. Bu zot, olimning fikricha, Sharqiy Afrikada, hozirgi Tanzaniya, Keniya va Efiopiya territoriyalaridagi o'rmonzorlarda paydo bo'lib, shu yerda istiqomat qilgan. Chunki o'rmon ularga oziq-ovqat beribgina qolmay, ularga boshpana ham bergen. Davr o'tishi bilan, mehnat jarayonida ularning aql-idroki asta-sekin mukammallahib borgan.

Agar ilgari ibridoiy odamlar o'rmonlarda har xil o'simliklarning mevasi, urug'i, ildizi, qush va hayvonlarning tuxumlari, xom go'shtlari bilan ovqatlangan bo'lsalar, keyinroq olovdan foydalanishni o'rganganlar.

Neolit yoki yangi tosh davriga kelib, bizning qadimiy avlod ajdodlarimiz chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan.

Akademik P. M. Jukovskiyning fikricha, ba'zi bir boshoqli g'alla o'simliklarining xonakilashtirish jarayoni 15-20 ming yillar ilgari boshlangan. Arxeolog S. A. Semenovning ma'lumotiga ko'ra ham, birlamchi dehqonchilik o'choklarining O'rta Osiyo va Old Osiyo tog' oldi hududlarida paydo bo'lishi pleystotsen davrining oxirlariga (taxminan 15-25 ming yil ilgari) to'g'ri keladi. Qadimiy dehqonlar oziq-ovqat uchun zng zarur hisoblangan donli (bug'doy, arpa), keyinroq mevali, dorivor, tolali va boshqa foydali o'simliklarni eka boshlaganlar. Lekin mashqur sovet olimi M. G. Popovning fikricha, inson tomonidan birinchi marta mevali o'simliklar xonakilashtirilgan.

Haqiqatdan ham qadimiy odamlar avvalo har xil daraxt va butalarning meva va urug'lari bilan ovqatlanishgan. Shuning uchun ham ular o'zlari sevgan mevali

o'simliklarni qush va hayvonlardan qo'riqlaganlar. Keyinroq urug' va danagidan ko'paytirishga o'tganlar.

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Old Osiyo va O'rta Osiyo, jumladan Turkmaniston territoriyasida bug'doy eramizdan 7500-6000 yillar, arpa 8000-7500 yillar ilgari ham ekilib kelingan. Eng so'nggi arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, qadimiy arpa doni Misrda topilgan, uni bundan 17 ming yillar ilgari Nil daryosi xavzasida etishtirilganligi aniqlandi.

Qadimiy odamlar tabiatdan yig'ib olgan yoki o'zlari etishtirgan donni xom xolida iste'mol qilganlar. Keyinroq, dondan yorma, un qilishni o'rganganlar. Birinchi non ham 15-16 ming yillar ilgari qadimiy Misrda yopilgan.

Shuni ham qayd qilib o'tish kerakki, qadimiy dehqonchilik bir joyda paydo bo'lmasdan mustaqil ravishda Yer yuzining deyarli barcha qit'alarida rivoj topgan. Masalan, Osiyoda qadimiy dehqonchilik Iraq, Iordaniya, Suriya, Turkiya, O'rta Osiyo, Xitoy, Xindiston kabi mamlakatlarda; Afrikada - Misr, Efiopiya, Amerikada - Peru, Meksika; Evropada – O'rta dengiz atrofidagi davlatlar territoriyasida paydo bo'lgan.

O'rta Osiyo territoriyasiga kelsak, bu yerlarda inson juda qadim zamonlardan yashab kelgan. O'zbek olimi T. N. Qori-Niyoziyning ma'lumotiga ko'ra, bizning eramizdan oldingi birinchi ming yillikka kelib bu yerda xo'jalik yuritishning ikki turi shakllangan. Tekisliklardagi dashtlarda va qorlik joylarda ko'chmanchi xo'jalik-chorvachilik, daryo vodiylarida, ayniqsa, Amudaryo va Sirdaryo sohillarida o'troq xo'jalik-dehqonchilik vujudga kelgan. Ammo olimlarning keyingi yillarda olib borgan tarixiy-arxeologik, botanik-geografik izla-nishlariga ko'ra, o'trok dehqonchilik xo'jaligi O'rta Osiyoda, jumladan respublikamiz territoriyasida eramizdan avvalgi 3-2 ming yillikka to'g'ri keladi. Bunga misol qilib, qadimiy antik avtorlar - Esxil, Goratsiy va boshqalarning ma'lumotlari bo'yicha, O'rta Osiyoda eng qadim zamonlardo yoq bir necha mustaqil davlatlar mavjud bo'lgan. O'sha davrdagi dehqonlar xalqning kundalik emishi uchun donli o'simliklarnigina ekmay, har xil mevali daraxtlar o'stirganlar va sabzavot etishtirganlar.

Bu davlatlar joylashgan territoriyalarni iqlimi deyarli issiq, erlari qurqoqchil bo'lgani sababli, dehqonchilik uchun qo'shimcha namlikni talab etardi. Shuning uchun ham, bu erda asta-sekin sun'iy suqorish usuli qo'llanila boshlangan. Ariq va kanallarning qoldiqlari hozirham vaqtiga vaqt bilan topilib turadi.

Demak, dehqonchilik bir joyda paydo bo'lmasdan Er yuzining bir qancha joylarida tashkil topgan. Fanning isbot qilishicha, eng qadimiy dehqonchilik markazlari Misr, Suriya, Iraq, Turkiya, O'rta Osiyo, Peru, Meksika territoriyalariga to'g'ri kelgan

Inson tabiatdan kerakli va foydali o'simliklarni tanlab olgan va bir qancha asrlar davomida sifatini yaxshilash uchun kurashgan. Natijada kerakli o'simlik turlari va xillari yaratilgan.

Endigina dehqonchilikka qadam quyotgan qadimiy dehqonlar tabiatdan tanlab olgan o'simlik xillarini to'g'ri kelgan joylarga ekmaganlar, albatta. Ular namga va yorug'likka boy, unumdar yerlarni tanlaganlar. Dastlabki dehqonlar, shunday ekinbop yerlarni katta-kichik daryolarning bo'yalaridan va tog' oldi vodiylaridan topganlar. Chunki sernam va moddalarga boy va xiyla yumshoq tuproqda ekilgan

urug' ishlovsiz ham yaxshi o'sib, hosil bergen. Tarixiy ma'lumotlarda shunday daryolardan Nil, Frot va Dajla ko'rsatilgan. Bular qatorida Xindistonning Gang, Xitoyning Xuanxe, O'rta Osiyoning Amudaryo va Sirdaryosini ko'rsatish mumkin. Ammo, shuni ham eslatib o'tish kerakki, bu daryolarda suv rejimi xamisha bir xilda bo'lavermagan. Undan tashqari, keyinchalik daryo vodiylari dehqonlar uchun torlik qilib ham qolgan. Natijada ular suvsiz tekisliklarga chiqishga majbur bo'lganlar. Endi dehqon urug'ni ekib, undirib olish uchun yerni biroz bo'lsada yumshatishi kerak edi.

Madaniy o'simliklarning bunyodga kelishi jarayonida dehqonchilik qurollari ham mukammallahib borgan. Chunonchi, ibtidoiy odamlar birinchi marotaba yerni yumshatish uchun qurol sifatida oddiy kaltakdan foydalanganlar. Bu usul bilan dehqonchilik qilishga amerikalik maxalliy indeetslar juda ham usta bo'lganlar. Janubiy va Shimoliy Amerikada yer yumshatuvchi "koa" kaltaklaridan shimoliy Meksikaning ko'pchilik maxalliy xalqlari hozir ham foydalanib keladilar. Bu oddiy usul bilan dehqonchilik qilish planetamizning deyarli barcha yerlarida qo'llanilib kelingan. Keyinchalik, bu qurol dehqonchilik qilinayotgan yerning tuproq xillari (qora, qizil, qo'nqir, bo'z, qumaloq, shag'alli va hokazo) va ularning holatiga qarab mukammallahib borgan.

Zamonlarning o'tishi bilan, qadimiy dehqonlar yog'ochdan teshaga o'xhash uzun sopli yer chopqichlari, so'ngra yog'och suxa, yog'och omochlar yasaganlar. Omochdan foydalanish, albatta, hayvonlarsiz bo'lмаган. Demak, shu davrga kelib odamlar xo'jalikda uy hayvonlaridan (ot, eshak, xo'kiz, lama, zubur va boshqalar) ham foydalanganlar. Keyinchalik yog'och omoch ham mukammallahib borgan. Eramizning birinchi ming yilligidan boshlab rimliklar yog'och omochga yerni chuqurroq botirish va undan foydalanish maqsadida uchiga temirdan tish va oldi qismiga g'ildirak o'rnatganlar. Bu xil mukammallahgan omochlar asta-sekin dunyoning boshqa xududlariga tarqalgan.

Metalldan yasalgan ot omochi Evropada XVIII asrning oxirlarida, Rossiyada esa XIX asrning boshlarida paydo bo'lgan. O'zbekistonga birinchi temir omoch XIX asrning oxirlarida Rossiyadan keltirilgan.

Demak, madaniy o'simliklarning bunyodga kelishi jarayonida dehqonchilik qurollari ham mukammallahib borgan. Albatta, ilgari qishloq xo'jalik ishlab chikarish vositalariga nisbatan hozirgi zamon qishloq xo'jalik texnikasi juda ham ilgarilab ketgan.

Nazorat savollari:

1. Foydali o'simliklarni qanday nom bilan aytildi?
2. O'simliklar turli xil kasallikkardan qanday moddalar yordamida qimoyalanadi ?
3. O'zbekiston florasida yuksak o'simliklarning nechta turi mavjud ?
4. O'zbekiston "qizil kitobi" birinchi marta nechanchi yilda nashr etilgan va unga nechta tur o'simlik kiritilgan ?
5. Xozirgi kunda er yuzida qaysi o'simliklar guruxi xukmron xisoblanadi ?

2. FOYDALI O'SIMLIKLARNI ETISHTIRISH VA KO'PAYTIRISH ASOSIY SAVOLLAR

1. Foydali o'simliklarni etishtirish va ko'paytirishdagi o'ziga xos agrotexnik tadbirlar
2. Daraxt va butalarni parvarish qilish
foydali o'simliklarni urug'laridan ko'paytirish

3. Vegetativ ko'paytirish (tuganaklari, ildizpoyalari, piyozlari, ko'chatlar, payvandlash)

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralar: *doim yashil o'simliklar, yozgi yashil o'simliklar, qishki yashil o'simliklar, ko'payish, spora (ekmoq), zigota (qo'shilish), regeneratsiya, payvandlash, payvanntag, payvandust, okulirovka (kurtakcha payvand), kopulirovka (birlashtirish).*

Har qanday tirik organizm uchun oziqlanish, nafas olish, o'sish va ko'payish kabi tiriklik jarayonlari xosdir. Ko'payish ayni bir turning individlar sonini ortishi hisoblanadi. O'simliklar dunyosida ko'payish usullari juda xilma - xildar. Tuban va yuksak o'simlik vakillarida ham uch turdag'i ko'payish, ya'ni vegetativ, jinssiz va jinsiy ko'payish usullari farq qilinadi.

Vegetativ ko'payish. O'sish, vegetativ ko'payish, ya'ni individlarning rivojlanishi uning vegetativ organlaridan (ildiz, poya, barglari, piyozbosh, ildizpoya, tugunak va hokazolar) yoki ularning bo'laklaridan boshlanadi. Vegetativ ko'payish asosida o'simlikning biror bir organi yoki uning bo'lagini hatto umuman o'simlikning biror qismidan butun organizmning qayta tiklanish (regeneratsiya) xususiyati yotadi.

Vegetativ ko'payishga misol qilib, ba'zi bir hujayrali suvo'tlarni oddiy bo'linish yo'li bilan ikkita yosh hujayraga aylanishini ko'rsatish mumkin. Xlorella, xlorokokk va ko'pchilik suvo'tlar ana shunday ko'payadilar. Ko'p hujayrali suvo'tlarda vegetativ ko'payish tanasining bo'laklarga ajralishi bilan boradi. Zamburug'larda esa mitseliyning ayrim bo'laklarga ajralib ketishi yoki achitqi kabi zamburug'larda kurtaklanish yo'li bilan boradi. Lishayniklar ixtisoslashgan sorediylar va shamol yoki yomqir ta'sirida oson tarqaladigan o'simtalar - izidiylar yordamida vegetativ ko'payadi. Gulli o'simliklarda vegetativ ko'payish juda xilma - xil usullarda kechadi. Ona o'simlikdan vegetativ yo'l bilan hosil bo'lgan yangi indivlar ying'indisi klonlar deb ataladi. Tabiiy sharoitda o'simliklarda keng tarqalgan quyidagi vegetativ ko'payish usullarini farq qilish mumkin: 1. Ildiz bachkilar yordamida ko'payish. 2. Palaklar, jingalaklar yordamida ko'payish. 3 Ildizpoyalalar yordamida ko'payish. 4. Tugunak yordamida ko'payish. 5. Piyozboshlar yordamida ko'payish. 6. Ajratuvchi kurtaklar va piyozchalar yordamida ko'payish. 7. O'simlikning ayrim bo'laklari yordamida ko'payishi.

Tabiiy vegetativ ko'payish bilan birga sun'iy vegetativ ko'payishning ham bir necha usullari ma'lum: 1. Parxish yordamida ko'paytirish. 2. Tuplarga ajratish bilan ko'paytirish. 3.Qalamchalar yordamida ko'paytirish. Qalamcha o'simlikdan ajratib olingan barg, novda yoki ildizning bir bo'lagidir. Mevachalik, manzarali bog'dorchilik va gulchilik sohalarida o'simliklarni qalamchalar yordamida ko'paytirish usuli keng qo'llaniladi . Ularning xilma - xil usullari mavjud. Eng keng tarqalgan usullardan biri o'simlikni poya qalamchalari bilan ko'paytirish hisoblanadi. Poya qalamchalari yozgi (yashil) va qishqi bo'ladi.

Payvandlash. O'simliklarni payvandlash usuli kishilik jamiyatining rivojlanishi va dehqonchilik tarixi bilan bog'liq. Inson payvandlashni tabiatdan o'rgangan. Bir o'simlik kurtagini yoki qalamchasini ikkinchi bir o'simlikka o'tkazish payvandlash deb ataladi. Boshqa o'simlik uchun payvandlashga olingan

o'simlik (kurtak yoki qalamcha) payvandust deb nomlanadi. Payvandust payvandlanishi kerak bo'lgan o'simlik payvandtag deb ataladi. Payvandlash usuli asosan qalamcha va parxish yo'llari bilan ko'paya olmaydigan, qo'shimcha ildiz otishi qiyin bo'lgan mevali o'simliklarda qo'llaniladi. Olma, nok va ba'zi shaftolilar bir necha ming yillardan beri payvandlash yo'li bilan ko'paytirib kelinmoqda. Payvandlash usuli qimmatli mevali daraxtlarni payvandlashda, manzarali o'simlik formalarini saqlab qolishida muhim rol yo'naydi.

Payvandlashning metod va usullari juda ham xilma - xildir. Ulardan keng tarqalgani va amalda qo'lanilayotganlari quyidagilardir:

1. Kurtaklar yordamida payvandlash. Bunda kurtak payvandtagning po'stloqi ostiga o'tkaziladi. Kurtak payvand usulida payvandlash yozning o'rtalarida (iyul oyning oxirlari va avgustning boshlarida) o'tkaziladi.
2. Qalamchalar yordamida payvandlash. Qalamchalar yordamida payvandlashning yuzdan ortiq usullari ma'lum. Payvandlash uchun kurtak o'rnida qalamcha olinsa, uni qalamcha payvand deb ataladi. Payvandtagga qalamchalarni har xil ko'rinishida o'tkazish mumkin. Agarda payvandust va payvandtaglar yosh davida (1- 3 yoshlik) olinsa, ularning yo'g'onlagi bir xil bo'lishi kerak. Bunday payvandlash kopulirovka deb ataladi. Buning uchun payvandust va payvandustlar quyidagicha tayyorlanadi. Payvandust 2 - 4 kurtaklar bilan birga olinib, u pastki kurtak ostidan qiya qilib kesiladi. Payvandtagni ham oxirgi kurtagi tepasidan qiya qilib kesilib, qirqilgan joylar bir - biriga biriktirib maxsus mumsimon modda surkalib, bog'lab qo'yiladi. Kopulirovkaning murakkabroq ko'rinishlari ham uchraydi. Uni til yoki egar payvand dab ataladi. Bunda ko'ndalang yoriqlar qirqilib, ular bir - üiriga to'qrilab payvandlanadi. Payvandtag payvandustan yo'qon bo'lsa, yorma yoki iskana payvand usullaridan, ya'ni po'stloq ostiga qalamchani kirgizib qo'yish va boshqa usullardan foydalaniladi.

Respublikamizning shahar va aholi yashaydigan punktlaridagi ko'chalarni ko'kalamzorlash uchun dub, chinor, turli xil zarang, lola daraxti, kashtan daraxti, yirik bargli jo'ka, amerika shumtoli kabi katta shox-shabbali qimmatbaqo daraxt turlarini ko'paytirish zarur. Bu daraxtlar yo'lkalarnignna emas, balki imoratlarning pastki uch qavatini ham soyalaydi. Binoning to'rtinchi va beshinchi qavatidagi balkonlarni ko'kalamzorlashtirish, imoratning quyoshli tomonidagi devorlarni qizib ketishdan saqlash kabi ishlar ko'kalamzorlashtiruvchilar va arxitektorlar oldida turgan muhim masalalardandir.

Daraxt va buta o'simliklarning qurib qolish qodisasi tabiiy keksayishi yoki qishki sharoitning ta'siri va yoki mexanik shikastlanish kabi qodisalar ta'siri ostida ro'y beradi. Nobud bo'lgan daraxt o'rniga boshqa turdag'i daraxt ko'chatini ekish mumkin. Agar biror daraxt yoki buta o'simligi soyada qolishi sababli qurigan bo'lsa, buning o'rniga shu tur daraxtdan ekishning foydasi yo'q. Aks holda bular ham qurib qoladi.

Ekish uchun zarur miqdordagi daraxt va buta o'simliklari hamda ko'kat devor yasash uchun zarur sondagi o'simliklar miqdori ekish vaqtiga taxminan 2-3 oy qolganda belgilanib har bir maydon bo'yicha ko'chat ekish qaydnomasida ko'rsatiladi. Ko'chatlarni sarflashda o'rmonchilik loyiqasida ko'rsatilgan tartibga amal qilinadi. Bunda ko'chat ekiladigan joylarning Asosiy savollarda ko'rsatilgan

nomerlariga ko'chat ekish qaydnomasida o'sha joylar uchun nomerlangan daraxt va buta o'simliklarining soni to'g'ri kelishi kerak.

O'zbekistonning shimoliy tumanlaridan tashqari barcha tumanlarda ko'chat ko'klamga qaraganda kuzda oktyabr-noyabr o'rtalarida ekilishi yaxshi natija beradi. Ko'chat ekish va daraxtlarni ko'chirib o'tqazish ishi o'simlikda o'sish jarayoni to'xtab, barg tashlagandan keyin qilinishi ma'qul. O'zbekistonning Shimoliy, ya'ni birmuncha salqin ob-havoli tumanlarida ko'chat o'tqazish ishlari uchun kuzda o'z vaqtida yaxshi tayyorgarlik ko'rilsa, o'tqazish ishini erta ko'klamda mart-aprel o'rtalarida bajarish yaxshi natija beradi. Qish yumshoq kelib havo darajasi 5° dan past bo'limganda ko'chatlarni dekabr-yanvar va fevralda ham ekish mumkin. Chinor, dub, olma daraxtlari bargini qattiq sovuq boshlanishiga qadar to'kmaydi, Albatta bunday bargi tushib ketmagan daraxt va buta o'simliklarni ko'chirib o'tqazish yaramaydi. Bunday daraxtlar o'sishni to'xtatgandan keyin ularga birmuncha vaqt dam berish kerak. Masalan, ko'chatorda o'simlik bargini to'kkandan keyin 15 kun o'z joyida qoldirilsa, uning novdalari bu muddat ichida to'la pishadi.

Mirzaterak, shumtol va zarang kabi manzarali daraxtlar ekiladigan joyning sharoitiga qarab 2-4-0 m oraliq bilan, dub, chinor kabi shox-shabbasi keng daraxt zotlari 8-10 m oraliq bilan ekiladi.

Daraxtlar ko'chalarga ularning suv bilan ta'minlanishiga, hamda o'simliklarni joylash Asosiy savollarga qarab bir yoki ikki qator ekiladi. Ko'chat o'tqazish yoki daraxt va ko'chirib o'tqazishda chuqur shunday qazilishi kerakki, o'simlikning barcha ildiz sistemasi to'la-to'kis saqlanib qolsin. Mana shu oddiy qoidaga qattiq rioya qilingandagina ekilgan daraxt va buta o'simliklarining ko'pi tutib qoladi. Shox-shabbalari juda o'sib ketmagan yosh daraxtar siyraklanadi, bunda shox-shabba orasidagi zaif novdalar pichoq yoki bog' qaychisida olib tashlanadi. Agar ko'chatda ikkita markaziy poya bo'lsa, uning zaifroqi kesiladi. Ko'chatning kesik joylariga bog' zamazkasi yoki po'stloq rangidagi moy bo'yog' surkab qo'yiladi. Ko'chat o'tkazishga kirishishda eng avval daraxtzorchilik va o'simlik o'tqazish qaydnomasiga ko'ra, ko'chat ekiladigan nuqtalar aniqlanadi. So'ngra ko'chirishga belgilangan daraxtiing aylana atrofiga taxminan shox-shabba kengligida doira shaklida ariq ochiladi. Shundan keyin bu aylana ariq ko'chat ildiziing tubigacha kovlanadi. So'ngra kovlash ishini ko'chat ildizi tagi tomon davom ettirib, o'simlik ildiz tevaragi tuproqi bilan ko'chirib olinadi. Daraxtlar shu xilda ko'chirib olingandan keyin ularni o'tqaziladigan joyga tashiladi, bunda eng ahamiyatli hisoblangan mayda ildizlarining shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

O'tqaziladigan ko'chat erga ekilishi oldidan ko'zdan puxta kechirib shikastlangan, tililgan, singan ildizi va shoxlari pichoq yoki bog' qaychisida kesib tashlanadi. Juda uzun ildizlarining uchi kesiladi. O'simliklarni ertalab, kechqurun yoki havo bulutli kunlarda ko'chirib o'tkazish yaxshi natija beradi. Bu ishlarni bajarishda o'simlik ildizini ochiq holda mumkin qadar kam vaqt qoldirishga harakat qilish zarur. Ko'chatni tashishda va saqlashda atigi bir soat ochiq qoldirilganda ham uning ildizi siljib, 30 foizgacha ko'karmay qoladi.

Ko'chatni o'tkazishda uning ildizlari tuproqqa yaxshilab tarab qo'yilishi lozim. Ildiz bo'g'izi yer betidan 5 - 10 sm baland ekilishi kerak, chuqur ekilgan daraxt kasallanadi, ba'zan qurib qoladi. Aksincha yuqorida ko'rsatilgandan yuza ekilsa tuproq o'tirishgandan keyin ildizning bir qismi ochiq qoladi. Natijada o'simlik nobud bo'ladi.

Chuqur o'tqazilgan ko'chatni birinchi yili tuzatish mumkin. Buning uchun daraxt tevaragidan aylantirib ariq qaziladi. Bu ariq chuqurlashtirilgan sari tobora ildiz tagi tomon qaziladi. Bu ish eng ostki bir necha ildiz taralgan joyga borguncha qilinadi. Shundan keyin o'simlik ildizi uni o'rav turgan tuproqi bilan chiptaga o'rav bog'lanadi, ikki tomonidan taxta qo'yib daraxt tegishli balandlikkacha ko'tariladi.

Ildizi tagiga tuproq solib zichlanadi. Shundan keyin taxtalar tortib olinadi. Chuqur ekilib qolgan daraxt va buta o'simliklari mana shu usulda to'qirlanadi. Ko'chatlarni shu xilda to'qrilab chiqishda ularning ildizi tagiga chirigan go'ng yoki unumdon tuproq solinishi mumkin.

Ko'chirib o'tqaziladigan daraxt uchun chuqurni daraxtning ildizlari erkin joylanadigan qilib qazish kerak.

Ko'chirib o'tqazilgan daraxt eng avval bir joyidan qoziqqa bo'shgina bog'lab qo'yiladi. 15-20 kun o'tib ko'chat tevaragidagi tuproq o'tirishib zichlangach daraxtning ikki eridan qoziqqa bog'lanadi. Birinchi bog'lov qoziqning uchidan, ikkinchisi erdan 50 sm balandlikdan bog'lanadi. Agar daraxt tanasi qiyshiq bo'lsa unga uchinchi bog'lov solib to'qrilab qo'yiladi. Bunday bog'lovlar zig'irpoyadan qilingan arqondan chipta yoki boshqa materialdan bo'ladi. Daraxt tanasining boylanadigan joyiga chipta yoki latta qo'yiladi.

Daraxtni odatda ikki kishi ekadi. Bunda bir kishi daraxtni ushlab ahyon-ahyonda silkitib ildizining oralariga tuproqning yaxshi kirishiga yordam berib turadi. Ikkinci kishi ildiz ustiga tuproq tashlab uni oyog'i bilan bosib zichlaydi. Ob-havo qurug' vaqtarda daraxt ekishda har bir daraxt tagiga suyuq loy hosil bo'lguncha suv quyiladi. Agar bu ish sernam yerda qilinayotgan bo'lsa har bir ko'chat tevaragida aylana ariqcha yasab har tupga 3-4 chelak, buta o'simligi tagiga 2-3 chelak hamda ko'kat devorning har metriga 3-4 chelak suv quyiladi.

Ko'chat ekilgan yer doimo shira nam bo'lib turishi uchun ko'chat tanasi tagiga gir aylantirib yog'och qipig'i yoki sholi qipig'i va yoki qurug' go'ng sepib qo'yiladi. Daraxtzorhilikda agrotexnika tadbirlarining eng muqimidan biri o'tqazilgan daraxtlarni kuz va qish davrida sug'orib turishdir.

Ko'kat devorlari yasash uchun 50 sm chuqurlikda va shuncha kenglikda ariq qazib, unga shaxmat tartibida ikki qator ko'chat ekiladi. Shundan keyin ekilgan joyning ikki chetiga marza qilinib, sug'orish ariqlari olinadi.

Ko'kat devor o'simliklarini ekish vaqtida engilgina qaychilab ularning bo'yи tekislanadi. Daraxt yoki buta o'simliklari kuz yoki ko'klamda o'tqazilgan bo'lishidan qat'iy nazar bu ish agrotexnika tadbirining boshlang'ichi hisoblanadi. Ishning eng muhimi ekilgan har bir tup va buta o'simliklarini puxta parvarishlab, uning ahvoldidan xabardor bo'lib turishdir. Unutmaslik kerakki, ko'chirib o'tqazilgan daraxtning sharoiti uning oldingi o'sib turgan joyi sharoitidan butunlay boshqachadir. Binobarin, suv havzalarining yaqinligidan qat'iy nazar

daraxtlarni har kuni sug'orish va uning shox-shabbasiga suv purkab turish lozim, shuningdek tagini vaqt-vaqt bilan yumshatib shox-shabbalarini tozalab, turish hamda tagining gir aylanasiga o'qit solish, zararkunanda va kasalliklardan saqlash ham eng muhim ishlardandir.

Katta yoshdagi daraxtlarni ko'chirib o'tkazish. Ko'chatzordan 4-6-8 yasharlik daraxt ko'chirib o'tkaziganda bular 10-15 yoshga kirgandayog' yaxshi ko'rinishga ega bo'ladi. Shuning uchun kattaroq yoshdagi daraxtlarni o'tkazishga harakat qilinadi. Ammo bunday ko'chatlarning kamligi va bu xilda ko'chat ekish qimmatga tushishi sababli mazkur ishni hamma vaqt amalga oshirib bo'lmaydi.

Ko'chirib o'tqaziladigan katta yoshdagi daraxtlar ko'chatzorlardan, eski bog'lardan va parklardan olinadi. Daraxt qanchalik yirik va katta yoshlik bo'lsa uni ko'chirib o'tqazish shunchalik qimmatga tushadi. Ammo ko'chirib o'tqaziladigan daraxt qancha yosh bo'lsa u shunchalik oson ko'karib ketadi.

Katta yoshdagi daraxtlar ikki usulda ko'chirib o'tqaziladi: birinchi usulda ko'chirib o'tqazishda daraxtning ildiz sistemasi va shox-shabbalari oldindan tayyorlanadi. Ikkinci usulda ko'chirib o'tqazishda oldindan tayyorgarlik ishlari qilinmaydi. Har qaysi ko'chirib o'tqazish usuli o'z navbatida ikkiga bo'linadi, ya'ni o'simlik ildizi uni o'rab olgan tuprog'i bilan ko'chiriladi yoki ildiz tuproqsiz ko'chirib o'tqaziladi.

Ildiz sistemasi va shox-shabbasini oldindan tayyorlab o'tqazish usuli. Ko'chatzorga o'tqazilgan daraxt, urug'dan chiqqan joyidan boshqa ko'chatzorga ko'chirib parvarish qilinganligi sababli ildiz sistemasi g'uj o'sgan, shox-shabbalari yaxshi tartibga solingan bo'ladi. Bunday ko'chatlar ko'chirib o'tqazishga ancha tayyor hisoblanadi. Bog' yoki parklarda o'stirilgan 10 yoshlik va yanada keksa daraxtlar ko'chirib o'tqazilishidan oldin bir-ikki yil davomida tayyorlanishi zarur. Katta daraxtlar ko'chirib o'tqazish uchu erta ko'klamdan boshlab tayyorlanadi. Buning uchun uninig shox-shabbasi bir oz siyraklanib tegishli shaklga kiritiladi. Undagi kasallangan, shikastlangan, chalkashib ketgan va zaif o'sgan barcha novdalari kesib tashlanadi. Kesik joylari esa o'tkir pichoqda tekislanib, bog' zamazkasi yoki moy bo'yog' surkab qo'yiladi. Daraxt tanasining aylana atrofi 50-60 sm kenglikda qaziladi. Doira shaklidagi bu ariqning chuqurligi daraxt ildiz sistemasining qanday chuqurlikda joylanishiga qarab har xil qilinadi. Ildiz o'z tevaragida qoldiriladigan tuproqi bilan qancha kattalikda bo'lismi quyidagicha belgilanadi; tananing yerdan 1,3 sm yuqorisining diametri necha santimetr bo'lsa, shu son 10 ga ko'paytirilib, chiqqan rahamdan 50 sm olib tashlanadi. qolgan raham ildizning tuproqi bilan qanday kattalikda bo'lismi ko'rsatadi. Daraxt tagiga doira shaklida chuqur qazishda yo'liqqan ildiz bog' qaychisida yoki o'tkir boltada kesiladi. Ildiz kesilgan joyning diametri 2 sm va kattaroq bo'lganda unga pista ko'mir maydasi yoki bog' zamazkasi surkaladi. Shu ravishda ochilgan doira chuqurchaga unumdor tuproq solib zichlanadi. Daraxt tanasi bilan haligi doira ariq o'rtasidagi joylar yumshatib o'qitlanadi. Shu xilda ko'chirishga tayyorlanayotgan daraxt o'z vaqtida qondirib sug'oriladi.

Bu daraxtlar birinchi o'sish davrida sust rivojlanadi: yangi novdalar chiqarmaydi, barglari mayda va oqish bo'ladi. Ko'chirib o'tqazishga tayyorlanayotgan daraxt normal ko'rishga ega bo'lismi bilan uni ko'chirishga

kirishish mumkin. Buning uchun ko'chat tevaragidan aylantirib, chuqur qilib olingen ariqqa taqab ikkinchi aylana chuqur qaziladi. Bunda yangidan paydo bo'lgan mayda ildizlarning nobud bo'lishiga va shikastlanishiga yo'l qo'yilmaydi. Ildiz tuproqi taxtalar bilan o'rab yashikka solingandek qilinadi, yashik sirtidan temir tasma yoki zaijir bilan boylab olipadi. Natijada daraxt ildizi tuproqi bilan birga konus shaklli yashikka joylangandek bo'lib qoladi. Bu yashikning og'iz tomoni ost tomonidan 20 % kengroq qilinadi. Ildizni o'rab olish oson bo'lgin uchun eng avval taxtachalarning bir nechtasi birga qo'shib yaxlit qilib olinadi. Shu xilda tayyorlab daraxt ildizi joylangan yashikning tagi ochiq bo'ladi. Yashikning ikki chetidan chiqib turgan ilgakdan daraxt ko'tarilib qo'yiladi. Ildiz tuproqi bilan yerdan oson ajralishi uchun yashikning quyi qismiga tirqish qilib shu tirqishdan temir tayog' o'tkazib but shaklida biriktiriladi. Daraxt ildizi tuproqi bilan mustaqkam holda bo'lishi uchun yashik oqzi ham taxta qopqoq bilan berkitiladi. Bu qopqoq ko'chatni tashish vaqtida uning ildizidagi tuproqni to'kilishdan saqlaydi.

Daraxt ildizini tuproqi bilan yashikka olish o'rniغا uni sim to'rga joylab, bu to'rlarning uchini 2 mm ln tross yoki 1 mm li yumshoq sim bilan boylash mumkin. Bunda to'ming ost tomoni ildiz tuproqini o'rab olishi kerak. Ildiz tuproqi bilan shu xilda o'rab tayyorlangan daraxt yuk ko'tarish kranlari vositasida 3 yoki 4 tonnali avtomashinaga yuklanadi. Bunda daraxtning ildiz tomoni mashina kuzovi ichiga, shox-shabbasi tashqariga qaratib joylanadi. Daraxtning shox-shabbasi arqon bilan bog'lab mashinaga mustaqamlanadi, daraxt tanasi tagiga namat yoki chipta qo'yiladi. Daraxt o'tqaziladigan joyga qaziladigan chuqur kengligi shunday bo'lishi kerakki, ildiz tushirilganda uning tuproqi bilan chuqur devorlari orasida kamida 50 sm, joydagi po'stloq cheti yaxshi tekislangan bo'lgandagina bu yara tez bitib ketadi. hatto eng katta yara joylar ham 2-3 yil ichida butunlay tuzaladi.

Daraxt ildizini tuproqi bilan muzlatib ko'chirish. Bu usulda daraxtni ko'chirish birmuncha oson bo'lib, ancha arzonga tushadi. Oktyabr-noyabr oyida daraxt tanasining tevaragi doira shaklida yuqorida ko'rsatilganidek qaziladi. Bu qazilgan aylana ariq unumdar tuproq va xazon bilan zich qilib to'ldiriladi. Tuproqda nam kam bo'lsa, qish davomida bir necha marta sug'oriladi. Daraxt shu xilda uning ildizi tevaragidagi tuproqi bilan batamom muzlaguncha qoldiriladi. Kuzda bu daraxt o'tqaziladigan yerga chuqur kovlanadi. Chuqurning kengligi o'tqaziladigan daraxt ildizining tuproqi bilan birgalikdagi kattaligiga qaraganda 1 metr kattaroq pastroq bo'lshi kerak. Bu yarmigacha unumdar tuproq bilan to'ldiriladi. Uning ustiga xazon va go'ng solinadi. Bu xazon go'ng chuqurdagi tuproqni muzlashdan saqlaydi. Yanvar-fevral oyida daraja minus 10 dan past bo'limganda daraxt haligi tayyorlab qo'yilgan chuqurga ko'chirib o'tqaziladi. Daraxt ildizi tevaragiga va ostiga tuproq solinadi. Daraxt o'tqazilgandan keyin unipg tevaragiga suv quyiladi yoki 0,5 m halinlikda yumshoq qor uyib o'yiladi, ko'klamda tuproq muzdan tushgandan keyin daraxt tanasining tagi tuproq bilan zichlanib tekislanadi.

Daraxtning bu ikki xil ko'chirib o'tqazish usuli tor bargli zarang, lipa, amerika va soqdiyon shumtoli, qayraqoch, sofora, kashtan daraxti kabi oson ko'karib ketadigan daraxt turlarini ko'chirib o'tqazishda qo'llanilishi kerak. Chinor, lola

daraxti, dub, yonqoq, olma, nok, qaraqay kabi o'qildizli uzun o'sadigan va ko'chirib o'tqazishda yaxshi tutmaydigan daraxtlar ham bo'ladi. Ba'zan daraxtlar ko'chirib o'tqazish uchun aloqida idishlarda o'stirilgan bo'ladi. Buning uchun daraxt ko'chati savatda, yashikda va yog'och bochkalarda o'stiriladi. Idishda o'stirilgan daraxtning ildiz sistemasi o'zaro o'ralashib quj o'sadi. Bunday daraxtlarning bo'yini 4-6 m ga etkazib ko'chirib o'tqazilganda ham tez ko'karib ketadi. Bu xil ko'chatlarni uzoq joylarga tashib borish oson bo'ladi. Ular yilning har qaysi davrida ko'chirib o'tqazilishi mumkin. Ko'chirib o'tqazish uchun alohida tayyorlik ko'rish yo'li bilan yoki ildizini tuproqi bilan muzlatib ko'chirish yo'li bilan o'tqazilganda yaxshi tutmaydigan daraxt turlari alohida idishda tayyorlanishi kerak.

Tajribalarda manzarali daraxtlarni ildizi yuvilgan holda ko'chirib o'tqazish hollari ham bo'ladi. Buning uchun daraxtning tagiga halqasimon shaklda ariq qaziladi. Bu ariqqa oqar suv bog'lab qo'yiladi. Daraxt ildizi tevaragidagi va orasidagi tuproq suv bilan yuvilib ketadi. Shunday qilib ildizi yalanqochlangan daraxt boshqa joyga ko'chirib o'tqaziladi. Daraxtni ko'chirib o'tqazishning bu usuli tuproqi qumli bo'lgan joylarda, ya'ni daraxt ildizi ko'chirilganda uning tevaragida tuproqni saqlab bo'lmaydigan joylarda amalga oshiriladi. Ildizini yalanqochlab ko'chirib o'tqazishda barcha ildizlarniig mumkin qadar to'la saqlanishiga alohida e'tibor qilish zarur.

Daraxt va buta o'simliklar tagini yumshatish. Barcha daraxt va buta o'simliklarning tagi uning shox-shabbasi kengligida doimo yumshatib qo'yiladi. Buning uchun daraxt tagi o'sish davrida kamida 3 marta chopiladi. Birinchi chopiq mart-aprel oyida yerga go'ng solinib, 12-20 sm chuqurlikda o'tkaziladi. Bunda yer beti xaskashda tekislab qo'yiladi. Yozgi chopiq iyundan boshlab sentyabrgacha, iloji bo'lsa har oyda bir marta o'tkaziladi. Bunda daraxt tagiga mineral o'qit solib 12-15 sm chuqurlikda chopiladi. Sentyabr-oktyabrdagi chopiq 20- 25 sm chuqurligida qilinadi, lekin bunda palaxsa maydalanmaydi.

Gazonlarga ekilgan daraxtlarning tagi o'tqazilishining birinchi yilidagina chopiladi. Shundan keyin daraxt tagidagi aylana ariqlar tekislanib, gazon gullarining urug'i sepiladi.

O'qitlash. Shahar sharoitida daraxtlar va buta o'simliklar ko'cha va ariq yog'alab qator-qator ekilgan bo'lsa, ularning ildizi joylashgan tuproq tezda kuchsizlanib qoladi. O'simlik barglari maydalashib siyraklashadi. Daraxt tanasida va yirik shoxlarining ostki qismida yoriqlar paydo bo'lib, elim oqish hodisasi ro'y beradi. Bunday hol ayniwsa danakli o'simliklarda ko'p bo'ladi. Go'ng, chirindi va kompost eng qimmatli o'qitlardan hisoblanadi. Chirindi bilan kompostni o'sish davrining har qanday mavsumida har kvadrat metrga 1 chelakdan solish mumkin, Ammo chirigan go'ngni kuzda daraxt tagini chopish yoki haydash oldidan, shuningdek erta ko'klamda solish ma'qul. Organik o'g'itlar bo'lмаган taqdirda mineral o'qit ishlatish mumkin. Bunda har kvadrat metrga 30-50 g sulfat ammoniy, 60-100 g superfosfat va 30-40 g kaliy tuzi solinadi. Bu o'qitlar aralashmasi erta ko'klamda tuproqqa aralashtirib daraxt tagini chopish oldidan solinadi.

Daraxtlarni oqlash. Daraxt tanasi va yo'qon shoxlarining pastki qismi o'shirilmagan ohak suvi bilan yoki buni tuproq bilan aralashtirib ko'klamda qora sovuqlar tugagach va kuzda xazonrezgidan keyin oqlanadi. Oqlash oldidan daraxt tanasi va asosiy shoxlarining ostki qismi temir taroq yoki maxsus belcha bilan qurigan po'stloqlardan tozalanadi.

Tanasi oqlangan daraxtlar ko'klamda kechroq gulga kirib, uning mevasi ko'klamgi sovuqlardan omon qoladi.

Nazorat savollari:

1. Ko'payish qanday jarayon?
2. O'simliklarda necha turdag'i ko'payish usullari ajratiladi ?
1. Yuksak o'simliklardagi tabiiy va sun'iy vegetativ ko'payish
2. O'simliklar mavsumiy o'zgarishlari nimaga bog'liq ?
3. O'simliklarning vegetatsiya davri va uning asosiy guruhlarini aytинг ?

3-MA'RUZA. OZIQ-OVQAT O'SIMLIKLARI

ASOSIY SAVOLLAR

1. O'zbekiston florasida keng tarqalgan oziq-ovqat o'simlik turlari
2. Oziq-ovqat o'simliklarning tabiiy zahiralari
- 3."Qizil kitob"ga kirgan oziq-ovqat o'simlik turlari va ularni muhofaza qilish
4. Oziq-ovqat o'simliklarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati

Mavzuga oid tayanch so'z va iboralarxushbo'y yog'imli ta'mli, mineral moddalar, mikroelementlar fitontsidlar, fermentlar, efir moylari, aromatik moddalar, oziqabop uglevodlar, oqsillar, vitaminlar.

O'simliklar turli xildagi uglevodlar, oqsillar, vitaminlar, xushbo'y hidli va yoqimli ta'mli boshqa moddalarga boy. O'simlik mahsulotlari –mineral moddalar (natriy, kaliy, kalsiy, magniy, fosfor, temir va bosh.) va mikroelementlar (yod, kobalt va bosh.) manbai bo'lib, ular organizm hayot faoliyatining asosida yotuvchi biologik va fiziologik jarayonlarning borishida muhim rol o'ynaydi.

Mineral moddalar va mikroelementlar xujayra protoplazmasining doimiy tarkibiy qismi hisoblanadi, uning fiziologik holatini ta'minlaydi, organizmdagi ocmotik bosimni va kislota - asosli balansni ta'minlaydi. O'simlik maxsulotida fitontsidlar, oksidlovchi fermentlar, efir moylari ham bo'ladi.

O'simlik maxsuloti bilan birga odam organizmiga turli xushbo'y moddalar ham kiradi. Ular odatda katta oziqabop qiymatga ega yemac, ammo ovqatga o'ziga xoc ta'm va hid berish uchun ishlataladi. Bu moddalar nafaqat ishtahani ochadi, balki ovqat hazm qilish bezlarining sekretsiya ajratishini ham kuchaytiradi.

O'simlik maxsuloti tarkibidagi efir moylari oshqozon ichak traktidagi bijg'ish jarayonlarini pasaytiradi, moddalar almashinuvini, oshqozon va ichakdagi hazm bezlari hamda so'lak bezlari faoliyatini me'yorga solib turadi.

Xushbo‘y (aromatik) hidli moddalar fitonsid ajratishi tufayli bakterisid xususiyatiga ega (piyoz, sarimsoq piyoz, sholg‘om va bosh.). Bu maxsulotlar vitaminlarga ham boyligi cababli sog‘lom odamlarga ham bemorlarga ham birdek foydalidir. O‘simliklar, Ayniqsa, bahor oylarida vitaminlarga boy bo‘ladi. Masalan, gazandao‘t (qichitqio‘t) bahor oylarida hatto apelsin va limondan ham ko‘proq miqdorda askorbin kislota to‘playdi, karotin miqdori eca xuddi sabzidagidek bo‘ladi. Gazandao‘tning 20 grammi organizmning K vitaminiga bo‘lgan sutkalik ehtiyojini to‘liq qoplaydi.

O‘simlik maxsulotlari xom holatda yoki ishlov berilgandan keyin iste’mol qilinadi, kam miqdorda qo’shimcha yoki ziravor o‘rnida ham ishlatiladi. Xom holatda iste’mol qilinganda ularning tarkibidagi vitaminlar, fitonsidlar, oksidlovchi fermentlar ko‘proq saqlanadi va foydasi yuqori bo‘ladi.

Juda ko‘p oziq ovqat o‘simliklari dorivor, efirmoyli, ziravor va boshqa maqsadlarda ham ishlatiladi.

Eng keng ishlatiladigan oziq ovqat o‘simliklariga bug‘doydoshlar oilasi (bug‘doy, arpa, suli, javdar, makkajo‘xori va b.), burchoqdoshlar oilasi (burchoq, no‘xat, mosh, loviya, yeryong‘oq va b.), qovoqdoshlari oilasi (qovoq, tarvuz, qovun, handalak, bodring va b.), ituzumdoshlari oilasi (kartoshka, pomidor, baqlajon va b.) hamda boshqa oilalarga mansub o‘simliklar kiradi.

Quyida eng keng tarqalgan oziq ovqat o‘simliklari ro‘yxati keltirilmoqda.

Poaceae – Bug‘doydoshlar – Мятликовые, Злаковые

Turkum Saccharum L. – Shakarqamish – Сахарный тростник

Tur S. spontaneum L. – Shakarqamish – С. тростник дикий

Turkum Sorghum Moench. – Jo‘xori – Сорго

Tur S. cernuum Host. – Oq jo‘xori, qo‘qon jo‘xori – С. поникшее

Turkum Avena L. – Suli – Овес

Tur A. clauda Durieu – О. замкнутый

A. eriantha Durieu – О. волосистый

A. barbata Pott. ex Link. – О. бородатый

A. septentrionalis Malz. – О. северный

A. meridionalis (Malz.) Roshev. – Qora suli – О. южный

Turkum Secale L. – Javdar, qorabug‘doy – Рожь

Tur S. sereale L. – Javdar, qorabug‘doy – Р. посевная

Turkum Hordeum L. – Arpa – Ячмень

Tur H. jubatum L. – Yubatum ariasi – Я. гривастый

H. bogdanii Wilensky. – Bogdan ariasi – Я. Богдана

H. brevisubulatum (Trin) Link – Targ‘il arpa – Я.

короткошиловидный

H. bulbosum L. – Piyozi arpa, xarduma, tak-tak – Я.

луковичный

H. leporinum Link. – Quyon arpa – Я. заячий

H. geniculatum All. – Я. коленчатый

H. spontaneum C.Koch. – Yovvoyi arpa – Я. дикорастущий

Turkum Triticum L. – Bug‘doy – Пшеница

Tur T. durum Desf – Bahorgi bug‘doy – Твердая пшеница

	T. vulgare Vill. – Qizil bug’doy – Пшеница
Turkum	Oryza L. – Sholi – Рис
Tur	O. sativa L. – Sholi – Р. посевной
Turkum	Zea L – Makkajo‘xori, jo‘xori – Кукуруза
Tur	Z. mays L. – Makkajo‘xori – Кукуруза
	Liliaceae – Loladoshlar – Лилейные
Turkum	Korolkowia Regel – Olg‘i – Корольковия
Tur	K. sewertzowii Regel – Seversov olg‘isi – К. Северцова.
	Alliaceae – Piyozdoshlar – Луковые
Turkum	Allium L. – Piyoz – Лук.
Tur	A. pskemense B. Fedtsch. – Tog‘ piyozi – Л. пскемский
	A. stipitatum Regel. – Anzur piyozi – Л. стебельчатый.
	A. сера L. – Osh piyoz – Л. репчатый
	A. longicuspis Regel – Yovvoyi sarimsoq piyoz – Л. длинно-остроконечный.
	Moraceae – Tuttoshlar – Тутовые.
Turkum	Morus L. – Tut – Шелковица, тут
Tur	M. alba L. – Oq tut, baliqtut, balxitut – Т. белый.
	M. nigra L. – Shotut, shoh-tut – Т. черный.
Turkum	Ficus L. – Anjir – Инжир.
Tur	F. carica L. – Anjir – И. обыкновенный.
	F. afganistanica Warb. – Afg‘on anjiri – И. афганистанский.
	Ebenaceae – Xurmadoshlar – Эбеновые.
Turkum	Diospyros L. – Xurmo – Сафсан, Хурма.
Tur	D. lotus L. – Xurmo, safsan – Х. обыкновенная или кавказская.
	D. virginiana L. – Virginiya xurmosi – Х. виргинская.
	Pedaliaceae – Kunjutdoshlar – Сезамовые.
Turkum	Sesamum L. – Kunjut – Кунжут.
Tur	S. indicum L. – Ekma kunjut, kunjut – К. индийский.
	Polygonaceae – Torondoshlar – Гречишные.
Turkum	Rheum L. – Rovoch, chuhra – Ревень.
Tur	R. tataricum L. – Tatar rovochi – Р. татарский.
	R. turkestanicum Janiseh. – Tuyayoproq – Р. туркестанский.
	R. maximowiczii Losinsk. – Maksimovich rovochi, chuhra – Р. Максимовича.
	R. cordatum Losinsk. – Yuraksimon rovoch, chuhra – Р. сердцевидный.
	R. macrocarpum Losinsk. – Yirik mevali rovoch – Р. крупноплодный.
Turkum	Fagopyrum Mill. – Grechka – Гречиха.
Tur	F. tataricum (L.) Gaertn – Tatar grechkasi – Г. татарская.
	Juglandaceae – Yong’oqdoshlar – Ореховые.
Turkum	Juglans L. – Yong‘oq – Орех.
Tur	J. regia L. – Yong‘oq, grek yong‘og‘i – О. гречкий.
	Chenopodiaceae – Sho’radoshlar – Маревые.

Turkum	Beta L. – Lavlagi – Свекла.
Tur	B. perennis (L.) Freyn – Ko‘p yillik lavlagi – С. многолетняя
Turkum	Spinacia L. – Ismaloq – Шпинат.
Tur	S. turkestanica Iljin. – Cho‘chqa tikan – III. туркестанский.
	Brassicaceae – Karamdoshlar – Капустные.
Turkum	Raphanus L. – Turp – Редька.
Tur	R. sativus L. – Madaniy turp, turp – Р. обыкновенная.
Turkum	Capsella Medik. – Jag‘-jag‘ – Пастушья сумка.
Tur	C. bursa-pastoris (L.) Medik. – Oddiy jag‘-jag‘, achambiti – П. с. обыкновенная.
	Saxifragaceae – Toshyorardoshlar – Камнепломковые.
Turkum	Ribes L. – Qoraqt – Смородина.
Tur	R. nigrum L. – Qora smorodina, qoraqt – С. черная.
	R. vulgaris Lam. – Qizilqat, qizil smorodina – С. красная.
	Rosaceae – Ra’nodoshlar – Розоцветные.
Turkum	Amygdalus L. – Bodom – Миндаль.
Tur	A. bucharica Korsh. – Bodom, achchiq bodom – М. бухарский.
Turkum	Sorbus L. – Chetan – Рябина.
Tur	S. tianschanica Rupr. – Tyan-shan chetani, chetan – Р. тяньшанская
Turkum	Malus Hill. – Olma – Яблоня.
Tur	M. sieversii (Ledeb.) M. Royem – Yovvoyi olma – Я. Сиверса.
Turkum	Pyrus L. – Nok, murut – Груша.
Tur	P. turcomanica Maleev – turkman nomi – Г. туркменская
Turkum	Cydonia Hill. – Behi – Айва.
Tur	C. oblonga Hill. – Behi – А. продолговатая.
Turkum	Cotoneaster Medik – Irg‘ay – Кизильник.
Tur	C. melanocarpus Fisch. ex Blytt – Qora mevali irg‘ay – К. черноплодный.
Turkum	Cerasus Hill. – Olcha, olvoli – Вишня.
Tur	C. mahaleb (L.) Mill. – Maxaleb olchasi, kamxastak – Б. магалебская.
	C. vulgaris Mill. – Olcha – В. обыкновенная.
	C. verrucosa (Franch.) Nevski – Chiya – В. бородавчатая
Turkum	Armeniaca Hill. – O‘rik – Абрикос, урюк.
Tur	A. vulgaris Lam. – O‘rik – А. обыкновенный.
	A. sogdiana Kudr. – Yog‘li o‘rik – А. согдийский.
Turkum	Persica Hill. – Shaftoli – Персик.
Tur	P. vulgaris Mill. – Shaftoli – П. обыкновенный.
Turkum	Rubus L. – Maymunjon, malina – Ежевика, костяника.
Tur	R. caesius L. – Parmachak, maymunjon – Е. сизая.
	R. idaeus L. – Oddiy malina – М. обыкновенная.
Turkum	Crataegus L. – Do‘lana – Бояришник.
Tur	C. pontica C. Koch. – Do‘lana – Б. понтийский.
Turkum	Prunus L. – Olxo’ri – Слива.

Tur	P. divaricata Ledeb. – Olisha – С. растопыренная.
	Fabaceae – Burchoqdoshlar – Мотыльковые.
Turkum	Glycine Willd. – Soya – Соя
Tur	G. hispida (Moench.) Maxim. – Soya – С. жестковолосистая
Turkum	Lens Mill – Yasmiq – Чечевица.
Tur	L. orientalis (Boiss.) Schmalh. – Sharq yasmig‘i, yasmiq – - Ч. восточная.
Turkum	Cicer L. – No‘xat – Горох, нут.
Tur	C. arietinum L. – No‘xat – Н. посевной.
	C. flexuosum Lipsky – Tog‘burchoq – Н. извилистый.
	C. songaricum Steph ex DC. – Jung‘or no‘xoti – Н. джунгарский.
Turkum	Phaseolus L. – Fasol – Фасоль.
Tur	Ph. aureus Roxb. – Mosh – Ф. золотистая
	Ph. coccineus L – Qizil loviya – Ф. красная
	Ph. vulgaris L. – Oddiy loviya – Ф. обыкновенная
Turkum	Vigna Savi. – Loviya – Ловия
Tur	V. sinensis (L.) Savi ex Hassk. – Loviya – Л. китайская.
Turkum	Arachis L. – Yeryong‘oq – Арахис.
Tur	A. hypogaea L. – Yeryong‘oq – Арахис, земляной орех.
Turkum	Glycyrrhiza L. – Shirinmiya – Солодка.
Tur	G. glabra L. – Qizilmiya, shirinmiya – С. голая.
	Anacardiaceae – Pistadoshlar – Сумаховые.
Turkum	Pistacia L – Pista – Фисташка.
Tur	P. vera L. – Xandon pista – Ф. настоящая.
	Vitaceae – Tokdoshlar – Виноградовые.
Turkum	Vitis L. – Uzum, tok – Виноград.
Tur	V. vinifera L. – Tok, uzum – В. культурный.
	Rhamnaceae – Chilonjiydadoshlar – Крушиновые.
Turkum	Ziziphus Mill. – Chilon jiyda, unabi – Унаби.
Tur	Z. jujuba Mill. – Chilon jiyda, unabi – У. обыкновенный.
	Linaceae – Zig‘irdoshlar – Льновые.
Turkum	Linum L. – Zig‘ir – Льён.
Tur	L. humile Mill. – Pakana zig‘ir, zig‘ir – Л. низкий.
	Punicaceae – Anordoshlar – Гранатовые.
Turkum	Punica L. – Anor – Гранат.
Tur	P. granatum L. – Anor – Г. обыкновенный.
	Elaeagnaceae – Jiydadoshlar – Лоховые.
Turkum	Elaeagnus L. – Jiyda – Лох.
Tur	E. orientalis L. – Jiyda – Л. восточный.
	E. angustifolia L. – Qushjiyda, ingichka bargli jiyda – Л. узколистный.
	Lamiaceae – Yalpizdoshlar – Яснотковые.
Turkum	Mentha L. – Yalpiz – Мята.
Tur	M. asiatica Boriss. – Osiyo yalpizi, yalpiz – М. азиатская.

M. piperita L. – Yalpiz – М. перечная
Solanaceae – Ituzumdoshlar – Паслёновые.

- Turkum** Solanum L. – Ituzum – Паслён.
Tur S. Tuberosum L. – Kartoshka – П. клубноносный, картофель.
S. depilatum Kitagawae – Pushtigul ituzum – П. Китагавы.
S. nigrum L. – Qora ituzum – П. черный.

- Turkum** Lycopersicon Hill. – Pomidor. – Томат, помидор
Tur L. esculentum Mill. – Tomat, pomidor.
Turkum Capsicum L. – Qalampir, garmdori – Перец.
Tur C. annuum L. – Garmdori – П. горькая.

Asteraceae – Qoqio‘tdoshlar – Астровые.

- Turkum** Cynara L. – Artishok – Артишок.
Tur C. scolymus L. – Tikanli artishok – А. колючий
Turkum Helianthus L. – Kungaboqar – Подсолнечник.
Tur H. annus L. – Kungaboqar – Подсолнечник.
Turkum Taraxacum Wigg. – Qoqio‘t – Одуванчик.
Tur T. officinale Wigg. – Dorivor qoqi, momaqaymoq –
О. лекарственный.

Nazorat savollari:

1. O’zbekistonda oziq-ovqat o’simliklarining nechta turi bor?
2. Qaysi madaniy o’simliklarni parxish usulida vegetativ ko’paytirish mumkin?
3. Qaysi o’simliklar guruxi qalamchalar yordamida ko’paytiriladi?
4. Qaysi oilalarda oziq -ovqat o’simliklari ko’p uchraydi ?
5. "Qizil Kitob"ga kiritilgagn oziq-ovqat o’simliklarini aniqlang ?

**4-MA’RUZA. SABZAVOT-POLIZ O’SIMLIKLARI
ASOSIY SAVOLLAR**

1. O’zbekiston florasida keng tarqalgan sabzavot-poliz o’simlik turlari
2. Sabzavot-poliz o’simliklarning tabiiy zaxiralari
3. Sabzavot-poliz o’simliklarning xalq xo’jaligidagi ahamiyati
- 4." Qizil kitob"ga kirgan sabzavot-poliz o’simlik turlari va ularni muhofaza qilish
Mavzuga oid tayanch so’z va iboralarsabzavot-poliz bir yillik o’t, ko’p yillik o’t, karotin, namlik, tuproq, noqol, unumdar, palümitin, stearin, olein, biologik faol modda.

Saxiy tabiat jonajon o‘lkamiz uchun o‘zining bisotida nimaiki bo‘lsa, ayamagan. Serquyosh diyorimiz jannat – makon O’zbekistonimizning shuxrati behudaga dunyoga mashhur bo‘lmagan. Tilimi tilni yoradigan mazali Xorazmning qovunlari, Mirzacho‘lda yetishtirilgan tarvuzlar, Samarqandning handalagi, Farg‘ona, Andijonning turpu-pomidorlari yetti iqlimga ma’lum va mashhurdir.

O’zbekistonda yetishtirilayotgan sabzavot-poliz o’simliklarining insonlar uchun ahamiyati boshqa o‘lkalarda yetishtirilayotgan sabzavot-poliz ekinlaridan tubdan farq qiladi. Bu farq shundan iboratki, bizda ekib o‘stirilayotgan o’simliklar o‘zlariga kerakli quyosh haroratini istagancha oladi. Namlik yetarli. Tuprog‘i esa unumdar. Tabiat yaratgan bunday imkoniyatlar bu yerda o’sadigan har bir nihol uchun qulay va yetarlidir. Respublikamizda yetishtirilayotgan sabzavot-poliz ekinlarining

servitaminliligi, to‘yimlilik darajasining yuqoriligi, foydaliligi, inson organizmi uchun zarur bo‘lgan mikroelementlarga boyliligining sababi ham ana shundadir. Quyida sabzavot – poliz ekinlariga kiruvchi oila vakillarini ko‘rishimiz mumkin.

Sabzavot poliz ekinlaridan Cucurbitaceae – Qovoqdoshlar oilasiga mansub qovoqni, qovun va tarvuzlarni keltirish mumkin.

Oshqovoq (Cucurbita pepo) qovoqdoshlar oilasi (Cucurbitaceae)ga mansub bir yillik o‘t o‘simplik. Oziq ovqat, dorivor, yem xashak o‘simpligi sifatida hamda karotin manbai sifatida keng ekiladi. Oshqovoqning siqib olingen suvi (xom oshqovoqning) yoqimli ta’mga ega va juda foydali. Oshqovoqdan tayyorlangan somsa, manti va boshqa taomlar ham o‘zining yoqimliligi va foydaliligi bilan ajralib turadi.

Oshqovoqning urug‘ida 40 % gacha moy bo‘ladi, uning tarkibida palmitin, stearin, olein va boshqa kislotalarning trigliseridlari bo‘ladi. Eng asosiy biologik faol moddasi kukurbitin aminobirkmasi hisoblanadi. U gelmintoz kasalliklarini davolashda juda foydali. Mevasidan (silos qilingan holatdagisidan) karotin olinadi.

Qovun (Melo orientalis (S. Kudr.) Nab.- qovoqdoshlar oilasiga mansub bir yillik o‘t o‘simplik. Bargi uzun bandli, yirik, barg qo‘ltig‘ida gajagi bor. Turiga qarab asosan iyun oyida gullaydi. Guli ayrim, ba’zan ikki jinsli, sariq rangli. Mevasi ko‘p urug‘li, turli shakl va rangda 300 g. dan 15-20 kg gacha va undan ham og‘ir. Tarkibida 16-18% qand, vitamin S, karotin, pektin moddalar, mineral tuzlar bor. Mevadan ho‘lligida, quritib (qovun qoqi) qiyom va povidlo tayyorlab foydalanadilar. Qovun Respublikamizning hamma viloyatlarida ekiladi. Ayniqsa Xorazm qovunlarining shuhrati, asosan quyidagi to’rtta turga mansub: handalak, amiri, kaccaba hamda zard.

Handalakga – ertapishar, ko‘kcha, handalak, zamcha, sariq handalak, bosvoldi kabilalar kiradi.

Amiriga – yozda pishadigan davlatboy, daxbedi, amiri, nongo‘sht, shakarpalak, toshloqi kabilalar kiradi.

Kassabaga – bo‘rikalla, gurvak kiradi.

Zardga – kuzgi va qishgi turlari: qo‘ybosh, umrboqi, gulobi, arqoni, beshiki, qariqiz va boshqalar kiradi.

Tarvuz (Citrullus vulgaris Schrad.) – qovoqdoshlar oilasiga mansub, yotib o‘suvchi bir yillik o‘t o‘simplik. Palagi 3-4 m, bargi uzun, bandli, bo‘lakli, o‘q ildizli. Iyun oyida gullaydi. Guli ikki jinsli. Changchi gullari palakda to‘p-to‘p, urug‘chi gullari esa yakka holda joylashadi, och sariq rangli. Mevasi avgust-sentyabr oylarida pishadi. Yumaloq, cho‘zinchoq shaklda bo‘lib, rangi oq qora, ola-bula rangda bo‘ladi. Tarkibida 6-11% qand, C vitamini, azotli moddalar va boshqa birikmalar bor.

O‘zbekistonda tarvuzning bir qancha navlari ekiladi. Masalan, “Узбекский 452”, “Король Куба”, “Мраморный”, “Хайткора”, “Човкари”, “Ко‘зивои”, “Кадан” va boshqa navlar. Tarvuzdan lalmikor, bahorikor va sug‘oriladigan yerkarda ekib hosil olinadi. Asosan mevasi uchun ekiladi. U qadimiy o‘simplik. Insonlar undan o‘z chanqog‘ini qondirish, oziqa sifatida, buyrakdagi toshni yuvish, siydk haydovchi maqsadlarida foydalanadilar.

Quyida eng keng tarqalgan sabzavot poliz o‘simpliklari ro‘yxati berilgan.

Alliaceae – Piyozdoshlar – Луковые.

Turkum Allium L – Piyoz – Лук.

Tur A. longicuspis Regel – Sarimsoq piyoz – Л. длинноостроконечный.

Chenopodiaceae – Sho‘radoshlar – Маревые.

Turkum	Beta L. – Lavlagi – Свекла.
Tur	B. perennis (L.) Freyn – Lavlagi – С. многолетняя.
Turkum	Spinacia L. – Ismaloq – Шпинат.
Tur	S.turkestanica Iljin – Cho‘chqa tikan – Ш. туркестанский.

Brassicaceae – Karamdoshlar – Капустные.

Turkum	Armoracia Gaertn., Mey. et Scherb. – Yerqalampir – Хрен.
Tur	A. rusticana (Lam) Gaertn., Mey. et Scherb. – Yerqalampir – Х. обыкновенный.

Turkum	Brassica L. – Karam – Капуста.
Tur	B. oleracea L. – Karam – К. огородная.
	B. campestris L. – Yovvoyi karam – К. полевая.
	B. rapa L. – Sholg‘om – Репа.

Turkum	Raphanus L. – Turp – Редька.
Tur	R. sativus L. – Madaniy turp – Р. посевная.

Turkum	Sinapis L. – Rango‘t – Горчица.
Tur	S. arvensis L. – Rango‘t – Г. полевая.

Apiaceae – Ziradoshlar – Сельдерейные.

Turkum	Daucus L. – Sabzi – Морковь.
Tur	D. carota L. – Yovvoyi sabzi – М. дикая.
Turkum	Coriandrum L. – Kashnich – Кориандр, кишнец.
Tur	C. sativum L. – Kashnich – К. посевной.
Turkum	Mediasia M.Pimen. – Alqor – Медиазия.
Tur	M. macrophyllum (Regel.et Schmalh.) M.Pimen. – Yirikbarg alqor – М. крупнолистная.

Turkum	Anethum L. – Ukrоп, shivit – Укроп.
Tur	A. graveolens L. – Shivot. – У. пахучий

Turkum	Petroselinum Hill. – Petrushka – Петрушка.
Tur	P. crispum (Mill.) A.W.Hill. – Petrushka – П. обыкновенная.

Lamiaceae – Yalpizdoshlar – Яснотковые.

Turkum	Mentha L. – Yalpiz – Мята.
Tur	M. asiatica Boriss – Yalpiz – М. азиатская.
Turkum	Ocimum L. – Rayhon – Базилик.
Tur	O. basilicum L. – Rayhon – Б. обыкновенный.

Solanaceae – Ituzumdoshlar – Пасленовые.

Turkum	Solanum L. – Ituzum – Паслен.
Tur	S. melongena L. – Baqlajon – Баклажан.
	S. tuberosum L. – Kartoshka – Картофель.

Turkum	Lycopersicon Hill. – Pomidor – Томат.
Tur	L. esculentum Mill. – Pomidor – Томат.
Turkum	Capsicum L. – Qalampir, garmdori – Перец
Tur	C. annuum L. – Qalampir, garmdori – П. горький.

Cucurbitaceae – Qovoqdoshlar – Тыквенные.

Turkum	Citrullus Schrad. – Tarvuz – Арбуз.
Tur	C.vulgaris Schrad – Tarvuz – А. обыкновенный.

Turkum	Cucumis L. – Bodring – Огурец.
Tur	C. sativus L. – Bodring – О. посевной.
Turkum	Melo Hill. – Qovun – Дыня.
Tur	M.orientalis (Kudr.) Nabiev. – Qovun – Д. восточная.
	M. flexuosus (L.) Sager. ex M. Royem – Таррак
	M. dudaim (L.) Sager – Pechakqovun yoki amiri qovun
Turkum	Cucurbita L. – Qovoq – Тыква.
Tur	C. pepo L. – Patisson, sapcha qovoq – Т. обыкновенная.
	C. moschata (Duch.) Poir. – Osh-qovoq, oyimqovoq – Т. мускусная.
	C. maxima Duch. – Kartoshka qovoq, o'ris qovoq – Т. крупная.

Asteraceae – Qoqio‘tdoshlar – Астровые.

Turkum	Taraxacum Wigg. – Qoqio‘t – Одуванчик.
Tur	Taraxacum officinale Wigg. – Dorivor qoqi, momaqaymoq – О. лекарственный.

Nazorat savollari:

1. O’bekiston florasida sabzavot-poliz o’simlik nechta turlari ma'lum ?
2. Sabzavot -poliz o’simliklarning keng tarqalgan oilalarini ayting ?
3. Sabzavot-poliz o’simliklarning qanday tabiiy zaxiralari mavjud ?
- 4."Qizil kitob"ga kirgan sabzavot-poliz o’simlik turlari nechta va ularni muhofaza qilish uchun qanday choralar mavjud ?

5-MA’RUZA. TOLALI O’SIMLIKLER ASOSIY SAVOLLAR

1. O’zbekiston florasida keng tarqalgan tolali o’simlik turlari
2. Tolali o’simliklarning tabiiy zaxiralari
3. Tolali o’simliklarning xalq xo’jaligidagi ahamiyati
- 3."Qizil kitob"ga kirgan tolali o’simlik turlari va ularni muhofaza qilish

Mavzuga oid tayanch so’z va iboralartola, xom ashyo, toqimachilik sanoati, lub tolalari, tsellyuloza, texnik izolyatsion matolar, kinoplenkalar, sun’iy ipak, qog’oz, izolyatsion.

O’zbekistonda o’suvchi ba’zi o’simlik turlarining barg, poya, ildiz va urug‘larida u yoki bu miqdorda tolalar mavjud bo‘lib, ular ancha pishiq, tez uzilmaydigan, egiluvchan va chidamli bo‘ladi. Ulardan yigiruv, to’quv ishlarida, ip, gazlama tayyorlashda foydalaniлади.

To‘qimachilik sanoati va xalq, xo’jaligining boshqa ayrim tarmoqlari uchun qimmatbaho xom ashyo hicoblangan hamda, yuqori sifatli tola beruvchi o’simliklar, asosan gulhayridoshlar, zig‘irdoshlar va kendirdoshlar oilalarining vakillaridir. Tolali o’simliklar ishlatilishiga qarab bir qancha guruhlarga bo‘linadi:

1. Yigiruv yoki to‘qimachilik sanoati uchun asosiy xom ashyo manbai hicoblanadigan o’simliklar. Ularning lub tolalari poyalariда (kendir, gazandao‘t, kanop, zig‘ir), barglarida (yangi zelandiya zig‘iri, qalam, qo‘g‘a) bo‘ladi. Ba’zi o’simliklarning urug‘ tuklari tola sifatida ishlatiladi (yovvoyi g‘o‘za, g‘o‘za.).

2. To‘qish uchun ishlatiladigan o‘simliklar. Ularning turli organlarini, ya’ni poya, barg, novda va ildizlarini po‘stloqdan tozalab, ozgina shaklini o‘zgartirgan holda ulardan turli xil bosh kiyimlari, uy – ro‘zg‘or buyumlari (savatlar, to‘qilgan stullar, kreslolar) va chetan devorlari tayyorlash mumkin.
3. Cho‘tkabop tolali o‘simliklarda ildiz yoki poyaning birlamchi po‘stloqli qismi olib tashlangandan keyin tolalari ko‘zga yaxlit ko‘rinadi. Bu tolalardan texnik maqsadlar uchun foydalanish mumkin. Shuningdek, uy – ro‘zg‘orda ishlatiladigan oqlash va bo‘yashda qo‘llaniladigan turli xil cho‘tkalar tayyorlasa bo‘ladi. Cho‘tka ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan tolalar tekis, to‘g‘ri bo‘lib, sinmasligi va ular egiluvchan bo‘lishi, uzunligi 8-15sm dan kalta bo‘lmasligi kerak.
4. Buyumlarni bog‘lash uchun ishlatiladigan o‘simliklar. Poya va barglari uzunroq, egiluvchan bo‘lganligi cababli, ulardan turli narsalarni bog‘lashda foydalaniladi.
5. To‘ldiriladigan yoki o‘rash uchun ishlatiladigan o‘simliklar. Ularning tuklari meva ichida (g‘o‘za), urug‘ida (o‘simlik ipagi) hamda, boshqa organlarida bo‘ladi. Shuningdek ba’zi bir pallali o‘simliklarning ingichka uzun barglari va barg tuklari yostiqlarga, to‘saklarga, yumshoq stul, divan, kiyimlarga solinadi hamda turli buyumlarni o‘rash uchun ishlatiladi.
6. Qog‘oz yoki sellyuloza ishlab chiqarishda foydalaniladigan o‘simliklar. Bu o‘simliklar ko‘p tolali xujayralarga ega. Ularni mexanikaviy va kimyoviy usul bilan ajratib olib qog‘oz va sellyuloza ishlab chiqarishda qo‘llanishi mumkin.

Tolali o‘simliklardan, ayniqsa, g‘o‘zaning (*Gossypium L.*) ahamiyati juda katta. G‘o‘zaning urug‘i (chigitida)da uzunligi 20g’50 mm keladigan tolalar bo‘ladi. Jaxon miqyosida ishlab chiqarilayotgan tolalarning 75 % g‘o‘za zimmasiga to‘g‘ri keladi.

G‘o‘za tolasidan turli gazlamalar, kinoplenkalar, portlovchi moddalar tayyorlanadi, sun’iy ipak, qog‘oz, izolyatsion matolar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Quyida keng tarqalgan tola beruvchi o‘simliklarning ro‘yxati keltirilgan.

Poaceae – Bug‘doydoshlar – Мятликовые.

- | | |
|---------------|---|
| Turkum | Saccharum L. – Shakarqamish – Сахарный тростник. |
| Tur | S.spontaneum L. – Shakarqamish, qalam – С. тростник дикий. |
| Turkum | Aristida L. – Selin – Аристида, Триосенница. |
| Tur | A.karelinii (Trin. et Rupr.) Roshev. – Selin – А. Карелина. |
| Turkum | Dactylis L. – Oqso‘xta – Ежа |
| Tur | D.gloemerata L. – Oqso‘xta – Е. сборная. |

Iridaceae – Gulsafsardoshlar – Ирисовые, Касатиковые.

- | | |
|---------------|--|
| Turkum | Iris L. – Sapsar, gulsapsar – Ирис, касатик. |
| Tur | I. songarica Schrenk – Jung‘or savsari – И. джунгарский. |

Urticaceae – Gazandadoshlar – Крапивные.

- | | |
|---------------|---|
| Turkum | Urtica L. – Gazanda – Крапива. |
| Tur | U.dioica L. – Chayano‘t – К. двудомная. |

Fabaceae – Burchoqdoshlar – Мотыльковые.

- | | |
|---------------|--|
| Turkum | Psoralea L. – Oqquray – Псоралея. |
| Tur | P.drupacea Bunge – Oqquray – П. костянковая. |
| Turkum | Astragalus L. – Astragal – Астрагал. |

Tur	A.sieversianus Pall. – Paxtak – А. Сиверса.
	Linaceae – Zig‘irdoshlar – Льновые.
Turkum	Linum L. – Zig‘ir – Лён.
Tur	L.macrorhizum Juz. – Yovvoyi zig‘ir – Л. крупнокорневой.
	L. humile Mill. – Pakana zig‘ir – Л. низкий.
	Malvaceae – Gulxayridoshlar – Мальвовые.
Turkum	Alcea L. – Baxmalgul – Шток-роза.
Tur	A. nudiflora (Lindl.) Boiss – Oq baxmalgul, gulxayri, g‘almas – Ш.р. голоцветковая.
	A. rhyticarpa (Trautv.) Iljin – To‘rmevali baxmalgul – Ш.р. сетчатоплодная.
Turkum	Althaea L. – Gulxayri – Алтеа.
Tur	A.cannabina L. – Tolali gulxayri, kanopsimon gulxayri – А. коноплёвый.
Turkum	Abutilon Hill. – Dag‘alkanop – Канатник.
Tur	A.theophrasti Medik. – G‘uzor – К. Теофраста.
Turkum	Hibiscus L. – G‘o‘zagul – Гибискус.
Tur	H.cannabinus L. – Kanopsimon bo‘ritaroq, kanop – Г. коноплёвый, кенаф.
Turkum	Gossypium L. – G‘o‘za – Хлопчатник.
Tur	G.herbaceum L. – G‘o‘za, jaydari paxta – X. травянистый.
	G.hirsutum L. – Tukli paxta – X. мохнатый.
	G.bartbadense L. – Peru paxtasi – X. барбадосский
	Apocynaceae – Kendirdoshlar – Кендиевые.
Turkum	Trachomitum Woodson – Kanop – Кендыр, Кенdir.
Tur	T. lancifolium (Russian.) Pobed. – Nashtar bargli kanop – К. ланцетолистный.
	T. scabrum (Russian.) Pobed. – Dag‘al kanop – К. шершавый.

Nazorat savollari:

1. O’zbekiston "qizil kitobi" ning yangi nashriga nechta tur o’simlik kiritilgan ?
2. O’zbekiston florasida keng tarqalgan tolali o’simlik turlari aytin?
3. Tolali o’simliklar qanday ahamiyatga ega ?
4. qaysi oila vakillarida tollali o’simliklar uchraydi ?
5. "qizil kitob"ga kirgan tolali o’simlik turlari va ularni kanday muqofaza choralar mavjud ?

6-MA’RUZA. ZIRAVOR O’SIMLIKLER ASOSIY SAVOLLAR

1. O’zbekiston florasida keng tarqalgan ziravor o’simlik turlari
2. Ziravor o’simliklarning tabiiy zaxiralari
3. Ziravor o’simliklarning xalq xo’jaligidagi ahamiyati
- 4."Qizil kitob"ga kirgan ziravor o’simlik turlari va ularni muhofaza qilish

Mavzuga oid tayanch so’z va iboralarziravor, ozuqabop, oshlovchi moddalar, alkaloidlar, glikozidlar, qandolatchilik, antiseptik bakteritsidlik ko’katlar, parfyumeriya

Ziravor o'simliklarning ozuqabopligi va to'yimliligi unchalik yuqori emas va juda kam miqdorda ovqatga mazali ta'm va xushbo'y hid berish uchun qo'shimcha sifatida ishlatiladi.

Ziravor o'simliklarning turli organlarida to'planadigan efir moylari, oshlovchi moddalar, alkaloidlar, glikozidlar va boshqa kimyoviy moddalar ishtahani ochadi, oziq moddalarning o'zlashtirilishini kuchaytiradi, moddalar almashinuvini faollashtiradi hamda keraksiz maxsulotlarning chiqarilishini ta'minlaydi.

Ziravor o'simliklar konserva va qandolatchilik sanoatida, kulinariyada, turli salatlar va marinadlar tayyorlashda, turli ichimliklarni, shokoladlarni, biskvitlarni, kremlarni, sigaretalarni xushbo'y qilishda hamda diniy udumlarda ishlatiladi.

Ba'zi ziravorlar yorqin ifodalanuvchi antiseptik va shifobaxshlilik xossalariiga egaligi uchun parfyumeriyada, sovun ishlab chiqarishda va tibbiyotda keng qo'llaniladi.

O'zbekiston florasidagi ziravor o'simliklarning ba'zi turlari ovqatga solinib yoki to'g'ridan – to'g'ri xalq tomonidan bir necha yuz yillardan beri iste'mol qilinib kelinmoqda. Abu Ali ibn Sino har xil kasalliklarga chalinmaslik uchun ko'proq sabzavot, turli ko'katlar va o'simlik maxsulotlari iste'mol qilishni ta'kidlagan va yuzlab kasalliklarni o'simliklardan tayyorlangan dorilar bilan davolagan edi.

Ba'zi ziravorlar (qalampir, xren, sarimsoq piyoz) bakterisidlik xususiyatiga ega. Su sababli tayyorlangan ovqatlarni ular yordamida uzoq saqlash mumkin. Bu davr ichida ular ovqatda mikroorganizmlarning ko'payishiga yo'l qo'ymaydi (balki ularni halok qiladi va yog'larni achib qolishiga yo'l qo'ymaydi).

Quyida xalqimiz tomonidan ko'p ishlatiladigan va tabiatda keng tarqalgan ziravor o'simliklarning ba'zilarini keltiramiz.

Alliaceae – Piyozdoshlar – Луковые.

Turkum Allium L. – Piyoz – Лук.

Tur A. talassicum Regel – Dashtpiyozi – Л. таласский.

A. oschaninii O.Fedtsch. – Oshanin piyoz – Л. Ошанина.

A. cepa L. – Osh piyoz, nush piyoz – Л. репчатый.

Ranunculaceae – Ayiqtovondoshlar – Лютиковые.

Turkum Nigella L. – Sedana – Чернушка.

Tur N. sativa L. – Sedana – Ч. посевная.

Berberidaceae – Zirkdoshlar – Барбарисовые.

Turkum Berberis L. – Zirk, qoraqand – Барбарис.

Tur B. integerrima Bunge – Qizil zirk, zirk – Б. сельнокрайний.

B. oblonga (Regel) Schneid. – Qora zirk – Б. продолговатый.

B. vulgaris L. – Oddiy zirk – Б. обыкновенный.

Capparaceae – Kovuldoshlar – Каперцовые.

Turkum Capparis L. – Kovul, kavar – Каперцы.

Tur C. herbacea Willd. – Tikanli kovul, kavar – К. колючие.

Brassicaceae – Karamdoshlar – Капустные.

Turkum Sinapis L. – Rango't – Горчица.

Tur S. alba L. – Rango't – Г. белая.

Apiaceae – Ziradoshlar – Сельдерейные.

Turkum	Carum L. – Qorazira – Тмин.
Tur	C. carvi L. – Qorazira – Т. обыкновенный.
Turkum	Mediasia M.Pimen. – Alqor – Медиазия.
Tur	A. macrophylla (Regel et Schmalh.) M.Pimen. – Yirikbarg alqor – М. крупнолистная.
Turkum	Pimpinella L. – Arpabodiyon – Бедренес.
Tur	P. peregrina L. – Xashaki arpabodiyon – Б. чужестранный
Turkum	Coriandrum L. – Kashnich – Кориандр, кишнец.
Tur	C. sativum L. – Kashnich – К. посевной.
Turkum	Bunium L. – Zira – Буниум.
Tur	B. persicum (Boiss.) B.Fedtsch. – Zira – Б. персидский.
Turkum	Anethum L. – Ukrop, shivit – Укроп
Tur	A. graveolens L. – Shivot. – У. пахучий
Turkum	Foeniculum Hill. – Oq zira – Фенхел.
Tur	F. vulgare Mill. – Oq zira – Ф. обыкновенный.
Lamiaceae – Yalpizdoshlar – Яснотковые.	
Turkum	Nepeta L. – Zufo – Котовник.
Tur	N.cataria L. – Zufo – К. кошачий.
Turkum	Dracocephalum L. – Bo‘zbosh, Ilonbosh – Змееголовник
Tur	D. intergrifolium Bunge – Butunbargli bo‘zbosh – З. сельнолистный.
Turkum	Salvia L. – Marmarak – Шалфей.
Tur	S. sclarea L. – Marmarak, hushbo‘y marmarak – ІІІ. мускатный.
Turkum	Ziziphora L. – Kiyiko‘t – зизифора.
Tur	Z. pedicellata Pazij et Vved. – Kiyiko‘t – З. цветоножечная.
	Z. clinopodioides Lam – Kiyiko‘t – З. пахучковидная.
	Z. tenuior L. – Cho‘lyalpiz xulvey, oq yalpiz – З. тонкая.
Turkum	Melissa L. – Limono‘t – Мелисса.
Tur	M. officinalis L. – Dorivor limono‘t – М. лекарственная, лимонница
Turkum	Hyssopus L. – Issop – Иссоп.
Tur	H. seravschanicus (Dubjan.) Pazij – Issop, ko‘ko‘t – И. зарафшанский.
Turkum	Thymus L. – Tog‘jambul – Тимян, чабрец.
Tur	T. seravschanicus Klok. – Tog‘jambil, kaklik o‘ti – Т. зарафшанский.
Turkum	Origanum L. – Tog‘rayhon – Душица.
Tur	O. tyttanthum Gontsch. – Tog‘rayhon, jambil – Д. мелкоцветковая.
Turkum	Ocimum L. – Rayxon – Базилик.
Tur	O. basilicum L. – Oddiy rayhon – Б. обыкновенный.
Turkum	Mentha L. – Yalpiz – Мята.
Tur	M. asiatica Boriss. – Yalpiz, Osiyo yalpizi – М. азиатская.
	M. piperita L. – Yalpiz – М. перечная.
Solanaceae – Ituzumdoshlar – Паслёновые.	
Turkum	Capsicum L. – Qalampir, garimdori – Перец.
Tur	C. annuum L. – Qalampir, garimdori – П. однолетний.
Nazorat savollari:	

1. O'zbekiston florasida keng tarqalgan ziravor o'simlik turlarini ayting?
- 2.Ziravor o'simliklarning xalq xo'jaligida qanday ahamiyati bor ?
- 3."qizil kitob"ga kirgan ziravor o'simlik turlari va ularni muqofaza qilish uchun qanday chora tadbirlar mavjud ?
Topshiriq. Sabzavot o'simliklarini tuzilishidagi muhim oila uchun xos belgilarni aniqlang. Gul a'zolarining soniga, ularning joylanishiga e'tibor bering. Meva va urug' tuzilishlaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlang. Xalq xo'jaligida ishlatilishi va foydali xususiyatlarini taxlil qiling.

O'rganish ob'ekti sifatida sabzavot o'simliklarining turkum va turlari bilan tanishib, adabiyotlar, jadval va rasmlardan foydalanib, ularning morfologik belgilariaga ahamiyat bering. Berilgan rasmlardan foydalanib Sabzavot

o'simliklarining turkum va turlari bilan tanishib, ularning umumiy ko'rinishlarini chizib oling.

Sho'radoshlar-*Chenopodiaceae* oilasiga bir yillik, ikki yillik yarim buta va kichik daraxtlar kiradi. Oila vakillarining barglari oddiy, ketma-ket, qarama-qarshi joylashgan. Gullari mayda, ko'rimsiz, Gulqo'rg'oni oddiy, 5 bo'lakli, changchilari ham 5 tadan, Urug'chisi 2-5 ta mevacha barglardan iborat. Sho'radoshlarga mansub o'simliklar asosan cho'l va yarim cho'llarda o'sadi. Bu oilaga 110 ga yaqin turkum va 1600 tur kiradi. O'zbekistonda bu oilaga mansub 176 tur o'sadi. Sho'radoshlar oilasining eng ko'p tarqalgan turlaridan biri oddiy lavlagi - *Beta vulgaris* ikki yillik o't o'simlik. Uning tarkibida 22 % qand bor, xashakli lavlagi, osh lavlagi, sabzi lavlagi, barg lavlagi kabi turlari mavjud.

Tur. Oddiy lavlagi-*Beta vulgaris*. Bu o'simlik ikki yillik bo'lib, birinchi yili urug'dan uzun bandli, har-xil shakga ega bolgan yirik, yashil, ba'zan to'q siyohrang tusdagi to'pbarglar hosil bo'lsa, yer ostki qismida oziq moddalarga boy bo'lgan, oq sariq, to'q pushti rangdagi yo'g'onlashgan ildizmeva hosil bo'ladi. Ikkinci yili to'g'ri, shohlangan, uchlari to'pgullar bilan tugovchi poya vujudga keladi. To'pgulida 2 jinsli 0-5 ta, gulqo'rg'on bargchasining qarshisida joylashgan. Urug'chisi 3 ta meva bargchadan hosil bo'lgan. Tugunchasi o'ita va bir uyli. Mevasi yong'oqcha. Gul formulasi *P₅A₅ G₍₂₋₅₎

Kartoshka-*Solanum tuberosum*. Ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, uch xil novdaga ega, ya'ni yer usti ikki hil shakli o'zgargan yer osti novdalari-tuganaklar va stolonlar. Yer ustki poyasining (novdalarining) bo'yisi 60-100 sm, shohlangan, mevalangandan keyin yotib o'suvchi. Barglari oddiy, patsimon, chuqur kesilgan. Gullari murakkab gajak to'pgulga joylashgan, aktinomorf, gul qismlari beshtali, gultojisi voronkasimon, ochbinafsha rangli. Changchilari 5 ta, changdonlari sariq, o'zaro qo'shilib o'sib nay hosil qiladi. Urugchisi ikkita mevabargchaning qo'shilib o'sishidan hosil bo'lgan, 2 uyali tugunchasi ustki, mevasi yashilrangli rezavor -meva.

Mavzuni mustahkamlash

Blits savollari

1. Qaysi oilalarda sabzavot o'simliklari ko'p uchraydi ?
2. Sabzavot o'simliklari turkum va turlarini ayting ?
3. "Qizil kitob"ga kiritilgan cabzavot o'simliklarini aniqlang ?
4. Sabzavot o'simliklarining xalq xo'jaligida qanday ahamiyati bor ?

jadval asosida

O'simlik turlari	Hayotiy shakli	Tarqalishi	Ishlatilishi

3-Amaliy mashqulot. Poliz o'simliklarining asosiy turkum va turlari bilan tanishish, ularning umumiyo ko'rinishini chizish

Kerakli jihozlar: Poliz o'simliklariga taluqli o'simliklarning gerbariy namunalari, qo'l lupasi, kollektsiyalar, jadvallar, rasmlar.

Topshiriq. Poliz o'simliklarini tuzilishidagi muhim oila uchun xos belgilarni aniqlang. Gul a'zolarining soniga, ularning joylanishiga e'tibor bering. Meva va urug' tuzilishlaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlang. Xalq xo'jaligida ishlatalishi va foydali xususiyatlarini taxlil qiling.

Qovoqdoshlar oilasi – Cucurbitaceae

Qovoqdoshlar oilasi – Cucurbitaceae. Oilaning 90 ga yaqin turkum, 700 ga yaqin turi bor. O'zbekistonda 3 ta turkumga mansub, 5 ta turi o'sadi. Hayot shakliga ko'ra, bu oila vakillari bir, ko'p yillik o'rmalab o'suvchi o'tlar, yarim buta, buta va kichik daraxtlardir. Barglari oddiy, ketma-ket joylashgan. Gullari aktinomorf, bir jinsli, bir yoki ikki uyli o'simliklar bo'lib, gulqo'rg'oni murakkab, changchilar 3 - 5 ta, urug'chisi 3 ta mevabargli, mevasi yirik, soxta, rezavorsimon qovoq meva yoki kam hollarda ko'sakcha bo'ladi.

Qovoqdoshlar oilasining o'ziga xos belgilaridan biri mevasining tashqi - ekzokarp qavatining qattiq yog'ochlashgan, mezo va endokarp qavatlarining yumshoq, suvli bo'lishidir. Urug'lari endospermsiz.

O'zbekistonda qovun (*Melo*), tarvuz (*Citrullis*), bodring (*Cucumis*), qovoq (*Cucurbita*) larning bir necha turlari ekiladi. Handalak, begona o't itqovun ham qovoqdoshlarga mansub. Oilaning vakili sifatida ekiladigan bodringning tuzilishi bilan tanishib chiqamiz. Urug'chi gul formularsi: ♀ $\text{Ca}_{(5)}\text{Co}_{(5)}\text{A}_{(3)}$ Changchi gul formularsi: *♂ $\text{Ca}_{(5)}\text{Co}_{(5)}\text{A}_{(2+2+1)}\text{G}_0$.

Ekiladigan bodring - *Cucumis sativus* L. Poyasi yer bag'irlab o'suvchi, palakli hir yillik o'simlik hisoblanadi. Poyasida oddiy gajaklari bo'lib, poya va barglari dag'al tukchalar, ilmoqchalar bilan qoplangan. Faqat madaniy ekilgan holda uchraydi, yovvoyi holdagisi noma'lum. Barglari oddiy, navbatlashib joylashgan, yuraksimon, besh bo'lakchali, o'tkir burchakli bo'ladi. Bir uyli, gullari ayrim jinsli, erkak gullari to'p bo'lib, urg'ochilari bittadan bo'lib barg qo'lting'idan chiqadi. Gulqo'rg'oni murakkab, kosachabarglari o'zaro qo'shilgan, 5 tishchali. Erkak gullarda 5 ta changchilar uch guruh bo'lib joylashgan. Urg'ochi gullardagi urug'chi 3 ta mevabargchaning qo'shib o'sishidan hosil boladi. Mevasi — cho'ziq, ko'p urug'li rezavorsimon qovoq meva

Oshqovoq (Cucurbita pepo) qovoqdoshlar oilasi (Cucurbitaceae)ga mansub bir yillik o't o'simlik. Oziq ovqat, dorivor, yem xashak o'simligi sifatida hamda karotin manbai sifatida keng ekiladi. Oshqovoqning siqib olingen suvi (xom oshqovoqning) yog'imli ta'mga ega va juda foydali. Oshqovoqdan tayyorlangan somsa, manti va boshqa taomlar ham o'zining yog'imliligi va foydaliligi bilan ajralib turadi.

Oshqovoqning urug'ida 40 % gacha moy bo'ladi, uning tarkibida palmitin, stearin, olein va boshqa kislotalarning triglitseridlari bo'ladi. Eng asosiy biologik faol moddasi kukurbitin aminobirkmasi hisoblanadi. U gelmintoz kasalliklarini davolashda juda foydali. Mevasidan (silos qilingan holatdagisidan) karotin olinadi.

Qovun-Melo orientalis (S. Kudr) Nab.- qovoqdoshlar oilasiga mansub bir yillik o't o'simlik. Bargi uzun bandli, yirik, barg qo'lting'ida gajagi bor. Turiga qarab asosan iyun oyida gullaydi. Guli ayrim, ba'zan ikki jinsli, sariq rangli. Mevasi ko'p urug'li, turli shakl va rangda 300 g. dan 15-20 kg gacha va undan ham og'ir. Tarkibida 16-18% qand, vitamin C, karotin, pektin moddalar, mineral tuzlar bor. Mevadan ho'lligida, quritib (qovun qoqi) qiyom va povidlo tayyorlab foydalanadilar. Qovun Respublikamizning hamma viloyatlarida ekiladi. Ayniqsa Xorazm qovunlarining shuhrati, asosan quyidagi to'rtta turga mansub: handalak, amiri, cassaba hamda zard.

Handalakga - ertapishar, ko'kcha, handalak, zamcha, sariq handalak, bosvoldi kabilar kiradi.

Amiriga - yozda pishadigan davlatboy, daxbehi, amiri, nongo'sht, shakarpalak, toshloqi kabilar kiradi.

Tarvuz- Citrullus vulgaris Schrad. - qovoqdoshlar oilasiga mansub, yotib o'suvchi bir yillik o't o'simlik. Palagi 3-4 m, bargi uzun, bandli, bo'lakli, o'q ildizli. Iyun oyida gullaydi. Guli ikki jinsli. Changchi gullari palakda to'p-to'p, urug'chi gullari esa yakka holda joylashadi, och sariq rangli. Mevasi avgust-sentyabrü oylarida pishadi. Yumaloq, cho'zinchoq shaklda bo'lib, rangi oq qora, ola-bula rangda bo'ladi. Tarkibida 6-11% qand, C vitamini, azotli moddalar va boshqa birikmalar bor.

O'zbekistonda tarvuzning bir qancha navlari ekiladi. Masalan, "Uzbekskiy 452", "Korol Kuba", "Mramorno'y", "Xayitqora", "Chovkari", "qo'zivoy", "Kadan" va boshqa navlar. Tarvuzdan lalmikor, baqorikor va suqoriladigan erlarga ekib hosil olinadi. Asosan mevasi uchun ekiladi. U qadimiy o'simlik. Insonlar undan o'z chanqoqini qondirish, oziqa sifatida, buyrakdag'i toshni yuvish, siyidik haydovchi maqsadlarida foydalanadilar.

Sho'radoshlar-Chenopodiaceae oilasiga bir yillik, ikki yillik yarim buta va kichik daraxtlar kiradi. Oila vakillarining barglari oddiy, ketma-ket, qarama-qarshi joylashgan. Gullari mayda, ko'rimsiz, Gulqo'rg'oni oddiy, 5 bo'lakli, changchilari ham 5 tadan, Urug'chisi 2-5 ta mevacha barglardan iborat. Sho'radoshlarga mansub o'simliklar asosan cho'l va yarim cho'llarda o'sadi. Bu oilaga 110 ga yaqin turkum va 1600 tur kiradi. O'zbekistonda bu oilaga mansub 176 tur o'sadi. Sho'radoshlar oilasining eng ko'p tarqalgan turlaridan biri oddiy lavlagi - *Beta vulgaris* ikki yillik o't o'simlik. Uning tarkibida 22 % qand bor, xashakli lavlagi, osh lavlagi, sabzi lavlagi, barg lavlagi kabi turlari mavjud.

Tur. Oddiy lavlagi-Beta vulgaris. Bu o'simlik ikki yillik bo'lib, birinchi yili urug'dan uzun bandli, har-xil shakga ega bolgan yirik, yashil, ba'zan to'q siyohrang tusdagi to'pbarglar hosil bo'lsa, yer ostki qismida oziq moddalarga boy bo'lgan, oq sariq, to'q pushti rangdagi yo'g'onlashgan ildizmeva hosil bo'ladi. Ikkinchchi yili to'g'ri, shohlangan, uchlari to'pgullar bilan tugovchi poya vujudga keladi. To'pgulida 2 jinsli 0-5 ta, gulqo'rg'on bargchasining qarshisida joylashgan. Urug'chisi 3 ta meva bargchadan hosil bo'lgan. Tugunchasi o'rta va bir uyli. Mevasi yong'oqcha.

Mavzuni mustahkamlash

Blits savollari

4. Qaysi oilalarda poliz o'simliklari ko'p uchraydi

?

2.

2. Mavzusiga oid bilimlarni faollashtirish, fikrlashni jadval asosida kengaytiring.

Poliz o'simliklari			
O'simlik turlari	Hayotiy shakli	Tarqalishi	Ishlatilishi

4- Amaliy mashqulot. Ziravor o'simliklarining asosiy turkum va turlari bilan tanishish, ularning umumiyo ko'rinishini chizish

Kerakli jihozlar: Ziravor o'simliklariga taluqli o'simliklarning gerbariy namunalari, qo'l lupasi, kollektsiyalar, jadvallar, rasmlar.

Topshiriq. Ziravor o'simliklarini tuzilishidagi muhim oila uchun xos belgilarni aniqlang. Gul a'zolarining soniga, ularning joylanishiga e'tibor bering. Meva va urug' tuzilishlaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlang. Xalq xo'jaligida ishlatilishi va foydali xususiyatlarini taxlil qiling.

O'zbekiston florasidegi ziravor o'simliklarning ba'zi turlari ovqatga solinib yoki to'qridan - to'g'ri xalq tomonidan bir necha yuz yillardan beri iste'mol qilinib kelinmoqda. Abu Ali ibn Sino har xil kasallikkarga chalinmaslik uchun ko'proq sabzavot, turli ko'katlar va o'simlik maqsulotlari iste'mol qilishni ta'kidlagan va yuzlab kasallikkarni o'simliklardan tayyorlangan dorilar bilan davolagan edi.

Ba'zi ziravorlar (qalampir, xren, sarimsoq piyoz) bakteritsidlik xususiyatiga ega. Shu sababli tayyorlangan ovqatlarni ular yordamida uzoq saqlash mumkin. Bu davr ichida ular ovqatda mikroorganizmlarning ko'payishiga yo'l qo'ymaydi (balki ularni qalok qiladi va yog'larni achib qolishiga yo'l qo'ymaydi).

Quyida xalqimiz tomonidan ko'p ishlatiladigan va tabiatda keng tarqalgan ziravor o'simliklarning ba'zilarini keltiramiz.

Ziradoshlar oilasi gulli o'simliklar orasida eng yirik va xo'jalik ahamiyati eng muhim bo'lgan oilalardan biri hisoblanadi. Turli manbalarda ularning butun dunyo bo'yicha uchraydigan, ayniqsa shimoliy yarimsharning mo'tadil va subtropik qismlarida keng tarqalgan vakillari soni 400 tagacha turkum va 3000 dan 4000 gacha turni tashkil qilishi keltiriladi.

Dorivor ukrop-Foenicum vulgare Mill. Ziradoshlar oilasiga mansub, bo'yi 90-200 sm ga etadigan ko'p yillik o'simlik. Ildiz tarmoq o'q ildiz, sarg'ish-og'imtir, asosan tuproqning haydaladigan qavatida (3-20 sm) joylashadi. Asosiy ildiz

urchug'simon, etli, uzunligi 55 sm. gacha, yon ildiz uzunligi 2,5 sm.gacha. Poyasi to'qri, dumalog', biroz g'irrali, ko'kimtir g'uborli, sershox

Ziradoshlarning gullari nisbatan bir xil tuzilishga ega. Ular, odatda aktinomorf va 5 qisqli. Har bir gul tarkibiga 5 bargli kosacha, 5 tojbargli toj, 5 changchi va 2 ustunchali urug'chi kiradi.

Ziradoshlarning tojbarglari oq, och pushti, kam hollarda to'q pushti rangli yoki sariq, yashil-sariq rangli. Tojbarg asosida ingichka, ko'pincha tirnoqcha shaklida bo'lib, plastinkaga kengayadi, ko'pchiligidagi uchi torayib, odatda gul ichiga egilgan bo'ladi va buning natijasida bargning uchi ikki yoki uch parrakli ko'rinishga ega bo'ladi.

Androsey 5 changchidan iborat. Ginesey sinkarp, 2 urug'chibargdan iborat. Tugunchaning ustki tomoni 2 asalchi bezga — stilopodiya aylangan bo'lib, ularning har biri boshchali yoki to'qmoqsimon tumshuqchali erkin stilodiy bilan tugaydi. Tugunchaning ikkala uychasida ham bittadan urug'kurtak bo'lib, odatda bitti rivojlanmay qolishi natijasida bitta urug' yetiladi. Biroq ikkala urug'kurtak yetilgan mevalar ham ko'plab uchraydi.

Ziradoshlarning mevasi visloplodnik deb ataladi va yetilganida bir qancha vaqt mevabarglarning ventral qismidan hosil bo'lган ustuncha yoki karpoforda yopishib turadigan 2 bo'lakka — merikarpiylarga ajraladi. Karpofor Hydrocotyleae va Saniculoideae kenja oilalarida bo'lmaydi. Biroq Apioideae kenja oilasida ham har doim ko'rnavermaydi.

Ziradoshlarning sistematikasida mevaning tuzilishiga alohida ahamiyat beriladi hamda bu borada maxsus atamalar ham ishlab chiqilgan. Merikarpiylarning ichki tomonini komissura deb ataladi. Ularning tashqi tomonida 5 asosiy yoki birlamchi bo'ylama qovurg'alar mavjud. Ular oralig'ida ikkilamchi qovurg'alar joylashishi mumkin. Meva po'stining o'rtalari qavati — mezokarpiyda bo'ylama yog' kanallari bo'lib, odatda ular birlamchi qovurg'alar oralig'ida va komissura tomonida joylashadi.

Shvid-Ukrop. (Anethum graveolens) ham ziravor o'simlik sifatida keng tarqalgan. Ozuqaga uning C va boshqa vitaminlarga boy bo'lган barglari ishlatiladi. Uni shuningdek sabzavotlarni konservalashda xushbo'y ziravor sifatida qo'shiladi. Mevalarining damlamalarini tibbiyotda ishtaha ochuvchi va tinchlantiruvchi vosita tariqasida qo'llaniladi.

Asosiy efir moyli o'simliklar qatoriga kashnichni (*Coriandrum sativum*) ham kiritish mumkin. Uning mevalarida 0,2-1,4% efir moyi va 28% gacha yog' mavjud. Kashnichning ildizoldi barglari va mevalari kuchli hid va o'tkir ta'mga ega bo'lib, O'rta Osiyo va Kavkaz orti mamlakatlarda qadimdan yetishtirib kelinadi. Uning mevalari kinza nomi bilan ziravor sifatida keng qo'llaniladi. Qadimgi Misrda kashnich miloddan avvalgi 1000 yildan avval madaniylashtirilgan.

Qimmatli efir moyli o'simliklar sifatida qora zira (*Carum carvi*) va anis (*Anisum vulgare*) ham o'z o'mniga ega. Ularning mevalari, ildizi va barglari ziravor sifatida, efir moylari esa tibbiyot va attorlikda qo'llaniladi.


Mavzuni mustahkamlash

1. Mashg'ulotning mavzusi, topshiriqlari bo'yicha B/BH/B - Bilaman, Bilihni hohlayman, Bilib oldim jadvalini to'ldiring.

Bilaman	Bilihni hohlayman	Bilib oldim

1. Mavzuga oid fikrlarni klaster asosida to'ldiring.

Ziradoshlar mavzusiga oid bilimlarni faollashtirish, fikrlashni klaster texnologiyasi Asosida kengaytiring.



5- Amaliy mashqulot. Vitaminli o'simliklarining asosiy turkum va turlari bilan tanishish, ularning umumiyo ko'rinishini chizish.

Kerakli jihozlar: Vitaminli o'simliklariga taluqli o'simliklarning gerbariy namunalari, qo'l lupasi, kollektsiyalar, jadvallar, rasmlar.

Topshiriq. Vitaminli o'simliklarini tuzilishidagi muhim oila uchun xos belgilarni aniqlang. Vitaminli o'simliklarning foydali xususiyatlarini, xalq tabobatida va ilmiy tabobatda ishlatilishini taxlil qiling. Ishlatilishi bo'yicha guruhlarga ajrating. Vitaminli o'simliklarga taluqli oilalarni aniqlang. "Qizil kitob" ga kiritilgan vitaminli o'simliklarni aniqlang.

Quyida xalqimiz tomonidan ko'p ishlatiladigan va tabiatda keng tarqalgan vitaminli o'simliklarning ba'zilarini keltiramiz.

Chakanda - *Hippophae rhamnoides* - kichik daraxt yoki buta. Bo'yi 2 - 5 m ga yetadi, shoxlangan, o'tkir tikanli o'simlik. Bargining uzunligi - 2 - 9 sm, eni - 3 - 15 mm. Ustki tomoni och yashil, ostki tomoni kumushsimon oq ranglidir, gullari bargi bilan bir vaqtida chiqib rivojlanadi hamda to'p bo'lib shoxlarda joylashadi. Changchi gullarining gulqo'rg'oni 2 bo'lakli, 4 changchili. Urg'ochi gullarining gulqo'rgoni 2 bo'lakli, o'rtasida bitta uzun ustuncha yetiladi. Yetilgan mevasi sershira, to'q sariq

apelsin rangli, ananas mazasini beruvchi, sharsimon yoki biroz cho'zinchoq shaklda. May oyida gullaydi, mevasi avgust-sentabr oylarida pishadi. Vitaminga boy o'simlik. Mevasini shundayligicha iste'mol qilish, undan qiyom, konserva, kisel, vino va hokazolar tayyorlash mumkin. Xalq tabobatida qon bosimini davolashda, tishni chidamli qilishda ishlatiladi. To'qayzorlarda, daryo sohillarida o'sadi.

Na'matak - Rosa canina. O'rta Osiyoda na'matakning bir necha turi o'sadi, shulardan Begger na'matagi (*Rosa beggeriana*), oddiy na'matak (*Rosa fedtschenkoana*) va Itburun (*Rosa canina*) tabobatda ishlatiladi. Bular asosan O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Qozog'istonning janubiy viloyatlarida juda ko'p uchraydi. Na'matak mevalarida vitamin C, B₂, K, P karotin, organik kislotalilar, qand moddalar, pektin moddalar, efirlari mavjud. Na'matakning gullarida efir moylari ko'proq bo'ladi. Urug'larida vitamin E topilgan. Xalq tabobatida na'matakdan qon to'xtatadigan, tinchlaniruvchi, vitaminlar etishmasligida, ayniqsa, lavsha kasalligida, tish og'riganida, tomoq og'riganda ishlatiladi.

Tutdoshlar –Moraceae oilasi

Tutdoshlar –*Moraceae* oilasiga doimiy yashil, ba'zan barglari to'kiladigan sut shirasi bor daraxt, buta yoki sut shirasiz o't o'simliklardir. Ularning barglari navbatlashib yoki qarama –qarshi joylashgan, butun, o'yilgan yoki qaychibarg bo'lib, barg qo'lting'idan chiqadi. Gullari ayrim jinsli, bir uyli yoki ikki uylidir. Gulqo'rg'oni kosachasimon, to'rt bo'lakchali. Changchisi 4 ta, urug'chisi 1 yoki 2 mevabargli, 2 tumshuqli, tugunchasi bir uyali va urug'kurtakli. Mevasi chala danakcha yoki yong'oqchadir. Bu oilaga 53 ta turkumga mansub 1400 tur kiradi. O'zbekistonda 3 ta turkumga mansub 6 ta turi bor.

Tut –*Morus*. Bu turkumiga daraxt va buta o'simliklar kiradi. Ularning barglari oddiy, to'kiladigan, butun yoki qirqilgan, chetlari arra tishli bo'ladi. Gullari bir uyli yoki ikki uyli, boshoqsimon to'pgulda joylashgan. Urug'chi ikkita meva bargchadan iborat bo'lib, tugunchasi ustki yoki ostki, bir uyali. Mevasi to'p meva. Vatani Xitoy va Markaziy Osiyo.

Tut bargi ipak qurti uchun ozuqa manbayidir. Turkumning 12 ta turi bor. Respublikamizda 2 ta turi keng tarqalgan.

Oq tut-*Morus alba*. Daraxt. Barglari yupqa, mevasi sershira shifobaxsh, keng iste'mol qilinadi. Aprel oyida gullaydi, mevasi may-iyunda pishadi. Tut mevasi xalq tabobatida qonni tozalovchi, qonni ko'paytiruvchi, siydik haydovchi vosita sifatida, yurak ishini yaxshilash va isitmani tushirish uchun qo'llaniladi.


Shotut-*Morus nigra*. Bo'yi 7-7 m li daraxt. Po'sti qizg'ish-qo'ng'ir. Bargi butun, qalin, g'adir-budur. Mevasi to'q binafsha, shifobaxsh, keng iste'mol qilinadi.

Mavzuni mustahkamlash

2. Mavzuga oid bilimlarni faollashtirish, fikrlashni Jadval asosida kengaytiring.
- 3.

Vitaminli o'simliklar				
Daraxt	Buta	Ko'p yillik	Ikki yillik	Bir yillik

2 Mavzuga oid bilimlarni faollashtirish, fikrlashni klaster asosida kengaytiring.



6-Amaliy mashqulot. Dorivor o'simliklarining asosiy turkum va turlari bilan tanishish, ularning umumiyo ko'rinishini chizish.

Kerakli jihozlar: Dorivor o'simliklariga taluqli o'simliklarning gerbariy namunalari, qo'l lupasi, kollektsiyalar, jadvallar, rasmlar.

Topshiriq. Dorivor o'simliklarini tuzilishidagi muhim oila uchun xos belgilarni aniqlang. Dorivor o'simliklarning foydali xususiyatlarini, xalq tabobatida va ilmiy tabobatda ishlatilishini taxlil qiling. Ishlatilishi bo'yicha guruhlarga ajrating. Dorivor o'simliklarga taluqli oilalarni aniqlang. "Qizil kitob" ga kiritilgan dorivor o'simliklarni aniqlang.

Quyida xalqimiz tomonidan ko'p ishlatiladigan va tabiatda keng tarqalgan ziravor o'simliklarning ba'zilarini keltiramiz.

***Achillea millefolium* L. - Oddiy bo'yymadaron.**

Achillea millefolium L. - Oddiy bo'yymadaron *Asteraceae (Compositae)* Murakkabguldoshlar oilasiga kiradi. Ko'p yillik, bo'yi 20-50 (ba'zan 80) sm ga yetadigan o't o'simlik. Ildizpoyasi shoxlangan bo'lib, yer ostki novda hosil qiladi. Bunday novdadan ildizoldi barglar va poyalar o'sib chiqadi. Poyasi bir nechta, tik o'suvchi, yuqori qismi shoxlangan bo'lib, ular qalqonsimon gul to'plamlari bilan tamomlanadi. Bargi oddiy, ikki marta patsimon ajralgan bo'lib, poyada bandsiz ketma-ket o'rashgan. Gullari savatchaga to'plangan. Savatchalari o'z navbatida qalqonsimon to'p gulni tashkil etadi. Mevasi- yassi, tuxumsimon, kulrang pista.

Iyun oyidan boshlab yoz oxirlarigacha gullaydi, mevasi avgustdan boshlab yetiladi.

Geografik tarqalishi. O'simlik keng tarqalgan bo'lib, o'rmon o'rmon-cho'l va cho'l hududlarida hamda tog'li tumanlarda (tog' etaklaridagi tekisliklarda, yonbag'rlarda) ochiq yalangliklarda va quruq o'tloqlar, qirlar, yo'l yoqalari, o'rmon chetlari va boshqa yerlarda o'sadi.

Mahsulot tayyorlash. O'simlik gullaganda (poyasining yuqori qismidan gul va barglari bilan birga) o'roq bilan o'rib olinadi. Ba'zan ildiz oldi to'pbarglar alohida yig'iladi. Soya yerda quritiladi.

Mahsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor mahsulot o'simlikning yer ustki qismidan (poyaning yuqori qismidan, bargdan va gul to'plamlaridan hamda ba'zan ildiz oldi to'pbarglardan) iborat. Poyasi biroz qirrali, siyrak bargli, kulrang-yashil tusli bo'lib, uzunligi 15sm. Bargi tukli, kulrang-yashil, ikki marta patsimon ajralgan. Barg plastinkasining bo'lagi (segmenti) lansetsimon yoki chiziqsimon bo'lib, 3-5 juft, tishli bo'lakchaga qirqilgan. Gullari savatchaga to'plangan. Savatchalar o'z navbatida qalqonsimon to'pgulni tashkil etadi. Savatcha mayda, tuxumsimon, 3-4 mm uzunlikda bo'lib, tashqi tomonidan o'rama barg bilan qoplangan. Savatcha chetidagi gullar oqish, ba'zan och pushti rangli, tilsimon, o'rtasidagi gullari esa naychasimon. Mahsulotning o'ziga xos xushbo'y hidi va achchiq mazasi bor.

Kimyoviy tarkibi. O'simlik tarkibida karotin, K va C vitaminlar, axillein va betonitsin alkaloidlari, 0,8% gacha efir moyi, matrikarin izomeri, millefin laktoni, 0,31% xolin, asparagin, smola, oshlovchi, achchiq (proxamazulen- axillin) va boshqa moddalar bo'ladi.

Ishlatilishi. O'simlikning dorivor preparatlari me'da-ichak (me'da yarasi va gastrit hamda shilliq qavatining yallig'lanishi) kasalliklarni davolash, ishtaha ochish va qon to'xtatuvchi dori sifatida (ichakdan, bachadondan va gemmoroidal qon oqishi) hamda burun, milk va yaralar qonaganda uni to'xtatish uchun ishlatiladi.

***Plantago major* L. - Katta zubturum.**

Plantago major L.- Katta zubturum. Zubturumdoshlari – *Plantaginaceae* oilasiga kiradi. Zubturum ko'p yillik, kalta va yo'g'on ildizpoyali o't o'simlik. Ildizpoyasining yuqori tomonidan (yer ustida) uzun, qanotli bandli ildiz oldi to'pbarglar, pastki tomonidan esa (yer ostida) juda ko'p mayda ildizlar o'sib chiqqan bo'ladi. Ildiz oldi to'pbarglari keng ellipssimon yoki keng tuxumsimon, tekis qirrali va yirik bo'ladi. Gul o'qi bitta yoki bir nechta, tuksiz bo'yi 10-45 sm. Gullari oddiy boshoqqa to'plangan. Guli mayda, ko'rimsiz. Gulkosachasi to'rt bo'lakka qirqilgan, gultojisi och qo'ng'ir rangli, to'rt bo'lakli otaligi 4 ta, onalik tuguni ikki xonali, yuqoriga joylashgan. Mevasi tuxumsimon, ko'p urug'li ko'sakcha. May-iyun oylarida gullaydi.

Geografik tarqalishi. Yo'l yoqalarida, dalalarda, ekinzorlarda, o'tloqlarda o'rmon chetlarida, ariq bo'ylarida hamda boshqa nam yerlarda o'sadi.

Maxsulot tayyorlash. O'simlik bargi yil bo'yi yig'iladi. Yupqa qilib yoyib, soya yerda quritiladi yoki quritmay ishlatiladi.

Maxsulotning tashqi ko'rinishi. Tayyor maxsulot kalta bandli barglardan tashkil topgan. Bargi keng tuxumsimon yoki keng ellipssimon tekis qirrali, tuksiz, 5-9 ta yoysimon asosiy tomirla, uzunligi 12 sm, eni 8 sm. Barg terib olingandan keyin uzulib qolgan tomirlar qora ipga o'xshab barg bandi qoldig'idan osilib turadi. Mahsulot hidsiz achchiqroq mazali.

Kimyoviy tarkibi. O'simlik tarkibida aukubin (rinantin) glikozidi, achchiq, shilliq va oshlovchi moddalar, flavanoidlar (apeginin, gomoplantagenin, lyuteolin va skutellyarein glikozidlari va boshqalar), karotin hamda askorbin, limon kislotalar, faktor T va vitamin K bo'ladi.

Ishlatilishi. Zubturum o'simligining dorivor preparatlari yallig'lanishga qarshi va balg'am ko'chiruvchi vosita (barg damlamasi) sifatida, me'da ichak kasalliklari (surunkali gipotsidli gastrit, normal va kam kislotalik sharoitidagi me'da –o'n ikki barmoq ichak yarasi)ni, surunkali va tuzalishi qiyin bo'lgan kolit hamda yaralarni (quritilmagan bargi va bargizubturumning quritilmagan yer ustki qisminingshiralarini birgalikda) davolashda qo'llaniladi.

Shuvoq-Artemisia. Turkumiga ko'p yillik, bir yillik o'tlar va yarim butalar kiradi. Shuvoqlar turkumining 500 ga yaqin, turi bo'lib, O'zbekistonda 40 dan ortiq turi o'sadi. Shuvoqlarning hamma turlarida efir moylari bo'ladi.

Ermon-A.absinthium. Kumushsimon tuklar bilan qoplangan ko'p yillik o't o'simlik. O'zbekistonda ariq bo'ylarida, yo'l yoqalarida va tog' yonbaqirlarida o'sadi. Barglari va yer ustki qismi tibbiyotda ishtaha ochuvchi va ovqat hazm qilishni yaxshilaydigan dorivor sifatida ishlatiladi.

Tirnoqgul -Calendula officinales. Erta bahordan boshlab yoz bo'yи gullaydigan bir yillik o't. Tirnoqgul manzarali o'simlik sifatida O'zbekistonda maxsus xo'jaliklarda va shaxsiy tomorqalarda ekiladi. O'simlikning guli xalq tabobatida va ilmiy tibbiyotda dorivor sifatida ko'p ishlatiladi.

Andiz-Inula. Turkumi vakillari ko'p yillik o't o'simliklar. Turkum 100 ta turdan iborat. Markaziy gullari naychasimon, ikki jinsli, sariq rangli. Andizlarning 9 ta turi O'zbekistonda o'sadi. Sariq andiz -*Inula grandis*. Tog' etaklarida tarqalgan. Ildizidan turli kasalliklarni davolashda foydalaniladi.

Mavzuni mustahkamlash

Blits savollari

7. Qaysi oilalarda dorivor o'simliklari ko'p uchraydi ?
8. Dorivor o'simliklari turkum va turlarini ayting ?
9. "Qizil kitob"ga kiritilgan dorivor o'simliklarini aniqlang ?
4. Dorivor o'simliklarining xalq xo'jaligida oandav ahamivati bor ?

и жадвал асосида

Dorivor o'simliklar

O'simlik turlari	Hayotiy shakli	Tarqalishi	Ishlatilishi

7-Amaliy mashg'ulot. Saponinli o'simliklarining asosiy turkum va turlari bilan tanishish, ularning umumiy ko'rinishini chizish.

Kerakli jihozlar: Saponinli o'simliklariga taluqli o'simliklarning gerbariy namunalari, qo'l lupasi, kollektsiyalar, jadvallar, rasmlar.

Topshiriq. Saponinli o'simliklarini tuzilishidagi muhim oila uchun xos belgilarni aniqlang. Dorivor o'simliklarning foydali xususiyatlarini, xalq tabobatida va ilmiy tabobatda ishlatilishini taxlil qiling. Ishlatilishi bo'yicha guruhlarga ajrating. Saponinli o'simliklarga taluqli oilalarni aniqlang. "Qizil kitob" ga kiritilgan saponinli o'simliklarni aniqlang.

Quyida xalqimiz tomonidan ko'p ishlatiladigan va tabiatda keng tarqalgan saponinli o'simliklarning ba'zilarini keltiramiz.

Saponin - ko'piruvchi degan ma'noni anglatib, o'simliklardagi moddalar almashinuvining qosilasi hisoblanadi. Saponin o'simliklarning turli organlarida, ko'proq urug' va ildizlarida to'planadi.

Ulardan sanoatning har xil tarmoqlarida, ayniqsa, to'qimachilikda shoyi hamda jun matolaridan yasalgan buyumlarni yuvuvchi vosita sifatida, rangli metallurgiyada, o't o'chirishda va penobetonlar tayyorlashda, meditsinada siyidik haydovchi, kayf qildiruvchi vosita qisoblanib, revmatizmni davolashda hamda gomeopatiyada ishlatiladi.

Tarkibida saponin saqlovchi noyob o'simliklarga O'zbekiston "qizil kitobi"ga kiritilgan Caryophyllaceae - Chinniguldoshlar oilasidan Kachimsimon etmak (Acanthophyllum gypsophiloides Regel) ni xamda qomqoq (A. pungens (Bunge) Boiss.) ni keltirish mumkin. Etmakdan to'qimachilik, mo'ynachilik, qandolatchilik sanoatlarida, tabobatda foydalaniadi.

Chinniguldoshlar (Caryophyllaceae) oilasiga 80 ta turkum mansub. 200 ta tur o'simlik kiradi. O'zbekistonda 24 turkumga oid 122 turi o'sadi.

Bu oilaning vakillarining tarkibida saponin, glyukozid kabi zaqarli moddalar bor. Gullari chiroqli bo'lganligi uchun manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi. Ko'pchilik vakillari begona o't hisoblanadi.

Bo'ritikan - Gipsofilanamo bo'ritikan, etmak - Acanthophyllum gysophyloides - ko'p yillik o't o'simlik ildizi yo'qon. Bo'yi 40-60 sm. Barglari qalami yoki lantsentsimon-qalami, uchi o'tkir, tikansiz. Gullari mayda, ro'vaksimon to'pgulga yiqilgan. Iyun-iyulü oylarida gullab urug'laydi. Adir va tog' etaklari toshli yon baqirlarida o'sadi. Bu o'simliklarni ildizlaridan ko'p miqdorda saponin (etmak) olinib, nisholda tayyorlashda, qandolat sanoatida ishlatiladi. Usovun o'rnda ham ishlatiladi.

Мавзуни мустаҳкамлаш

1. Mavzuga oid bilimlarni jadval asosida toldiring.

Saponinli o'simliklar			
O'simlik turlari	Botanik xususiyatlari	Ahamiyati	Yashash muhiti va tarqalishi
8-			

Амалий машғулот

Efir moyli o'simliklarining asosiy turkum va turlari bilan tanishish, ularning umumiyo ko'rinishini chizish.

Kerakli jihozlar: Efir-moylii o'simliklariga taluqli o'simliklarning gerbariy namunalari, qo'l lupasi, kollektsiyalar, jadvallar, rasmlar.

Topshiriq. Efir-moyli o'simliklarini tuzilishidagi muhim oila uchun xos belgilarni aniqlang. Efir-moyli o'simliklarning foydali xususiyatlarini, xalq tabobatida va ilmiy tabobatda ishlatilishini taxlil qiling. Ishlatilishi bo'yicha guruhlarga ajrating. Efir-moyli o'simliklarga taluqli oilalarni aniqlang. "Qizil kitob" ga kiritilgan saponinli o'simliklarni aniqlang. Efir moyli o'simliklarining asosiy turkum va turlari bilan tanishib, ularning umumiyligi ko'rinishlarini chizing.

Quyida xalqimiz tomonidan ko'p ishlatiladigan va tabiatda keng tarqalgan efir-moyli o'simliklarning ba'zilarini keltiramiz.

Yalpizzoshlar-Lamiaceae oilasi

Bu oilaga 200 turkum, 3500 tur kiradi. O'zbekistonda 38 turkumga oid 214 turi o'sadi. Oila vakillarining poyasi 4 qirrali. Barglari oddiy, poyada qarama-qarshi joylashgan. Gultojibarglari ikki labli, ustki labi 2 ta, ostkisi 3 ta gultojibargdan iborat. Changchilari 4 ta, ba'zan 2 ta. Urug'chisi 2 ta mevabargli, mevasi yong'oqcha. Bu oila vakillari efir moylariga boy, ba'zi vakillari sanoatda ishlatiladi. Ba'zi turlari ovqat mazasisini yaxshilashda ishlatiladi. Moy beruvchi va manzarali o'simlik sifatida ekiladi. Begona o't sifatida o'sadigan vakillari ham ko'p. Yalpiz (*Mentha*) ko'p yillik, ba'zan bir yillik xushbo'y o't o'simlik. Gultojisi aktinomorf. Zax yerlarda, ariq va kanal bo'ylarida tarqalgan. Yalpizning O'zbekistonda 45 turi o'sadi. O'zbekiston florasida Osiyo yalpizi (*Mentha asiatica*) keng tarqalgan. Dala yalpizi (*Mentha arvensis*) va jingalak yalpiz (*Mentha erispe*) ekiladi. Yalpiz tarkibida efir moylari mavjud bo'lib, uning 41-65% ni mentol tashkil etadi. Mentol tibbiyotda atir-upa tayyorlashda, oziq-ovqat sanoatida ishlatiladi. Yalpiz tish og'rig'ini, bosh og'rig'ini, qorin og'rig'ini davolashda ishlatiladi.

Bu oilaga Limono't-*Melissa*, Jambil-SatuAsosiy savollar, Tog'jambil-*Thymus*, Issop -*Hyssopus*, Tog'rayhon-*Origanum*, Devortagio't-*Marrubium*, Arslonquloq - *Leonurus*, Bozulbarg-*Lagocheilus* ham kiradi.

Mavrak-*Salvia*. Ko'p yillik o't yoki chala buta. O'rta Osiyo tog'larida keng tarqalgan. Gullari ikki labli, changchilari ikkita. O'zbekistonda 15 turi o'sadi.

Rayhon-*Osimum basilicum*. Bir yillik o't o'simlik bo'lib, oq rayhon, qora rayhon, osh rayhon turlari juda mashqurdir. Rayhon manzarali va zirovar o'simlik sifatida ekiladi.

Qo'ziquloq-*Phlomis*. Ko'p yillik o'simlik bo'lib, tog' va tog' etaklarida keng tarqalgan.

Kiyik o't -*Ziziphora*. O'zbekistonda 7 xil turi tarqalgan. Ular ko'p yillik va bir yillik o'tlardan iborat. Kiyik o't tarkibida efir moylari ko'p bo'lgani uchun, ulardan dorivor va zirovar o'simlik sifatida foydalilaniladi.

Turkum. Yalpiz - *Mentha L.*

Tur. Dala yalpiz - *Mentha arvensis L.*

Dala yalpiz - *Mentha arvensis L.* O'zbekistonda 45 turi o'sadi. Yalpiz ko'p yillik o't o'simlik. Poyalari tik o'suvchi, to'rt qirrali, shoxlangan, balandligi 30-100 sm. Barglari lantsetsimon yoki cho'ziq-tuxumsimon, o'tkir uchli, arrasimon yoki tishsimon qirrali bo'lib, poya va shoxlarida qisqa bandi yordamida qarama-qarshi (shoxlari ham) o'rashgan. Gullari poya uchida xalqasimon to'pgulni tashkil etgan.

Mevasi tuxumsimon sillik, to'rtta yong'oqcha. Iyun - avgust (qalapir yalpiz avgust - oktyabr) oylarida gullaydi, mevasi iyul - sentyabrdan etiladi.

Tur. Osiyo yalpizi - Menthe azatica

Osiyo yalpizi ko'p yillik o't. Bo'yi 60-100 sm. Poyasi to'rt qirrali, tik o'suvchi, shoxlangan va tuklar bilan qoplangan. Bargi lantsetsimon yoki cho'ziq arrasimon qirrali, o'tkir uchli, bandsiz yoki qisqa bandi bilan poyada qarama-qarshi joylashgan. Gullari poya uchida halqasimon to'pgulni tashkil etgan. Mevasi -tuxumsimon silliq, to'rtta yong'oqcha. Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi iyul-sentyabrdan etiladi. Xalq tabobatida yalpiz qadimdan ovqat hazm bo'lishini yaxshilash, ko'ngil aynishi, oddiy va qon aralash quisishni to'xtatish, qon oqishini to'xtatish va organizmdan gjijalarni tushirish uchun qo'llaniladi. Ularning bargini o'z vaqtida Ibn Sino ham shu va boshqa kasalliklarni (qobirg'alardagi va ichaklardagi og'riqlarni to'xtatish, me'dani mustahkamlash, qontalashlar, siydik va o't-safro haydash, bosh og'riqini qoldirish, terlatuvchi vosita sifatida hamda boshqalarni) davolashda ishlatgan.

Ovqatga yalpiz turlarining bargi ziravor o'simlik sifatida ishlatiladi. Yalpizni yangi uzilgan holida boshqa ko'katlar bilan birga ovqatdan oldin dasturxonga qo'yiladi. Ular ovqatga yog'imli, ishtaqa ochuvchi xushbo'y hid beradi va qovurilgan go'shtli taomlarning ta'mini yaxshilaydi. Yalpiz bargini dimlangan karam, sabzi, ko'k no'xot, turli meva va sabzavotlardan tayyorlangan suyuq ovqatlarga, marinadlar, garnirlarga hamda go'sht va baliqli taomlarga yalpiz bargi solinadi.

Yalpiz bargi va uni efir moyidan sovuq ichimliklar, likyor hamda mappasi, kanfet, pryanik, pechene va boshqa qandolat (konditer) mahsulotlarini tayyorlashda foydalilanadi.

Hozirgi vaqtida yalpiz bargidan tayyorlangan qaynatma yoki uning shirasi tabobatda o't (siydik va jigarning boshqa kasalliklarida) va siydik (istisqo, buyrak va siydik yo'llari tosh kasalligida) haydovchi, balg'am ko'chiruvchi (yo'tal va ko'krak og'riqida), organizmdan gjijalarni tushiruvchi va chanqoqni bosuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Yalpiz efir moyining kristall qismi - mentolning moyidagi eritmasini burun yallig'lanishi - tumov (rinit) va burun bitib qolganda (burun bilan nafas olish qiyplashganda) burunga, quloq shamollab og'riganda quloqqa tomiziladi. Mentolning moyidagi eritmasi yana tomoq va nafas olish yo'llari hamda tish og'riqiga davo qilinadi. Mentoldan boshning qattiq og'riqi - migrenni davolashda qo'llaniladigan migren qalami tayyorlanadi. Mentol nafas yo'llari kasalligida ishlatiladigan ingofen va stenokardiyani davolashda qo'llaniladigan validol preparati tarkibiga kiradi.

Farmatsevtika amaliyotida yalpiz suvi yordamida ba'zi suyuq dori turlarining yog'imsiz hid va mazasi yaxshilanadi. Yalpiz bargi tinchlantiruvchi, o't haydovchi, me'da kasalliklarida qo'llaniladigan yig'malar - choylar tarkibiga kiradi. Xalq tabobatida bu o'tning qaynatma va damlamalari melanxoliyada, ovqat hazmi buzilgan mahallarda, asab sistemasini mustahkamlash va yurak ishini quvvatlash uchun, shuningdek, siydik el haydaydigan, terlatadigan, og'riq qoldiradigan, talvasalarga qarshi vosita tariqasida qo'llaniladi .

Turkum. Limono't - Melissa L.

Tur. Dorivor limono't - Melissa officinalis L.

Dorivor limono't - Melissa officinalis L. Yokimli limon hidi kelib turadigan, mayin tuklar bilan qoplangan ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Ildizpoyasi juda shoxlab o'sib,

yer tagidan novdalari bo'ladi. Poyasi to'rt qirrali, sershox, bo'yi 120 sm gacha boradi, tukli va barglari qarama-qarshi joylashgan, bandli, tuxumsimon shaklda pastki tomoni tuklar bilan qoplangan, uzunligi 8 sm gacha boradi, gullari uchki barg qo'lltig'laridan chiqadi, uzun bandli bo'lib, gul tojisi oq, tashqi tomondan siyrak tuklar bilan qoplangan. Mevasi deyarli uch qirrali, to'q jigarrangli 4 ta cho'zinchoq yong'oqcha.

Iyun - avgustda gullaydi, mevalari iyul - avgustda etiladi. Limono't preparatlari yurak ishiga yaxshi ta'sir o'tkazadi, hansirash, taxikardiya xurujlarini (yurakning birdan tez-tez urib ketish xillarini), yurak sohasidagi og'riqlarni kamaytiradi, qon bosimini pasaytiradi. Bolgariyada limono'tdan og'riqni qoldiradigan, tinchlanadiradigan, ishtahani ochadigan va quşishga qarshi ta'sir qiladigan vosita tariqasida foydalaniladi.

Limono'tni asablar bo'shlig'i, bosh og'rig'i (migren), podagra, kamqonlik, uyqusizlikda, arterial gipertoniya, aterosklerozda, shuningdek, badanga toshma toshganida, chipqon chiqqanida, stomatitlarda ishlatish tavsiya etiladi.

Zamonaviy tabobatda limono'tning efir moyi xuddi valerianaga o'xshab tinchlaniruvchi ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.

Oila - Elaeagnaceae - Jiydadoshlar

Turkum - Elaeagnus L.- Jiyda

Tur - E. angustifolia L. - Ingichka bargli jiyda

Bo'yi 3-8 metrgacha etadigan daraxt. Yosh novdalari va bargi oq-kumush rang. Barglari nashtarsimon yoki elipssimon-nashtar shaklida. Gullari hidli, 4 bo'lakli, 4 changchili. May oyida gullab sentyabr-oktyabrda mevasi pishadi.

lantsetsimon. Gulsoz barglari oqish sariq yoki ko'kimtir, to'g'ri nayli. Ustki lab uzun tortgan, teskari tuxumsimon, pastkisi uch bo'limali. Androtsey ikki yoki to'rt changchili, ginetsey ikkita meva bargidan shakllangan, bir urug'murtakli.

Mavzuni mustahkamlash

1. Toifalash jadvali asosida Yalpizdoshlar oilasiga mansub efir-moyli o'simliklarni sharhlang.

2.

Yalpizdoshlar oilasi		

9-Amaliy mashqulot. Oshlovchi o'simliklarining asosiy turkum va turlari bilan tanishish, ularning umumiyo ko'rinishini chizish.

Kerakli jihozlar: Oshlovchi o'simliklariga taluqli o'simliklarning gerbariy namunalari, qo'l lupasi, kollektivalar, jadvallar, rasmlar.

Topshiriq. Oshlovchi o'simliklarini tuzilishidagi muhim oila uchun xos belgilarni aniqlang. Oshlovchi o'simliklarning foydali xususiyatlarini, xalq tabobatida va ilmiy tabobatda ishlatilishini taxlil qiling. Ishlatilishi bo'yicha guruhlarga ajrating. Oshlovchi o'simliklarga taluqli oilalarni aniqlang. "Qizil kitob" ga kiritilgan oshlovchi o'simliklarni aniqlang. Oshlovchi o'simliklarining asosiy turkum va turlari bilan tanishib, ularning umumiy ko'rinishlarini chizing.

Quyida xalqimiz tomonidan ko'p ishlatiladigan va tabiatda keng tarqalgan oshlovchi o'simliklarning ba'zilarini keltiramiz.

Oshlovchi o'simliklardan olinayotgan tanid hamda tanin moddalari teri oshlash sanoatida, ilmiy hamda xalq tabobatida dori - darmonlar ishlab chiqarish manbai hisoblanadi. Bاليqchilik sanoatida baliq ovlaydigan asbob uskunalar hamda ov to'rlariga ishlov berilsa, ular tez chirimaydi, uzoq vaqt chidamli bo'ladi.

Oila - Poligonaceae - Torondoshlar

Turkum - Rumex L. - Otquloq

Tur - R. cangulomeratus Murr. - qizqish otquloq

Torondoshlar oilasiga ko'p yillik, bir yillik, buta, yarim buta ba'zan daraxtlar kiradi. Gullari aktinamorf, gulqo'rkon barglari 3-6 ta changchilari 5 tadan 9 tagacha, urug'chisi 2-3 ba'zan 4 meva bargli. Mevasi yong'oqcha.

Bu oilaga 35 ga yaqin turkum, 100 tur kiradi.

O'zbekistonda 7 turkumga mansub 120 ta turi o'sadi.

Rumex cangulomeratus Murr. - Qizish otquloq ko'p yillik o't. Bo'yi 50-100 sm. Poyasi qizg'ish, tarvaqaylab shoxlangan. May-iyun oylarida gullab, iyun-iyulda urug'laydi. Daryo va ariq bo'ylari. Botqoqliklar, yo'l yoqalari hamda ekinzorlar chetida begona o't sifatida o'sadi. Bu o'simlikning hamma qismlari o'ziga xos nordon mazali, yer ustki qismlarini ham ishlatish mumkin.

Xalq tabobatida bu o'simlikning gullari, urug'lar, barglari, ildizlari va yangi olingan suvidan foydalaniadi. Ibn Sino bu o'simlikdan ich ketarga davo qilishda ishlatgan. Urug'larini suv yoki musallas bilan ichilsa ichakdag'i yaralar hamda ichsurishda davo qilishda, sharopga solib damlangan urug'lari esa siyidik toshlarini maydalaydi. Oshlovchi o'simlik sifatida ham ko'p ishlatiladi.

Turkum - Atraphaxis L. - Tuyasingren

Tur - A. virgata Krassn.- Chiviqsimon tuyasingren

A. virgata Krassn. - Chiviqsimon tuyasingren tarvaqaylab shoxlangan, tikansiz buta yoki butacha. Novdalari ingichka, chiviqsivon, rovaksimon, shoxlangan. Barglari 12-30 mm, eni 5-12 mm, chiziq elipssimon.

To'p guli shoxchalar ichida o'rnashgan. Uzun gullari siyrak. May-iyun oylarida gullab urug'laydi. Tog' yonbag'irlari va qurug' o'zanlarda o'sadi. Oshlovchi o'simlik sifatida ishlatiladi.

Turkum - Rheum L.- Rovoch

Tur - Rh. maximowiczii Losinsk. - Maksimovich rovochi

Maksimovich rovochi ko'p yillik o't. Bo'yi 40-100 sm. Poyasi dag'al, tubi zangsimon qo'ng'ir, barg qini bilan o'ralgan. Barglari faqat ildiz oldiga joylashgan. Barg plastinkasi butun, ustida ortiqlar bor; uzunligi 40-50 sm, eni 20-60 sm. Tog' yon

bag'irlarida o'sadi. May-iyul oylarida gullab, urug' beradi. Ildizi teri oshlashda ishlatiladi.

Ibn Sino fikriga qaraganda ravoch bachadondan qon ketayotgan mahalda, astma kasalligi, ichak yallig'lanishi, buyrak, qovuq kasalliklarida, ancha naf beradi.

Ibn Sino ravoch ichak yallig'lanishi, buyrak qovuq kasalliklarida, astmada ishlatgan. Ravoch ildizini po'stidan tozalab, to'g'rab, quritiladilar va sutga solib damlanadi, ko'pgina ichki kasalliklaraga davo o'rnida ichiladi

Toldoshlar-Salicaceae oilasi. Bu oilaga 3 turkumga mansub 400-420 tur kiradi. Ular daryo bo'yalarida, to'qaylarda, ariq qirg'oqlarida, suv serob joylarda o'sadi. Bu oilaga mansub o'simliklar qishda bargini to'kib turadi. Oilaning eng keng tarqalgan turkumlari tol, terak, turang'il hisoblanadi.

Tol -*Salix*. 350-370 turni, terak (*Populus*) 50-60 turni o'z ichiga oladi. Ular daraxt va butalardan tashkil topgan. Bular orasida majnuntol (*Salix babulonica*), qoratol (*S.excelsa*), turang'a (*Populus pruinosa*), Baxofen teragi (*P. bachoferii*), oq terak (*P. alba*), qora terak (*P.nigra*). Barglari oddiy, butun, gullari bir jinsli, ikki uyli. Shuningdek, gulqo'rg'oni yo'q. Tollarda changchilar 2 ta, teraklarda 6-40 ta, urug'chisi 2 ta mevacha bargning qo'shilib o'sishidan hosil bo'lgan. Mevasi senokarp.

Oq tol - *Salix alba*. Daraxt bo'y - 10 - 15 m. Barglari yirik, ingichka lansetsimon, o'tkir uchli, chetlari mayda, arra tishli. ustki tomoni to'q - yashil, osti kulrang, har ikkala tomoni tukli. Kuchalasi barglari bilan bir vaqtida hosil bo'ladi. Aprel-may oylarida gullab urug'laydi. Yovvoyi holda daryolar bo'yida o'sadi. Manzarali daraxt sifatida ko'p ekiladi. Oshlovchi o'simlik sifatida ishlatiladi.

10-Amaliy mashg'ulot. Manzarali o'simliklarining asosiy turkum va turlari bilan tanishish, ularning umumiyo ko'rinishini chizish.

Em-xashak o'simliklarining asosiy turkum va turlari bilan tanishish, ularning umumiyo ko'rinishini chizish

Kerakli jihozlar: Manzarali o'simliklar va yem-xashak o'simliklariga taluqli o'simliklarning gerbariy namunalari, qo'l lupasi, kolleksiyalar, jadvallar, rasmlar.

Topshiriq. Manzarali o'simliklar va yem-xashak o'simliklarini tuzilishidagi muhim oila uchun xos belgilarni aniqlang. Manzarali va yem-xashak o'simliklarning foydali xususiyatlarini, xalq tabobatida va ilmiy tabobatda ishlatilishini taxlil qiling. Ishlatilishi bo'yicha guruhlarga ajrating. Manzarali va yem-xashak o'simliklarga taluqli oilalarni aniqlang. "Qizil kitob" ga kiritilgan manzarali va yem-xashak o'simliklarni aniqlang. Manzarali va yem-xashak o'simliklarining asosiy turkum va turlari bilan tanishib, ularning umumiyo ko'rinishlarini chizing.

Quyida xalqimiz tomonidan ko'p ishlatiladigan va tabiatda keng tarqalgan manzarali va yem-xashak o'simliklarning ba'zilarini keltiramiz.

Qaraqay *Pinus L. turkumi*. Qaraqay turkumiga 100 ga yaqin turga ega tabiiy sharoitda Azarbajxon bilan Gruziyada o'suvchi (eldar qaraqayi) qurg'oqchillikka chidamliligi uchun O'zbekistonning ko'pchilik shaharlarida manazarali daraxt sifatida o'stiriladi. Qaraqay doimo yashil daraxt. Subtropik iqlim mintaqalarida

qarag'ay turlari tog'li o'lkalarda o'sadi va o'z arealida aralash yoki sof o'rmonlarni hosil qiladi. Bu turkumning oddiy qarag'ay -*Pinus sylvestris*, Sibir qarag'ayi-*P.sibirica* kabi turlari keng tarqalgan. Qrim va Kavkazda -kavkaz qaraqayi o'sadi. Oddiy qaraqay-*P.sylvestris*ning areali keng hisoblanadi. O'rta va Shimoliy Evropadan Shimoliy Osiyoga qadar tarqalgan. U muqit sharoitini tanlamaydi. Janub sharoitida tog'li hududlarda, qumloq daryo sohillarida, botog'oqliklarda o'rmon hosil qiladi. Yorug'sevlar poyasi tik o'sadi, balandligi 20-40 m. Po'stloqi qizg'ish -qo'ng'ir. Urug'i yordamida ko'payadi.

Sarv-(kiparis)- *Cupressus* turkumi 15-20 ta turga ega, balandligi 30-50 m, bir uyli daraxt va buta o'simlik. O'rta Yer dengizining atrofida, Ximolay, Janubiy Xitoy va Amerikada tarqalgan. Qrim, qora dengiz qirg'oqlarida ayrim turlari O'zbekistonda ham manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi. Doimiy yashil sarv - 30 m.li, 2000 yilgacha umr ko'radi. O'zbekistonda piramidasimon sarv Toshkent, Samarqand, Farqona vodiysida uchraydi.

Tuya-Thuja) turkumi bir uyli daraxt va butalardan iborat bo'lib, 6 turga ega. Shulardan G'arb tuyasi (*Thuja occidentalis*) asosan Xitoyda tarqalgan. Manbalarda ko'rsatilishicha Sharq tuyasi Sarv O'rta Osiyoda muqaddas daraxt sifatida o'stirilgan.

Archa -*Juniperus* turkmiga 14 ta tur kiradi. SNG florasida 21 turi uchraydi. Shundan 3 ta turi Zarafshon archasi-*Jynipyerus zezavschanica* yarim sharsimon va Turkiston archasi (*Jynipyerus turkistanica*) O'zbekistonning tog'li hududlarida tarqalgan. Bundan tashqari eng chiroqli archalardan Virgin archa (*J.virginiana*) bo'yli 15-30 m balandlikda, manzarali o'simlik sifatida respublikamizning shaharlarida o'stirilmoqda. Qrim va Kavkazning janubiy qirg'oqlarida o'stiriladi, yog'ochi engil, yumshoq bo'lib, qalam, yog'ochsuzlikda ishlataladi. Zarafshon savr archalaridan O'rta Osiyo xalqlari qadim zamonlardan pistako'mir olishda ishlatganlar. Archalar ikki uyli, ayrimlari bir uyli o'simliklardir. Ularning erkak qubbalarini 1 yil daraxtda qishlab, ikkinchi yilning bahorida pishib yetiladi. Urg'ochi (urug'chi) qubbalarini - qisqargan novdalarning qo'ltig'ida kuzda hosil bo'ladi. Ikkinchi bahorda ular kattalashib, ularda kurtaklar yetiladi. Urug'lanishdan keyin yumshoq etli urg'ochi qubbalarida urug' hosil bo'ladi. Pishib yetilgan qubbalarini sharsimon etdor bo'ladi. Urug'i ko'pincha ikkinchi yili yetiladi. 1-14 tagacha urug'i bo'ladi. Archalar tog'lik tumanlarda eroziyaga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Emandoshlar — *Fagaceae* oilasi

Bu oilaning ko'pchilik vakillari barglari to'kiladigan yoki doimiy yashil daraxt va ayrim butalardan iborat bo'lib, 18 turkumga mansub 900 ga yaqin turlari bor. Ikkala yarim sharning mo'tadil, subtropik va tropik mintaqalarida keng tarqalgan. Ko'pchilik turlari daraxtlar hisoblanadi, balandligi - 35 - 40 m, barglari oddiy butun yoki o'yilgan, navbatlashib joylashgan. Gullari ayrim jinsli, gulqo'rg'oni oddiy, to'pguli kuchala yoki kallakchadan iborat. Bu oilaga mansub o'simliklarning xo'jalikdagi ahamiyati katta bo'lib, ulardan qimmatbaho yog'och mahsulotlari olinadi. Po'stlog'idan oshlovchi moddalar tayyorlashda ishlataladi.

Qizil eman (dub)-*Quercus robur* L. Bo'yi 40 (ba'zan 50) m gacha yetadigan daraxt, shoxlari yorilmagan. Kumush rangli, poyasi yorilgan, qo'ng'ir-kulrang tusli po'stloq bilan qoplangan. Barglari teskari tuxumsimon, patsimon, bo'lakli bo'lub, qisqa bandi yordamida poyasi bilan shoxlarida ketma-ket joylashgan. Gullari mayda, ko'rimsiz, 1

uyli va I jinsli. Otalik gullari kuchalaga. onaligi I - 3 tadan bo'lib, yosh novdalarda to'plangan, mevasi –gulqo'rg'onining qoldig'iga joylashgan uzun bandli cho'ziq yong'oqcha. Tarkibida 7 -20% oshlovchi moddalar mavjud. Po'stloq qaynatmasi antiseptik vosita sifatida og'iz bo'shlig'i kasalliklarida ishlatiladi. Istirohat bog'larida xiyobonlarda va ko'chalarda manzarali daraxt sifatida o'stiriladi

Chinordoshlar-*Platanaceae* oilasi

Bu oilaga bitta turkum, 10 ta tur kiradi. Ular Shimoliy Amerika, Kanada, Meksika, O'rta Yer dengizi bo'ylari, g'arbiy Ximolay, Hindi - Xitoy, Bolqon yarim oroli va O'rta Osiyoda tarqalgan. Bizda bitta Sharq chinori (*Platanus orientalis*) o'sadi.

Oq qayin – *Betula pendula*. Bo'yi 10-20 m li daraxt. Po'stlog'i oqish, ajraluvchan. Barglari rombik, tuxumsimon, tuksiz, cheti o'tkir tishli gullari ayrim jinsli, bir uyli o'simlik, to'pguli - kuchala. Aprel oyida gullab, oktabrda urug'laydi, togli hudud, soy bo'ylarida o'sadi, shahar ko'chalarini va xiyobonlarda ham o'stiriladi. Ko'pchilik vakillari qalin qayinzorlarni hosil qiladi

Qayindoshlar barg chiqarish bilan birgalikda, bir vaqtida gullaydi, mevasi kichik yong'oqcha. Ular 100 - 150 yil, ayrim turlari 300 yoshgacha yashaydi. Birinchi navbatda, urug'idan, bundan tashqari, ko'pgina ildiz bachkilarni beradi. Madaniy hoida ekilib, ildiz bachkilaridan, qalamchalaridan, tupning bo'linishi bilan ko'paytiriladi. Qayindoshlarning xo'jalikdagi ahamiyati judayam katta. Ularning po'stlog'ida oshlovchi va bo'yoq moddalari mavjud. Olxa turidan teri, jun, gazlamalar uchun qora, qizil, sariq bo'yoqlar olinadi. Qayinlarning bargidan aromatik efir moylari olinadi. Qayin sharbatidan kvass, siroplar tayyorlanadi.

Turkum - *Salix L.* - Tol

Tur - *S. babylonica L.* - Majnuntol

Bo'yi 8-12 m shox-shabbasi juda chiroyli, manzarali novdalari uzun, ingichka pastga osilib turadi. Sariq-yashil yoki qizg'ish yaltiroq rangli. Kurtaklari mayda o'tkir uchli, barglari ensiz lantsetsimon. Majnuntol chiroyli va tez o'suvchi manzarali daraxt sifatida o'stiriladi.

Oila - *Oleaceae* - Zaytundoshlar

Turkum - *Syringa L.* - Siren

Tur - *S. vulgaris L.* - Oddiy siren

Buta o'simlik bo'yi 3-6 m, gullari oq, pushti yoki qoramtilir binafsha rang ko'sakchasi cho'ziq. May oyida gullab iyunda urug'laydi. Manzarali o'simlik sifatida ko'plab ekiladi. Hozirgi vaqtida sirenning rang-barang navlari ko'p gul rangiga ko'ra oqgulli, pushti, havorang gulli navlari bor. Chiroyli manzarali beruvchi butadir

Oila - *Fabaceae* - Burchoqdoshlar

Turkum. Gledichiya - *Gleditchia*

Tur. Tikan daraxt - *Gleditchia triacanthus L.*

Gledichiya daraxti shox-shabbasi, nafis barglari tufayli juda ko'rinishlidir. Yaproqi to'q-qizil, yaltiroq tusini kuzgacha yo'qotmaydi. Guli mayda, yashilsimon, may-iyunda gullaydi. Mevasi yirik qo'ng'ir malla tusdag'i uzun dukkaklardan iborat. Bu daraxt 8-10 yoshga kirganda meva qila boshlaydi. Gledichiya har qanday tuproqda o'sa oladi. Qurg'oqchilikka chidaydi. 20-25

yoshlik daraxtining bo'yi 15 m ga etadi. Bu daraxt urug'idan ko'paytiladi. Bu daraxtning yog'ochi juda qattiq bo'lib, vagonsozlik va mebelchilik sanoatida ishlatiladi.

Turkum. Sofora - Sophora

Tur. Yapon soforasi - Sophora japonica L. - Yapon soforasi (*Sophora japonica*). Bo'yi 20-25 metrcha, sharsimon ko'rinishli daraxt. Yosh novdalari sarqish-yashil. Barglar murakkab tog' patsimon 9-17 ta barglardan iborat bo'lib, 25 sm cha keladi, tez o'sishi, tanasi silliq va tekis yaproqlari patsimon joylanishi, sarqish gullarining to'da-to'da bo'lib joylanishi, yaproqining kech to'kilishi, dorivorlik xususiyati va boshqa yaxshi xislatlari jixatidan oq akas va boshqa tur daraxtlardan ancha ustun turadi. Yapon saforasi qurg'okchilikka chidaydi, zarakunandalar bilan shikastlanmaydi. Iyun-iyulda gullaydi, gullah davrida nihoyatda chiroyli bo'ladi. Mevasi tasbehsimon dukkakdan iborat, urug'i mayda, dumaloq va yaltiroq. Bu daraxt urug'ini ekish yuli bilan ko'paytiladi. Yog'ochi sariq, uzagi qo'ng'ir tusda, qattiq va elastik bo'ladi. Vatani: Xitoy, Yaponiya, Koreya.

Istiroqat bog'lari, hiyobonlar va ko'chalarning chetiga ekiladi.

Turkum - Albizzia Durazz. - Albitsiya

Tur - A. julibissin Durazz. - Shoyi albitsiya, shoyi daraxt

Daraxt bo'yi 4-5 m. Barglari 2 marta patsimon qirqilgan, gullari ayrim jinsli, sharsimon kallakchaga to'plangan. Gultojisi varonkasimon, tojbarglari keng xanjarsimon tashqi tomondan ipaksimon tuklardan qoplangan. Changchilar pushti, manzarali o'simliklar sifatida qadrlanadi.

YEM XASHAK O'SIMLIKLER

Turkum. Yantog' - Alhagi Adans. -

Tur. Soxta yantog' - Alhagi pseudalhagi Desf.

Fabaceae - Burchoqdoshlar oilasi eng katta oilalardan biri bo'lib, 650 turkumga mansub, 18 ming turni o'z ichiga oladi. Bu oila vakillari yer sharining hamma qurug'liklarida uchraydi O'zbekistonda esa 35 turkumga oid 420 turi o'sadi.

Alhagi - Yantog' balandligi 30-110 sm ba'zan 130 sm gacha bo'lgan tikanli, ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi shoxlangan. Barglari tuxumsimon. Cho'ziq dumaloq yoki lansetsimon, tekis qirrali bo'lib poya va shoxlarda qisqa bandi yordamida yoki bandsiz ketma-ket o'rnashgan. Mevasi ko'p urug'li, tasbexsimon, pishganda ochilmaydigan dukkak. May-sentyabr oylarida gullaydi. Mevasi avgust-oktyabr oylarida etiladi.

Yantog'ning yer ustki qismi tarkibida qandlar, organik kislotalar, efir moyi, flavonoidlar, kumarinlar, vitamin S, V guruxi va karotin, alkoloidlar, glikozidlar, antotsiantlar, smolalar, shilliq oshlovchi (8,2 % gacha) mineral va boshqa moddalar bor. Qadimdan yantog' tabobatda turli kasalliklarni davolash uchun ishlatib kelinadi.

Yantog' er ustki qismidan tayyorlangan damlamani choy o'mnida yozda ko'p istemol qilinadi. U chanqoqni yaxshi qoldiradi. Odam charchaganda charchashni olib organizmga quvvat beradi.

Turkum. Sebarga -*Trifolium* L.

Tur. O'rmalovchi sebarga - *Trifolium. repens* L.

O'rmalovchi sebarga. Ko'p yillik o't. Bo'yi 15-40 sm. Poyasi o'rmalab o'sadi, bargchalarining uchi o'yilgan, asosi ponasimon. Daryo va ariq bo'ylari, tog' o'tloqlari va suqoriladigan maydonlarda, bog' va ekinlar orasida o'sadi.

O'tloq sebargasi - *Trifolium pratense* L. Bo'yi 50 sm keladigan ko'p yillik o't. Poyasi yer bag'irlab yoki yerdan ko'tarilib o'sadi. Bargi uzun bandli (pastki barglarining bandi 20 sm ga yetadi). Gullari bandsiz bo'lib, gultojisi qizil pushti rangli. Kallak shaklidagi to'pgullarining kattaligi 2 - 3,5 sm keladi. Dukkaklari bir urug'li, ellipssimon yoki cho'ziqroq. Urug'i sariq yoki jigarrang, silliq, dumaloq. kattaligi 1,5-2 mm ga teng (111-rasm). Aprel-sentabr oylarida gullaydi, urug'i iyun-oktabr oylarida pishib yyetiladi. U respublikamizning barcha ekin maydonlarida, zax yerlarda, ariq bo'ylarida, tog'oldi qismidagi joylarda keng tarqalgan. Mahalliy aholi sebargadan tayyorlangan qaynatma bilan kuygan joyni, yaralarni davolaydi. Siyidik haydovchi, ich og'riqni qoldiruvchi, oshqozon funksiyasini yaxshilovchi dori sifatida foydalidir (106-rasm).

Qashqarbeda-*Melilotus*. Ikki va bir yillik o't bo'lib, begona o't sifatida ekinlar orasida tog' yon baqirlarida o'sadi. O'zbekistonda 4 ta turi tarqalgan. Uning tarkibida, 0,013 % efir moyi, 0,4- 0,9 % kumarin, glikozidlar va alkaloidlar mavjud. Xalq tabobatida ishlatiladi.

1. Mavzuga oid bilimlarni faollashtirish, fiklashni jadval asosida kengaytiring.

Manzarali o'simliklar			
O'simlik turlari	Hayotiy shakli	Tarqalishi	Ishlatilishi

VI.SEMINAR MASHG'ULOTLARI MATERIALLARI

Seminar mashqulotlari talabaning ma'ruzalardan, amaliy darslardan hamda mustaqil ishlardan olgan bilimini yanada mustaqamlashga va o'zining fikrini, dunyog'arashini erkin va tushunarli etib bayon eta olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

Foydali 'simliklarni o'rganish tarixi

O'zbekistonning asal-shirali o'simliklari

Tropik mamlakatlardagi oziq-ovqat o'simliklari

Madaniy o'simliklarning kelib chiqishi

Texnik-tolali o'simliklarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati

OZIQ-OVQAT O'SIMLIKLARI



1-rasm. Grex yong'g'i-*Juglans regia*



2-rasm. Oddiy o'rik- *Armeniaca vulgaris*



3-rasm.Oddiy gilos - *Cerasus avium*



4-rasm. Jaydari olma -*Malus domestica*




5-rasm. Oddiy shaftoli- *Persica vulgaris*




6-rasm. Cho'zinchoq behi – *Cydonia oblonga*

SABZAVOT O'SIMLIKLAR




7-rasm. Oddiy karam-*Brassica oleracea*



8- rasm. Sarmisoq piyoz -*Allium longicuspis*



9-rasm.Pomidor- *Lycopersicon*



10- rasm.Garimdori -*Capsicum*



11-rasm. Achchiq garmdori –*Capsicum annuum*



12-rasm Baqlajon- *Solanum melangena*

POLIZ O'SIMLIKLARI



**13-rasm. Osh qovoq-Cucurbita
moschata**



14-rasm.Oddiy tarvuz-Citrullus.vulgaris



15-rasm. Sharq qovuni- Melo orientalis.



**16- rasm. Ekma bodiring -Cucumis
sativus**

ZIRAVOR O'SIMLIKLAR



17-rasm. Kashnich *Coriandrum* -



18-rasm.Ukrop- *Anethum*



19-rasm. Seldrey-*Apium*



20- rasm. Arbabodiyon -*Pimpinella*



21-rasm. Доривор любесток-
Levisticum officinalis -



22-rasm. Qizil zirk – *Berberis*
Integerrima

VITAMINLI O'SIMLIKLER



23-rasm. Turkiston do'lasi -
Crataegus turctstanica



24-rasm. Itburun na'matak -
Rosa canina



25-rasm. Shotut- *Morus nigra*



26-rasm. Jaydari olma -*Malus domestica*



27-rasm. Oddiy oqqaldirmoq -
Tussilago farfara



28- rasm. Ikki uyli gazanda –
Urtica dioica

DORIVOR O'SIMLIKLAR



**29-rasm. Danakli oqquray –
Psoralea drupacea -**



30-Dorivor valeriana- *Valeriana officinalis*



**31-rasm. Oddiy oqqaldirmoq–
*Tussilago farfara***



**32-rasm. Dorivor moychechak–
*Matricaria officinalis***



**33-rasm. Dorivor tirnoqgul–
*Calendula officinalis***



34- rasm.Tikanli kovul-*Capparis spinosa*

OSHLOVCHI O'SIMLIKLAR



35-rasm. Yuraksimon ravoch-



36- rasm. Majnun tol -*Salix babylonica*



37-Oddiy anor- *Punica granatum* 38-rasm.



39-rasm. Qizg'ish otquloq-*Rumex crepusus* 40-rasm. Qizil eman -*Quercus robur*



SAPONINLI O'SIMLIKLER



41-rasm. Yulduzo't- *Stellaria*



42-rasm. Yersovun-*Saponaria*



43-rasm. Yetmak, beh -*Acanthophyllum*



44-rasm. Tuksiz shirinmiya-
Glycyrrhiza glabra



EFIR-MOYLI O'SIMLIKLAR



47-rasm. Sharq jiydasi *Elaeagnus orientalis*



**48-rasm.Dorivor marmarak
Salvia officinalis**



49- rasm. Dorivor issop- *Hyssopus officinalis*



50-rasm. Osiyo yalpizi-*Mentha asiatica*



51-rasm. Rayhon- *Ocimum basilicum*

52-rasm.

MANZARALI O'SIMLIKLER




53-rasm. Yirik gulli magnoliya
- *Magnolia grandiflora*.



54- rasm. Sohta kashtan
- *Aesculus hippocastanum*



55-rasm. Oddiy siren-*Syringa vulgaris* 56-rasm . Qizil eman -*Quercus robur*.



57-rasm. Шойи альбизия- *Albizia julibrissin*



58- rasm. Yuraksimon jo'ka *Tilia cordata*

EM-XASHAK O'SIMLIKLAR



59-rasm. Coxta yantoq- *Alhagi pseudalhagi*



60- rasm. Qo'yechak- *Convolvulus arvensis*



61-rasm. O'tloq sebargasi- *Tirifolium pratense*



62-rasm. Tariq-*Panicum*



63-rasm. Chalov-Stira



64- Qo'ng'irbosh-*Poa*

NAZORAT SAVOLLARI

1. Foydali o'simliklar xaqida umumiy tushuncha
2. Madaniy va tabiiy holda uchraydigan foydali o'simliklarning guruhlari, ekologiyasi.
3. Foydali o'simliklarning inson hayotidagi roli
4. O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan foydali o'simliklar
5. Foydali o'simliklarning xilma-xilligi
6. Foydali o'simliklarning qo'llanilishiga qarab guruhlarga bo'linishi.
7. O'zbekiston florasida keng tarqalgan foydali o'simliklar va ularning asosiy guruhlari.
8. Foydali o'simliklar ekologiyasi
9. Foydali o'simliklarni qayta tiklash va muhofaza etish yo'llari.
10. Foydali o'simlik turlarining tik minta?alar va turli ekologik xududlar bo'yicha tarqalishi.
11. Foydali o'simliklarni etishtirish va ko'paytirish
12. Foydali o'simliklarni etishtirish va ko'paytirishdagi o'ziga xos agrotexnik tadbirlar.
13. Oziq - ovqat o'simliklari
14. O'zbekiston florasida keng tarqalgan turlari. Ularning sistematik o'rni.
15. O'simliklar qoplamidagi ahamiyati.
16. Sabzavot - poliz o'simliklari
17. Tolali o'simliklar
18. Ziravor o'simliklar
19. O'zbekiston florasida keng tarqalgan ziravor o'simliklar
20. Vitaminli o'simliklar
21. O'zbekiston florasida keng tarqalgan vitaminli o'simliklar
22. Dorivor o'simliklar
23. O'zbekiston florasida keng tarqalgan dorivor o'simliklar
24. Saponinli o'simliklar
25. Saponinli o'simliklarning tabiiy zahiralari.
26. Moyli o'simliklar
27. O'zbekiston florasida keng tarqalgan moyli o'simliklar
28. Efir-moyli o'simliklar
29. O'zbekiston florasida keng tarqalgan efir-moyli o'simliklar
30. Oshlovchi moddalar saqlovchi o'simliklar
31. O'zbekiston florasida keng tarqalgan o'simliklar turlari.
32. Manzarali o'simliklar
33. O'zbekiston florasida keng tarqalgan manzarali o'simliklar
34. Yem- xashak o'simliklar
35. O'zbekiston florasida keng tarqalgan yem- xashak o'simliklar
36. Foydali o'simliklarning o'simliklar qoplamidagi ahamiyati.
37. Foydali o'simliklarning tabiiy zahiralari.
38. Foydali o'simliklarni o'rganish tarixi.
39. O'zbekistonning asal-shirali o'simliklari.
40. Tropik mamlakatlardagi oziq-ovqat o'simliklari.

GLOSSARIY

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Mazmuni
Avtogamiya	Автогамия	Avtogamy	o‘simlik gulining o‘z-o‘zidan changlanish jarayoni
Avtoxoriya	Автохория	Autoxoria, Autointerest	o‘simlik urug‘- mevasining o‘z og‘irligi yoki urug‘ining ochilishi natijasi erga to‘kilib tarqalishi
Adaptatsiya	Адаптация	Adaptation	organizmlarning tashqi muhit ta’siriga moslashuvi
Anemofiliya	Анемофилия	Anemophilia	o‘simlik gulining shamol yordamida changlanishi
Aktinomorf gul	актиноморфный цветок	Actinomorphic flower	to‘g‘ri gul
Allogamiya	Аллогамия	Allogamy	o‘simlik gulining chetdan changlanishi
Androtsey	Андроцей	Androtsey	guldagi changchilar to‘plami
Anemoxoriya	Анемохория	Anemoxoria	o‘simlik urug‘- mevasining shamol yordamida tarqalishi
Antropogen omil	Антрапогенный фактор	Anthropogenic factor	inson faoliyati bilan bog‘liq omillar
Antropoxoriya	Антрапохория	Anthropochoria	o‘simlik urug‘- mevasining insonlar tomonidan tarqalishi
Biomorfa	Биоморфа	Biomorph	o‘simlikning tashqi ko‘rinishi va holati
Biotik omil	Биотический фактор	Biotic factor	jonli tabiat (o‘simlik, hayvonot, mikroorganizmlar dunyosi) omillari
Galofit	Галофит	Galofit	sho‘r erda o‘suvchi o‘simliklar
Gidrofiliya	Гидрофилия	Hydrophylaxis	suv yordamida changlanish
Gidrofit	Гидрофит	Hydrophyte	suv ichida o‘sadigan

			o'simliklar
Geleofit	Гелеофит	Heliophyte	yorug'sevar o'simliklar
Gidroxoriya	Гидрохория	Hydrochory	o'simlik urug'-mevasining suv orqali tarqalishi
Generativ organ	Генеративный орган	Generative organ	o'simlikning ko'payishida ishtirok etuvchi organlar (gul, meva, urug')
Geterokarpiya	Гетерокарпия	Geterocarpia	o'simlikda har xil kattalik va shakldagi mevalarni hosil bo'lishi
Gimikriptofit	Гимикриптофит	Gimicryptophyte	qishlovchi kurtaklari er yuzasida joylashgan ko'p yillik o'tlar
Ginetsey	Гинецей	Ginetsey	guldagi urug'chilar to'plami
Gomoxlomid gul	Гомохламидный цветок	Gomochlomid flower	oddiy gulqo'rg'onli gul
Gul	Цветок	flower	shakli o'zgargan va qisqargan novda
Gullah	Цветение	Flowering	gulli o'simliklar ontogenezining alohida davri
Introduksiya	Интродукция	Introductions	iqlimlashtirish
Kriofil o'simliklar	Криофитные растения	Cryophilic plants	past harorat mavjud sharoitda yashovchi o'simliklar
Kserofit	Ксерофит	Xerophyte	qurg'oqchil sharoitda o'sishga moslashgan o'simliklar
Mezofit	Мезофит	Mesophytes	o'rtacha namlik sharoitda o'suvchi o'simliklar
Muhit omillari	Факторы среды	Media Factors	organizmni o'rab turgan shart-sharoitlar va ta'sirlar majmui
Nektar	Нектар	Nectar	gulda ajraluvchi

			suyuqlik
Nektardon	Нектарник	Nectarone	nektar ajratuvchi gulning qismi
Sukulent	Сукулент	Sukulent	tanasi, poyasi va bargida suvni zahira holda saqlovchi o'simliklar
Skelerofit	Скелерофит	Skelerophyte	poyasi dag‘al, barglari reduksiyalashgan o'simliklar
Ssiofit	Сциофит	Ctsiophyte	soyasevar o'simliklar
Termofil o'simlik	Термофилный растения	Thermophilic plant	issiqsevar o'simliklar
Fanerofit	Фанерофит	Fanerofit	qishlovchi kurtaklari tuproq yuzasidan 30 sm dan yuqorida joylashadigan buta va daraxt o'simliklar
Xamefit	Хамефит	Hamefit	qishlovchi kurtaklari tuproq yuzasidan 20-30 sm da joylashadigan chala butalar

TEST SAVOLLARI

1. Foydali o'simliklarni yana qanday nom bilan avtiladi

2.O'simliklар түрли хил касаллижлардан қандай мөддәләр yordamida himoyalanadi?

- A.fitontsitlar V.senikantlar S.desikantlar D.defoliantlar

3. Hujavralardagi kimyoviy reaktsivalarni tezlatuvchi moddalar

- A ishqorlar V vitaminlər S Fermentlər D kislətlər

4. O'zbekiston florasida yuksak o'simliklarning nechta turi mayjud

- A 4000 V 4700 S 4500 D 4200

5. O'zbekistonda ozia-o'yqat o'simliklarining nechta

A 45 V 42 S 48 D 40

- 6. O'zbekistonda em-xashak o'simliklarining nechi?**

A. 109 V. 107 S. 100 D. 110

- 7. O'zbekistonda dorivor o'simliklarining nechta turi bor**
A. 115 V. 113 S. 120 D. 118

8. O'zbekistonda alkoloid saqlovchi o'simliklarining nechta turi bor
A. 78 V. 80 S. 71 D. 76

9. O'zbekistonda saponin saqlovchi o'simliklarining nechta turi bor
A. 15 V. 14 S. 12 D. 16

10. O'zbekistonda efir-moyli o'simliklarining nechta turi bor
A. 59 V. 63 S. 57 D. 53

11. O'zbekistonda bo'yоqdo'r o'simliklarining nechta turi bor
A. 58 V. 54 S. 59 D. 60

12. O'zbekiston "Qizil kitobi" birinchi marta nechanchi yilda nashr etilgan va unga nechta tur o'simlik kiritilgan
A. 1979 yil, 163 ta V. 1984 yil, 163 ta
S. 1983 yil, 122 ta D. 1981 yil, 122 ta

13. Introduktsiya qilingan ochiq urug'li o'simliklarga qaysi daraxtlar kiradi
A. Ginkgo biloba, magnoliya, lola daraxti
V. Magnoliya, kashtan , na'matak
S. Lola daraxti, kashtan, olma
D. Qarag'ay, sada, terak

14. O'zbekistonning "Qizil kitobi"ga kiritilgan o'simliklar guruxini aniqlang
A. Xisor na'matagi, tukli akatsiya, achchiqmiya
V. Ertut, oq akatsiya, xushbo'y shilvi
S. Yovvoyi zig'ir,zarpechak, qora ituzum
D. Oq parpi, olatog' zafaroni, anzur piyozi

15. Eng qadimgi madaniy o'simliklarni belgilang 1. g'o'za 2.kungabooqar 3. Bug'doy 4.suli 5. piyoz 6 sholi 7 kartoshka 8. Makkajo'xoriori
A.1,3,5 V.3,6,8 S.4,7,8 D. 2,3,5

16. O'zbekiston "Qizil kitobi"ning yangi nashriga nechta tur o'simlik kiritilgan
A. 163 V. 206 S.156 D. 301

17. Xozirgi kunda yer yuzida qaysi o'simliklar guruhi hukmron hisoblanadi
A. Ochiq urug'lilar V. Yovvoyi o'simliklar
S.Yopiq urug'lilar D. Urug'li qirqquloqlilar

18. Xarorati iliq kelgan kuz oylarida ham gullahni davom ettiradigan o'simliklar guruhibini belgilang
1. qoqio't 2.sachratqi 3.kartoshkagul 4.xrizantema 5.oqsho'ra 6. lola7. qamish
A. 4, 5, 6 V. 3, 5, 6 S.1,2,3 D. 5, 3, 7

19. Qaysi madaniy o'simliklarni parxish usulida vegetativ ko'paytirish mumkin
A. Atirgul, na'matka V. Tok, totim S. Atirgul, qoraqat D. Qoraqat, olma

20. Qalamchalar yordamida ko'paytiriladigan o'simliklar guruxini aniqlang:
1.tok 2.olma 3. terak 4. tut 5.tol 6. atirgul 7. qoraqat
A. 1,2,3,4,7 V. 7,6,5,3,1 S. 1,7,2,4,5 D. 2,7,1,6,3

21. Ildiz bachkilar o'simliklarning qaysi qismidan hosil bo'ldi
A. Murtakdag'i poyachadan V. Murtakdag'i ildizchadan
S. Ildiz kurtaklaridan D. Murtakdag'i kurtakchadan

- 22. Qaysi ildizpoyali o'simliklarda ildiz-poyadan tashqari tuganaklar ham hosil bo'ladi**
- A.. Ajriq V. G'umay S. Qamish D. Salomalaykum
- 23. Mevali daraxt qanday yo'l bilan ko'paytiladi**
- A. Urug'laridan V. Tuganagidan S. Gajaklaridan D. Bargidan
- 24. O'simliklarning rivojlanishi necha bosqichdan iborat**
- A. yuvinil, etuklik, ko'payish V. ebrional, yuvinil, etuklik, ko'payish, qarish
S. ko'payish, qarish D. etuklik ko'payish
- 25. O'simliklarning sovuqqa chidamliligi deb nimaga aytildi**
- A.nol gradusdan yuqori haroratga bardoshlik V.C⁵ gradusga chidamlilik
S.C¹⁰ gradusga chidamlilik D. nol gradusdan past haroratga bardoshlik
- 26. Ituzumdoshlar oilasiga mansub oziq-ovqat o'simligi**
- A. Pomidor, mingdevona V. Kartoshka, bangidevona, tamaki, ituzum
S. tamaki, ituzum D. Pomidor, kalampir, kartoshka
- 27. Tarkibida limon kislotasi bo'ladigan o'simliklar guruhi**
- A. Jag'-jag', na'matak, g'o'za V. Kiyiko't., Bu?doy, tari?
S. Jag'-jag', sho'ra, bug'doyiq D. Makkajo'?ori, loviya, tobulg'i
- 28. Karamdoshlar oilasining qaysi vakillari ildizmeva hosil qiladi ?**
- A. boltiriq, rediska, V. turp, karam,
S. rediska, turp, sholg'om D. jag'-jag', karam,
- 29. O'zidan fitontsid ajratish tufayli bakteratsid xususiyatga ega bo'lgan oziq-ovqat o'simligi**
- A. Piyoz, jag'-jag', qarag'ay V. Sarmisoqpiyoz, olabuta, archa
S. Piyoz, sarmisoqpiyoz,sholg'om D. Piyoz, g'umay, qarag'ay
- 30. Sho'radoshlar oilasiga mansub oziq-ovqat o'simliklarini aniqlang**
- A. Lavlagi, ismaloq V. Olabuta, ismaloq
S. Jag'-jag', ismalo? D. Ismaloq, jag'-jag'
- 31. Burchoqdoshlar oilasiga mansub oziq-ovqat o'simliklari 1.loviya 2.no'xat 3.eryong'oq 4.mosh 5.lavlagi 6.piyoz 7.kartoshka**
- A. 2,5,6,1 V. 3,6,5,7 S.1,2,6,4 D. 1,2,3,4
- 32. Fotogarmonlar deb qanday moddalarga aytildi?**
- A. oksillar V. nuklein kislotalar
S. o'simliklarni o'sishini bosh?aruvchi moddalar D. uglevodlar
- 33. Xom mevalarni pishishini qaysi fitogarmon tezlashtiradi ?**
- A. kinin V. Gibberelin S.auksin D. etilen
- 34. Urug'siz mevalarning hosil bo'lishini qaysi atama belgilaydi ?**
- A. reutilizatsiya V. Fotosintez S.glikoliz D. partenokarpiya
- 35.Tog'larda tabiiy holda o'sadigan oziq-ovqat o'simliklari ?**
- A. Do'lana,yong'oq, pista V. Tog'olcha, yeryong'oq, shaftoli
S. Do'lana,olcha,gilos D. Yong'oq, pista, na'matak
- 36. Osh piyoz bilan anzur piyozni farqi qaysi organida bo'ladi**
- A. Gulida V. Bargida S. Urug'ida D. Ildizida
- 37. Soxta meva gulning qaysi qismidan hosil bo'ladi**
- A.Tuguncha, gulning boshqa qismlari V. Tugunchadan
S.. Tuguncha devori D. Faqat gulqurg'onidan

38. Karamdoshlar oilasiga mansub ikki yillik oziq-ovqat o'simliklari

- | | |
|-----------------------------|------------------------------|
| A. Lavlagi, turp, kartoshka | V. Sholg'om, turp, sabzi |
| S. Turp, sholg'om, rediska | D. Turp, sholg'om, kartoshka |

39. Turkiston ismalog'i (Spinacia turkestanica) qaysi oilaga kiradi

- | | |
|-------------------|------------------|
| A. Chenopodiaceae | V. Ranunculaceae |
| S. Polygonaceae | D. Papaveraceae |

40. Ra'nodoshlar oilasiga mansub mevali daraxtlar

- | | | | |
|---|------------|------------|-----------|
| 1.olma 2.nok 3.yong'oq 4.behi 5.xurmo 6.gilos, 7.anor | | | |
| A.3,5,6,7 | V. 2,4,6,7 | S. 1,3,6,4 | D.1,2,4,6 |

41. Qovoqdoshlar oilasiga mansub bir yillik sabzovot o'simlik

- | | | | |
|------------|----------|------------|----------|
| A. Bodring | V. Qovun | S. Rediska | D. Karam |
|------------|----------|------------|----------|

42. Ikki yillik sabzovot o'simliklar

- | | |
|---------------------------|-----------------------------|
| A. Rediska, sabzi,pomidor | V. Sabzi, shol?om, turp |
| S. Sabzi, kartoshka, turp | D. Sholg'om, karam, bodring |

43. Keltirilgan oshlovchi o'simliklardan qaysi biri o't o'simliklarga kiradi

- | | | | |
|-----------|-----------|----------|------------|
| A. Kermak | V. Zarang | S. Toron | D. Yulg'un |
|-----------|-----------|----------|------------|

44. Keltirilgan o'simliklardan qaysi biri vitaminli o'simliklar guruhi gira

- | | | | |
|-------------|-----------|--------------|----------------|
| A. Arg'uvon | V. Erchoy | S. G'ozpanja | D. Oqqaldirmoq |
|-------------|-----------|--------------|----------------|

45. Keltirilgan o'simliklardan qaysi biri zaxarli o'simliklar guruhi gira

- | | | | |
|-------------|---------------|---------------|------------|
| A. Astragal | V. Dastarbosh | S. Moychechak | D. Oqparpi |
|-------------|---------------|---------------|------------|

46. Suvda eruvchan vitaminlarni belgilang.

- | | |
|---|-------------------------------------|
| A. vitamin S, vitamin V ₂ , vitamin V ₆ | V. vitamin S, vitamin D, vitamin E |
| S.vitamin V2,vitamin A, vitamin E | D. vitamin V6, vitamin K, vitamin D |

47. Manzarali bargli daraxtlarni aniqlang.

- | | |
|--------------------------|--------------------------|
| A. Tuya, chinor, yong'oq | V. Qarag'ay, archa, tuya |
| S. Eman, tol, archa | D. Eman, chinor, kashtan |

48. Dori-darmon tayyorlash jarayoni qaysi o'simliklarning kamayib ketishiga sabab bo'ladi

1-toroy 2-parpi 3-anzur piyozi 4-dalachoy 5-zirako't 6-sutlama 7-bozulbang

- | | | | |
|-----------|----------|----------|----------|
| A. 2,4, 7 | V. 3.5.6 | S. 2.3.6 | D. 1.4.7 |
|-----------|----------|----------|----------|

49. Qaysi o'simlikning ildizi, bargi,poyasidan dorilar tayyorlanadi

- | | | | |
|--------------|------------|-----------|--------------|
| A. Jag'-jag' | V. qoqio't | S. Ituzum | D. sachratqi |
|--------------|------------|-----------|--------------|

50. Manzarali daraxtlarni aniqlang

- | | | | |
|--------------|-----------------|-------------|----------------|
| A. Gulsafsar | V. Lola daraxti | S. Limonnik | D. Marvaridgul |
|--------------|-----------------|-------------|----------------|

51. Chiroyli gullaydigan manzarali daraxtlar ?aysilarq

- | | |
|---|--------------------------|
| A. Doimiy yashil shamshod, lola daraxti | V. Magnoliya, limonnik |
| S. Magnoliya,lola daraxti | D. Marvaridgul, limonnik |

52. Bir yillik madaniy o'simliklar

- | | |
|---|--|
| A. arpa, bug'doy, g'o'za, no'xat, sholi, rayxon | |
| V. bug'doy, sabzi, beda, piskom piyozi, kovrak,yalpiz, rayxon | |
| S. arpa, bug'doy, g'o'za, no'xat, sholi, jag'-jag', rayxon | |
| D. lavlagi, piyozi, sabzi, turp, karam, sholg'om | |

53. Magnoliyadoshlar oilasi qaysi o'simliklar guruhi gira

- | | | | |
|--------------|------------|--------------|--------------------|
| A. Manzarali | V. Dorivor | S.Efir moyli | D. Bo'yoq beruvchi |
|--------------|------------|--------------|--------------------|

54. Sho'radoshlar oilasining qaysi vakillari em-xashak sanaladi ?

- A. izen, tereksten
S. izen, tereksten sho'ra, lavlagi,
- V. izen, ismaloq
D. lavlagi, olabuta,
- 55. Gulxayridoshlar oilasining qaysi turi xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega ?**
- A. tugmachagul V. g'o'za, S. bo'ritaroq D. kanop
- 56. Nomlari keltirilgan o'simliklarning qaysi birlari kauchok saqlovchi hisoblanadi?**
- A. qoqio't, tog'sag'ich
V. momoqaymoq, qoqio't,
S. bo'tako'z, jag'-jag',
D. boltiriq, qushqo'nmas
- 57. Lotincha nomlari nomlari keltirilgan qoqio'tdoshlar oilasining qaysi turlari moyli o'simliklar hisoblanadi**
- A. Achillea millefolium, Eeigeron candensis
V. Achillea millefolium, Eeigeron candensis,
S. Arnica Montana, Bidens tripartite
D. Helianthus tuberosus, Carthamus tinctorius
- 58. Qo'sh urug'lanish qaysi o'simliklarga xos**
- A. jiyda, terak, chinor
V. o'rik, tuya, olma
S. behi, archa
D. qarag'ay, archa, uzum
- 59. Althaea Turkumi qaysi oilaga mansub?**
- A. Ranunculaceae
V. Cucurbitaceae
S. Brassicaceae
D. Malvaceae
- 60. Qovun qaysi oilaga mansub?**
- A. Ranunculaceae
V. Cucurbitaceae
S. Brassicaceae
D. Malvaceae
- 61. O'zbekiston "Qizil kitobi" ning yangi nashriga nechta tur o'simlik kiritilgan?**
- A- 66
V-301
S-163
D-206
- 62. O'zbekistonda qaysi moyli ekinlar ko'proq ekiladi ?**
- A- maxsar, kunjut
V-kungaboqar, soya
S- eryong'oq, kanakunjut
D-zig'ir, kungaboqar
- 63. Ildizi, bargi, poyasidan dori tayyorlanadigan o'simlik**
- A- sachratqi
V- jag'-jag'

S- ituzum, tugmachagul

D- qoqio't

64. Qadimda odamlar qaysi o'simliklardan dori-darmon tayyorlashda foydalanishgan

A-marmarak, qoraqt, na'matak

V- tariq, marmarak, bangidevona

S- bangidevona, qoraqt , sachratqi

D- na'matak , tariq, qoraqt

65. Adirlarda keng tarqalgan dorivor o'simlik

A- bo'yimadaron

V- zirak o't

S-irg'ay

D- uchqat

66. Osh piyoz bilan anzur piyozni farqi qaysi organida bo'ladi ?

A- ildizida

V-urug'ida

S- gulida

D-bargida

67. YOrug'sevlar o'simliklar –

A) Geliofitlar V) Fitofitlar S)Ssiofitlar D) fakultativlar ssiofitlar

68. Soyasevar o'simliklar

A) Geliofitlar V) Fitofitlar S)Ssiofitlar D) fakultativlar ssiofitlar

69..... 1920 yilda Amerikalik olimlar V.Gerner va Allard tomonidan kashf qilingan.

A) Fotoperiodizm V) Oraliq o'simliklar S) Biosfera D)Tolerantlik qonuni

70. Qisqa kun o'simliklari:

A) bu o'simliklarning gullash fazasiga utish uchun sutkada 12 soat yoki undan kamroq yorug'lik vaqt kerak

V) bu o'simliklarning fazaga utish uchun sutkada 24 soat yoki undan kamroq yorug'lik vaqt kerak

S) bu o'simliklarning mevalash fazasiga utish uchun sutkada 12 soat yoki undan koproq qorong'ulik vaqt kerak

D) Tolerantlik qonuni

71. Ekvatordan shimolga yo'nalgan sari har 100 km masofa o'tilganda harorat ga pasaya boradi.

A) 0,5—0,6° S V) 1 - 2° S S) 1,5 - 2,54° S D) 10 ° S

72. YUqori harorat ta'sirida yaxshi o'sib rivojlanadigan o'simliklar-

A) Termofillar V) Suv o'tlar S) suvda o'suvchi o'simliklar D) mezofitlar

73. Past harorat ta'sirida yashovchi o'simliklarga esa- deyiladi.

A) kriofil (psixrofil) lar V) Termofillar

S)Suv o'tlar D) suvda o'suvchi gulli o'simliklar

74. Kserofitlar

A) qurg'oqchil sharoitda o'sishga moslashgan o'simliklardir.

V) sernam tuproqda va suv etarli bo'ladigan muhitda yashovchi o'simliklar

S) hayoti doimo suvda o'tuvchi o'simliklar - suv o'tlaridan iboratdir.

D) kriofitlar

75. Gigrofitlar-

sernam tuproqda va suv etarli bo‘ladigan muhitda yashovchi o‘simliklar guruhidir qurg‘oqchil sharoitda o‘sishga moslashgan o‘simliklardir.

hayoti doimo suvda o‘tuvchi o‘simliklar bo‘lib, bu grupper asosan suv o‘tlaridan iboratdir.

Suvsiz joyda o‘suvchilar

76. Gidatofitlar-

hayoti doimo suvda o‘tuvchi o‘simliklar bo‘lib, bu grupper asosan suv o‘tlaridan iboratdir.

tuproqning donachalari ustida absorbsiya kuchi bilan bog‘lanib turuvchi suvdir.

tuproqning katta donachalari orasini to‘ldirib turuvchi va tez harakat qilib pastki er osti suvlarigacha etuvchi suvdir.

qurg‘oqchil sharoitda o‘sishga moslashgan o‘simliklardir.

77. Efemer o‘simliklar gruppasiiga

qisman kuz—qish mavsumidan boshlab, asosan esa erta bahordan boshlab urug‘idan ko‘karib chiqadigan va yog‘ingarchilik tugashi, havoning harorati yuqori darajaga ($25-30^{\circ}$) ko‘tarilishi bilanoq o‘z taraqqiyotini tugallovchi bir yillik o‘t o‘simliklar kiradi.

Ko‘p yillik daraxtlar

Suvda o‘suvch o‘simliklar

Subtropik o‘simliklar

78. Efemeroit o‘simliklarga -

yog‘ingarchilik mo‘l-ko‘l bo‘lgan (asosan bahor faslida) va harorat uncha yuqori bo‘lmagan davrda o‘sib-rivojlanuvchi va jazirama issiqlar boshlangach tanasi qurib qovjirab qoladigan ko‘p yillik o‘simliklar kiradi

Suvda o‘suvch o‘simliklar

Subtropik o‘simliklar

qisman kuz—qish mavsumidan boshlab, asosan esa erta bahordan boshlab urug‘idan ko‘karib chiqadigan va yog‘ingarchilik tugashi, havoning harorati yuqori efemeroitlarning noqulay sharoitga bardosh berishga moslashgan.

ildizlari hamda urug‘lari gullari, mevolari,poyasi

79. SHamol yordamida changlanuvchi o‘simliklar —..... deb nom olgan.

anemofill o‘simliklar

kriofil o‘simliklar

baraxo‘r o‘simliklar

atsidofil o‘simliklar

80. o‘simliklarnnng urug‘ va mevalari shamol yordamida tarqalishga..... deyiladi.

anemoxor o‘simliklar

anemofill o‘simliklar

kriofil o‘simliklar

baraxo‘r o‘simliklar

81. Kislotali muhitga ega bo‘lgan tuproqda o‘suvchi o‘simlik kalsiy tuzlarini yoqtirmaydi va ular deb ataladi.

Kalsefoblar

Kalsefillar

Geliofitlar

psammofitlar

82. Oson eruvchi tuzlarga boy bo‘lgan tuproqlarda (sho‘r erlarda) o‘suvchi o‘simliklar- deyiladi.

galofitlar

Kalsefoblar

Kalsefillar

Geliofitlar

psammofitlar –

83. Qumli tuproqlarda tarqalgan o‘simliklarning ekologik guruhlari.

Suvda o‘suvchi o‘simliklar

Botqoqlada o‘suvchi o‘simliklar

Geliofitlar

Tosh va koyalarda o‘suvchi o‘simliklar –deyiladi.

letofitlar

Kalsefoblar

Kalsefillar

Geliofitlar

84. Tuproqning ma’lum kimyoviy elementlarga boyligini ko‘rsatuvchi o‘simliklar - ... deb ataladi.

indikator turlar

locator

lakmuslar

Radarlilar

85. Toqqa ko‘tarilgan sari har 100 m da harorat pasaya boradi.

0,5oC ga

1 oC ga

3 oC ga

10 oC ga

86. O‘simliklar urug‘ini xayvonlar tomonidan tarqalishiga hodisasi deyiladi.

Zooxoriya

Anemoxo‘riya

Baraxo‘riya

gidroxo‘riya

zooxoriya hodisasi deyiladi.

87.Omillarning o‘simliklarga qulay ta’sir etuvchi kuchi nima deb ataladi ?

A)Optimum V)Kuchsiz S)Kuchli D) Minimum

88. Ekologik omil o‘simlik turiga kuchsiz ta’sir etishiga..... nuqta deyiladi?

A) Minimum V)Optimum S)Maksimum D)Valentlik

89.Omillarning o‘simlik turiga kuchli ta’sir etishiga..... nuqta deyiladi?

A)Optimum V)Maksimum S)normal D) Minimum

90. Kritik nuqta deb nimaga aytildi?

- A)Kuchsiz ta'sirga V)normal ta'sirga S) CHeklovchi omilga
D) Optimal ta'sirga

91.YOrug'lik-ekologik omillar guruhining qaysi biriga tegishli

- A)Abiotik V)Biotik S)Antropik D)Antropogen

92. O'simliklarning kunning uzun-qisqaligiga munosabati nima deb ataladi?

- A)Fitoperiodizm V)Bioritm S)Mutalizm D)Xemosintez

93.O'simliklarning hasharotlar yordamida changlanishideyiladi.

- A)Entomofiliya V)Ornitofiliya S)Xiropterofiliya D) Anemofiliya

94. Hashoratlarni gulga jalg qiluvchi omillar..... deb nomlanadi.

- A) Attraktantlar V)Suksessiyalar S)Dominantlar D)Subdominantlar

95 Suvda o'suvchi o'simliklarga nima deb ataladi?

- A) Gidrofitlar V) Kserofitlar S)Kriofitlar D)Mezofitlar

96. SHo'r erlarda o'suvchi o'simliklarga nima deb ataladi?

- A) Galofitlar V)Kolsefoblar S)Psammofitlar D)Litofitlar

97. Fitogen omil qaysi xollarda namoyon bo'ladi?

- A)O'simliklarning barcha tirik organizmlarga tasirida

V)Mikroorganizmlarning o'simliklarga tasirida

S)Hayvonlarning o'simliklarga

D) O'simliklar va hayvonlarning bakterilarga

98. Individlarning optimal sonda saqlanib turishi nima deb ataladi?

- A) Gomeostaz V) Boshqarishi S) Biotop D) Ekotop

99. O'simliklar Ekologiyasining asosiy tadqiqot usuli-.... ?

- A) dalada kuzatish V) videotasmaga olish S)laboratoriyyada tajriba qilish

D) taqqoslash

100. Geliofit o'simliklar qanday o'simliklar?

A)YOrug'lik etarli bo'lgandagina normal o'sishi, rivojlanishi mumkin bo'lgan soyaga chidamsiz o'simliklar

V)Soyada o'suvchilar-yorug'lik kuchsiz tushadigan joylarda usadigan o'simliklar

S)YAxshi yorug'lik tushib turganda yashaydi, lekin soyaga ham chidamli bo'ladigan o'simliklar

D) Suv o'simliklari

101. Ssiofit o'simliklar qanday o'simliklar?

A) Soyada o'suvchilar-yorug'lik kuchsiz tushadigan joylarda usadigan o'simliklar

V)YOrug'lik etarli bo'lgandagina normal o'sishi, rivojlanishi mumkin bo'lgan soyaga chidamsiz o'simliklar

S)YAxshi yorug'lik tushib turganda yashaydi, lekin soyaga hali chidamli bo'ladigan o'simliklar

D) Suv o'simliklari

102.O'simliklarning gullash fazasiga utish uchun sutkada 12 soat yoki undan kamroq yorug'lik vaqtি kerak bo'lgan o'simliklargadeyiladi.

A) Qisqa kun o'simliklari V)Uzun kun o'simliklari

S) O'rtacha holdagi o'simliklar D) Neytral o'simliklar

103. O'simliklarning gullash fazasiga utish uchun sutkada 12 soatdan ko'proq yorug'lik vaqtি kerak bo'lgan o'simliklargadeyiladi.

- A) Qisqa kun o'simliklari V)Uzun kun o'simliklari
S) O'rtacha holdagi o'simliklar D) Neytral o'simliklar

104. O'simliklar tabiatda suvdan foydalanishiga qarab necha guruhga bo'linadi?
Omprofifitlar, Trixogidrofitlar, Friatofitlar.

- Zooxorlar, Friatofitlar, Anemofillar
Gidrofitlar, Kseromorflar, Entomofillar
Gidrofitlar, Friatofitlar, Anemofillar

105. Suvdan foydalanishiga ko'ra Omprofifitlaro'simliklar.

- A) Ildizi uncha chuqur ketmagan, yomg'ir suvidan foydalanadigan
V) Ildizi er ostki suvlarining xullanuvchi gorizontiga etgan
S) Ildizi er osti suvlariga etgan.

D) Ildizi er ostki suvlaridan foydalanuvchilar

106. Suvdan foydalanishiga ko'ra Trixogidrofitlaro'simliklar.

- A)Ildizi uncha chuqur ketmagan, yomg'ir suvidan foydalanadigan
V)Ildizi er ostki suvlarining xullanuvchi gorizontiga etgan
S)Ildizi er osti suvlariga etgan.

D) Ildizi er ostki suvlaridan foydalanuvchilar

107. Suvdan foydalanishiga ko'ra Friatofitlaro'simliklar.

- A)Ildizi er osti suvlariga etgan.
V)Ildizi er ostki suvlarining xullanuvchi gorizontiga etgan
S)Ildizi uncha chuqur ketmagan, yomg'ir suvidan foydalanadigan
D) Ildizi er ostki suvlaridan foydalanuvchilar

108. O'simliklarning suvga bo'lgan talabiga ko'ra guruxlarini to'g'ri ko'rsating

- A)Gidatofitlar- Gidrofitlar- Gigrofitlar- Mezofitlar- Kserofitlar
V)Gidatofitlar- Gidrofitlar- Gigrofitlar- Mezofitlar
S)Gidrofitlar- Gigrofitlar- Mezofitlar- Kserofitlar
D) Gidatofitlar- Gidrofitlar- Kserofitlar

109. Hayoti doimo suvda o'tuvchi o'simliklar bo'lib, bu gruppa asosan suv o'tlaridan iborat o'simliklargadeyiladi.

- A)Gidatofitlar V)Gidrofitlar S)Gigrofitlar D) Mezofitlar

110.Tanasining bir qismi suvdan tashqarida, qolgan qismi suv qavatida joylashgan o'simliklargadeyiladi.

- A)Gidatofitlar V) Gidrofitlar S)Gigrofitlar D) Mezofitlar

111.Sernam tuproqda va suv etarli bo'ladigan muhitda yashovchi o'simliklarga deyiladi.

- A)Gidatofitlar V)Gigrofitlar S)Gidrofitlar D)Mezofitlar

112. O'rtacha namlik sharoitida o'suvchi o'simliklar hisoblanib, bu ekologik guruhiga ko'pchilik madaniy va yovvoyi o'simliklar kiradigan o'simliklarga deyiladi.

- A)Mezofitlar V) Gidrofitlar S)Gidatofitlar D)Gigrofitlar

113. Tanasi sersuv, etli poyasi yoki bargida suvni zapas holda to'playdigan ko'p yillik o'simliklargadeyiladi.

- A) Sukkulentalr V) Gidrofitlar S) Sklerofitlar D) Mezofitlar

114. Asosan erta bahordan boshlab urug'idan ko'karib chiqadigan va yog'ingarchilik tugashi, havoning harorati yuqori darajaga (25—30°)

ko‘tarilishi bilanoq o‘z taraqqiyotini tugallovchi bir yillik o‘t o‘simpliklarniig o‘sish va rivojlanishi yilning yog‘ingarchilik mo‘l-ko‘l bo‘lgan davrida o‘tadi. Jazirama issiqlar boshlanishi bilan, ularning urug‘lari to‘kiladi va tanasi qovjirab qurib qoladigan o‘simpliklargadeyiladi.

A)Efemer o‘simpliklar V) Efemeroit o‘simpliklar S)Kserofitlar D)Psixrofit

115. Efemeroit o‘simpliklar guruxini ko‘rsating

- A)iloq, qo‘ng‘rbosh, boychechak, lola, savsargul
V)chitir, qizg‘aldok, shotara, oq chitir, jag‘-jag‘
S)Agava, aloe, semizak, kaktus, lola, savsargul
D) Kaktus, ba’zi sutlamalar, qorasho‘ralar

116. Havo oqimi nima?

A)SHamol V)Kislorod S) CO₂ D) O₃

117. Biomorfa so‘zining ma’nosи nima?

A) xaetiy shakl V) bo‘g‘im oralig‘i S)shaklini o‘zgartirish D) ichki tuzilish

118. Mevaning o‘z og‘irligi bo‘yicha tarqalishi?

A) zooxoreya V) baroxoriya S) gidroxoreya D)alloxoreya

119.Hayotida bir marta urug‘ beradigan o‘simpliklar qaysilar?

A) polikarp V) dikarp S) monokarp D) senokarp

120. Hayotida ko‘p marta urug‘ beradigan o‘simpliklar qaysilar?

A)polikarp V) dikarp S) senokarp D) monokarp